Xavfni boshqarish tizimida tovarni bojxona ko'rigidan o'tkazish zarurligi to'g'risidagi qaror tadbirkorlik subyekti xalolligiga qarab, avtomatlashtirilgan dasturdagi axborotlar asosida qabul qilinadi. Ya'ni subyektiv yondashuvdan voz kechiladi.

2018-yil 1-sentyabrdan Davlat bojxona qo'mitasining veb-saytida tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakati rejimini tartibga soluvchi barcha normativ hujjatlar, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruv uchun zarur bo'lgan hujjatlar, har bir tovarga mos bojxona bojlari stavkalari, ushbu hujjatlarni beruvchi organlar to'g'risidagi batafsil axborot, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun boshqa ma'lumotlarni real vaqt rejimida bepul olish imkonini beradigan “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmati joriy etildi.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilganda, davlat organlariga “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmatida nazarda tutilmagan ma'lumot va hujjatlarni talab qilish man etildi.

Bojxona organlari rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lib, uning barcha bo'linmalari yagona tartibda faoliyat yuritadi. U mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ishonchli tayanchi va iqtisodiy manfaatlarining sodiq himoyachisi hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblangan bojxona siyosatida so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Aynan ular uni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini, huquqiy, tashkiliy va moddiy-texnik asoslarini belgilaydi.

Mamlakatimizda bojxona ishi jahon hamjamiyatida kechayotgan integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda rivojlanmoqda. Bular esa savdoni globallashtirish, chegara orqali olib o'tilayotgan yuk hajmlarining sezilarli darajada ko'payishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishidagi yutuqlar bilan bog'liqdir.

Tabiiyki, ushbu omillar butun dunyoda savdo-iqtisodiy munosabatlar ustidan nazoratning kuchayishiga, bojxona tizimining roli ortishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro savdoning globallashuvi tashqi savdo siyosati vositalaridan foydalanishni yanada takomillashtirishni, ya'ni xalqaro savdoni tartibga solishda notarif usullardan tarifat usullariga o'tishni taqozo etmoqda. Bu esa tarifat usullarini bevosita amaliyotda qo'llovchi bojxona ishini, uning asosiy tashkil etuvchilarini, asosiy tamoyillari va qoidalarini o'rganishga e'tiborni oshiradi.

“Bojxona ishi” fanini o'qitishdan maqsad — talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona ishining o'rni, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o'tkazish, ulardan bojxona qonunchiligida belgilangan bojxona to'lovlarini undirish, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash, bojxona ishi bo'yicha xalqaro hamkorlik, bojxona xizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fan o'qitilishining asosiy vazifalari — O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarining kengayishi sharoitida respublikamiz bojxona organlari faoliyatini jahon amaliyotida qabul qilingan me'yorlar asosida takomillashtirish zarurligi to'g'risida talabalar ongida ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg'otishdan iborat.

Bojxona ishi fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Talabalarda nazariy bilimlar hosil qilish:**
 - bojxona faoliyatining mohiyati, maqsadi va prinsiplari haqida;
 - bojxona siyosatining davlat iqtisodiyotidagi o'rni to'g'risida;
 - xalqaro savdoni tartibga solishda bojxona tizimining ahamiyati haqida.
2. **Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish:**
 - tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish;
 - bojxona to'lovlarini hisoblash va undirish tartibini bilish;
 - bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha amaliy ishlarni bajarish.
3. **Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish asoslarini o'rganish:**
 - eksport va import operatsiyalarining huquqiy asoslarini bilish;
 - bojxona chegarasida nazorat turlarini tahlil qilish;
 - xavfni boshqarish tizimini o'rganish.
4. **Kontrabanda va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish choralarini bilish:**
 - bojxona qoidalarini buzilishining oldini olish;
 - bojxona organlarining huquqni muhofaza qilishdagi o'rni va vakolatlarini tushunish.
5. **Bojxona tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish yo'llarini o'rganish:**
 - xalqaro bojxona tashkilotlari faoliyati bilan tanishish;
 - jahon tajribasini milliy bojxona amaliyotiga tatbiq etish.
6. **Tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratish yo'llarini aniqlash:**
 - bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish;
 - raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali shaffoflikni oshirish.

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyasining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirishga olib kelmoqda.

Hozirgi bozor islohotlari strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishdan iboratdir.

2-mavzu. Bojxona tarixi

Reja:

- 1. O'rta asrlarda bojxona ishini rivojlanishi.**
- 2. Markaziy Osiyoda bojxona ishi.**
- 3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari**
- 4. O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashkil topishi va rivojlanishi**

Xalqlar va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning o'ziga xos shakli sifatida bojxona ko'p asrlar muqaddam paydo bo'lgan.

Tashqi savdo aloqalari haqidagi eng ilk ma'lumotlar bizga Qadimgi Misrning oltinchi sulolasi (eramizdan uch ming yil oldin) yodgorliklari orqali yetib kelgan. O'sha davrlarda savdo karvonlarining harakati xavfsiz emas edi. Misrdagi yangi podshohlik davrining tarixiy yodgorliklari ot-ulovlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari haqida hikoya qiladi. Shu sababli karvonni qo'riqlash va sarf-harajatlarni qoplash maqsadida maxsus yig'imlar undiriladi.

Feodallar tomonidan ular orqali o'tuvchi savdogarlardan undiriladigan soliqlar ham bojning qadimgi ko'rinishi edi. Keyinchalik ularni shaharlar ham undirib ola boshladi. Davlat paydo bo'lgandan keyin esa boj xazinaning to'ldirish uchun qulay vositasiga aylandi.

Ijtimoiy hayot murakkablashishi, shaharlar rivojlanishi, savdo hajmi va intensivligi kengayishi davomida yig'implarning yangi-yangi turlari, shu jumladan, savdodan olinadigan yig'imlar joriy etila boshladi.

Boj o'zining asosiy funksiyasi — fiskal funksiyasini, ya'ni xazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliqlar va yig'imlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Davlatning rivojlanishi barobarida bojlar ham rivojlanadi, bojxona xizmatini tashkil etish shakllari va usullari takomillashadi.

Bojxona tarixining rossiyalik tadqiqotchisi V.A. Timmerman eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Afinaning aholisi donni Misr, Sisiliya, keyinchalik esa Shimoliy Qora dengiz bo'yidan olganligini qayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shaharlar Qadimgi Gretsiyaning tashqi savdosi uchun shunchalik muhim ediki, ulardan tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmadi.

Gretsiyaning o'zida chetdan keltirilgan tovarlardan olinadigan boj ularning bahosining o'ndan bir qismini tashkil etar edi. Biroq vaqt o'tishi bilan afinoliklar mo'tadil bojlar savdoning rivojlanishiga ko'maklashadi va ko'p daromad keltirishi mumkin degan qarorga kelishdi. Shu sababli eramizdan oldingi IV asrda, Demosten davrida, boj tovar bahosining yigirmadan, ellikdan, hatto yuzdan bir qisminigacha qisqartirildi.

Ayrim buyumlar — qurol-yarog', harbiy anjomlar — umuman boj to'lashdan ozod etilgan. Afinaning barcha ittifoqchilari boj imtiyozlariga ega edilar, ular o'z tovarlari uchun bahosining yuzdan bir qismi, qadim shaharlar esa yigirmadan bir qismi miqdorida boj to'lashar edi.

Boj dengiz portlarida va shahar bozorlarida yig'ilar edi. Quruqlikdagi bojxonalar ham mavjud edi. Bojxonalaridagi operatsiyalar qo'shinlar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud bo'lgan taqdirda, chegaralar yopilganda to'xtatilardi. Boj odatda oltin va kumush bilan to'lanar edi.

Boj yig'ish ayrim shaxslar yoki guruhlariga sotilar, ular obro'li fuqarolardan bo'lgan kafilga ega bo'lishardi.

O'rta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi xalqaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan mustahkam aloqadorlikda davom etdi. Xristianlikning hukmronlik qilishi Yevropada bojxona ishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, Strasburgda 982 yilgi maqom bilan episkopga shaharning to'rt yuqori amaldorini — mer, graf, bojxonachi va xazinachini tayinlash huquqi berilgan edi.

Biroq keyinroq, 1249 yilda Frayburg shahrida bojxona amaldorini saylash va agar ular o'z vazifalariga vijdonan munosabatda bo'lmasalar, ularni lavozimidan bo'shatish huquqi fuqarolarning o'ziga berildi.

Strasburglik bojxonachilarning vazifasiga, masalan, eng asosiy soliqlarni undirish kirar, ayni vaqtda yarmarka yig'imlarini qal'a boshlig'i sifatida grafning o'zi undirar edi. Strasburg ko'priklari va yo'llari graf va bojxonachilar mablag'lari evaziga saqlanar edi.

Parijda XII asrda shaharga olib kirishda barcha xorijiy tovarlarga emas, balki boshqa fransuz shaharlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buyumlaridan, shuningdek, movut va mo'ynadan ham boj undirilardi.

1275 yilda Angliya parlamenti qirol Eduard I ga import qilinadigan vino va eksport qilinadigan ingliz juniga boj belgilash huquqini berdi.

Biroq Yevropa mamlakatlarida bojxonaning markazlashuvi yana ko'p asrlar davom etdi. Angliya bilan Shotlandiya o'rtasidagi bojxonalar 1707 yilda, Angliya bilan Irlandiya o'rtasidagi bojxona zastavalari esa faqat 1823 yilda yo'q qilindi.

Fransiyada bojxona birligi 1790 yilda vujudga keldi. Avstriya esa o'z bojxona siyosatini 1775–1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona to'siqlari 1859 yilda qulab, Germaniyaning bojxona jihatdan birlashishi esa 1842 yildan 1888 yilgacha davom etdi.

Davlatning ichki siyosati murakkabligiga qaramay, savdogarlarning tashqi savdo aloqalari XV–XVIII asrlarda feodal Yevropa mamlakatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi.

XVI asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming, olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj esa 185 ming funt sterlingni tashkil etar edi. XV–XVIII asrlarda hududidan savdogarlarning karvonlari Yevropadan Hindistonga, Hindistondan Yevropaga o'tadigan Misrda boj tovar qiymatining salkam 15 foizini tashkil etar, XVIII asrning oxirlariga kelib esa ular 35 foizga yetdi va undan ham oshib ketdi.

Imtiyozli tarif faqat savdogarlar Pizadan yetkazib beradigan temir va yog'och mahsulotlariga belgilangan (10%). Keyinroq Hindistonga Afrikani aylanib o'tadigan dengiz yo'li ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Xurmuz va Adan dengiz portlarining bosib olinishi tovarlarni Misr orqali olib o'tishga katta ta'sir ko'rsatdi, biroq bunda bojlarning haddan ortiqligi ham muayyan o'rin tutadi.

Fransiyada 1664 yilda boj yig'imlarining fiskal ahamiyati hali kuchli bo'lgan vaqtda boj tarifi tovarlarni keltirish bo'yicha 700 moddadan va olib chiqib ketish bo'yicha 900 moddadan iborat bo'lgan. Bu esa boj yig'imi mayda-chuydasigacha ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

Kanada 1975 yil dekabr oyida proteksionistik maqsadlarda AQShdan go'sht mahsulotlariga cheklov joriy qilganda, AQSh ushbu mahsulotlarning Kanadadan import qilinishiga qat'iy kvota belgiladi. Bu hol Kanada iqtisodiyotiga 100 million dollar zarar yetkazdi, AQSh ko'rgan zarar esa Kanadani ko'rgan zarardan 10 baravar kam bo'ldi.

2. Markaziy Osiyoda bojxona ishi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Masalan, olib kiriladigan mashina va asbob-uskunalar, kimyoviy tovarlar hamda materiallardan eng kam stavkalarda bojar undirilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari odatda bojdan ozod qilingan. Kiyim-bosh va uy-ro'zg'or buyumlariga oshirilgan stavkalar qo'llanilgan. Zeb-ziynat buyumlari va alkogolli ichimliklarga esa eng yuqori stavkalarda boj undirilgan.

Tarkibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy-iqtisodiy tizimning puxta faoliyat yuritishi har qanday tuzumda davlat mavjud bo'lishining iqtisodiy asosini tashkil etadi. Akademik B. Ahmedovning fikriga ko'ra, bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan. Chunki ko'p ming yillar davomida Sharqni G'arb bilan bog'lagan **Buyuk Ipak yo'li** Markaziy Osiyo hududidan o'tgan.

O'rta dengizdagi Suriya porti Antaliya uzoq vaqt davomida Ispaniya, Portugaliya, Venesiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga xizmat qilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo'l olgan. Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdoga aloqador bo'lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirilib, maqbul holga keltirilgan.

Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qat'iyalashtirsa, bojlar va yig'imlar haddan tashqari oshirilsa, karvonlar uni chetlab o'tish yo'lini izlaganlar. Markaziy Osiyoning o'zida ham Buyuk Ipak yo'lining bir necha tarmoqlari mavjud bo'lgan. Bu yo'ldan chetlab o'tgan davlatlar esa anchagina daromaddan mahrum bo'lishgan.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda yer solig'i sifatida **hiroj** va **tanob**, tovardan esa **zakot** undirilgan. Qur'onga muvofiq, har bir musulmon mol-mulkining qirqdan bir qismini zakot sifatida to'lagan. Zakot shuningdek, kelayotgan va ketayotgan har bir karvondan ham undirilgan. Shu sababli zakotchilar karvonlarning harakatini diqqat bilan kuzatib turganlar. Shahar orqali o'tadigan har qanday savdogar zakot olinadigan saroyga to'xtab o'tishi shart bo'lgan. Bu yerda uning tovaridan 2,5 foiz miqdorida boj undirilgan.

Bundan tashqari, savdogar har bir tuya hisobiga mahalliy yer egalari foydasiga ham haq to'lagan. Bu haq evaziga u barcha aholilik joylardan erkin o'tish kafolatini olgan. Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi deyarli barcha shaharlar boj undirish huquqini o'zida saqlab qolgan. Ular zakotni qonun bo'yicha emas, balki o'z bilganlaricha belgilagan. Afg'onistonda esa 2,5 foiz emas, balki 20 foiz miqdorida zakot undirilgan.

Ko'chmanchilardan zakot natura shaklida undirilgan, ya'ni har qirq bosh molning bittasi zakot sifatida olingan. Zakotchi tomonidan yig'ilgan butun mol-mulk xonning xazinasiga topshirilgan.

Buxoro xonligining katta qismini inglizlar nazorati ostida tutib turgan Afg'oniston bilan chegarasida bojxonalar tashkil etilgan. O'lkadan Afg'oniston bilan savdo qiluvchi boshqa tumanlardan chiqadigan tovarlar ana shu bojxonalardan o'tgan.

Ma'lumki, Buxoro hukumatining farmoyishiga ko'ra, Afg'onistonga olib ketilayotgan tovarlar bojdan ozod qilingan, biroq bu farmoyish Buxoro devonxonasidan tashqariga chiqmagan. Shunga qaramay, bojxona birlashmalari davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, **Turkiston general-gubernatorligi** tashkil etildi. 1893 yilda 11 ta chegara posti tashkil etilgan bo'lib, Turkiston okrugi ulardan biri edi. Okrug hududida 16 ta bojxona organi mavjud bo'lgan. 1895 yilda Termiz shahrida **Patta-Gisar bojxonasi** tashkil etildi, unda asosan Afg'onistondan keltirilgan tovarlardan

boj undirilgan. Har yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayohatchi o'tgan. O'sha davrda Afg'oniston orqali Markaziy Osiyoga kontrabanda tovarlari ham ko'plab o'tkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq komissarligi tarkibida 8 bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etildi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi **Bojxona bosh boshqarmasiga** aylantirildi. Uning tarkibida 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo'lib, ularda 5710 nafar xodim ishlagan. O'sha yili Termiz shahridagi Patta-Gisar bojxonasi **Termiz bojxonasiga** aylantirildi.

Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilgach, Bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi tarkibida qoldirildi. Toshkent postida jami 3 nafar xodim ishlagan bo'lib, ularga V. Novikov rahbarlik qilgan.

1970-yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi munosabati bilan ushbu post **Toshkent bojxonasiga**, 1988 yilda esa **O'zbekiston bojxonasiga** aylantirildi. 1988–1989 yillarda Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo'qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq va Olmaliqda bojxona postlari ishga tushirildi.

3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari

1. Mustaqillikdan oldingi davr

- 1991 yilgacha bojxona ishini **Bojxona kodeksi** va **“Boj tarifi to'g'risida”gi qonun** asosida amalga oshirilgan.
- O'sha davrda bojxona institutlari **huquqiy jihatdan boshqarish va tartibga solishning yangi usullarini joriy qilgan.**
- Yangiliklar:
 - Kontrabanda ilgari ma'muriy huquqbuzarlik, endi jinoyat sifatida baholandi.
 - Lisenziya tizimi va boshqa bojxona vositalari joriy etildi.
 - Xo'jalik sub'ektlarini ma'muriy javobgarlikka tortish qonuniylashtirildi.
 - Fuqarolar va xo'jalik sub'ektlari huquqlari kengaytirildi.

2. 1993–1996 yillar

- **1993 yil 7 oktyabr:** Vazirlar Mahkamasining 372-Farmoyishi – bojxona nazoratini takomillashtirish va statistika yuritish.
- **1995 yil 11 aprel:** Prezident farmonlari eksport-import operatsiyalarini tartibga solish bo'yicha.
- 1996 yil 1 oktabr: Tovar importini samaradorligini oshirish (ratsionalizatsiya) chora-tadbirlari.
- Ushbu hujjatlar **bojxona ishini tartibga solishda muhim rol o'ynadi**, yangi bojxona huquqi shakllandi.

3. Bojxona kodeksi va “Davlat bojxona xizmati” qonuni

- Bojxona kodeksi va 1997 yilgi qonun O'zbekiston bojxona tizimini **butun, yagona va uzviy tizimga aylantirdi.**

- Bojxona operatsiyalarida qonuniylik va fuqarolarning huquqlari himoyalaniishi oshdi.
- Bojxona kodeksi asosida:
 - Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish (tarif, lisenziyalash, kvotalar).
 - Bojxona nazorati va inspeksiyasi modernizatsiya qilindi.

4. Davlat Bojxona Qo‘mitasi (DBQ)

- **1997 yil 30 iyul:** Vazirlar Mahkamasining 374-son qarori bilan DBQ tuzilishi tasdiqlandi.
- DBQ vazifalari:
 - Yagona bojxona siyosatini amalga oshirish.
 - Bojxona qonunchiligini yuritish va nazorat qilish.
 - Tashqi iqtisodiy xavfsizlik, jamoat tartibi, hayot va salomatlikni himoya qilish.
 - Bojxona rejimlarini (tarif, lisenziyalash, deklaratsiya) amalga oshirish va nazorat qilish.
 - Kontrabanda, bojxona va soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish.
 - Giyohvandlik vositalari, qurol-yarog‘ va portlovchi moddalarni nazorat qilish.
 - Bojxona statistikasi va prognoz hisob-kitoblarini yuritish.
 - Xodimlar malakasini oshirish va bojxona infratuzilmasini rivojlantirish.
 - Xalqaro hamkorlik va axborot almashishni amalga oshirish.

5. DBQning huquqiy maqomi va kompetensiyasi

- DBQ **Davlat boshqaruvi organi** sifatida Konstitutsiyaga muvofiq faoliyat yuritadi.
- DBQ kompetensiyasi:
 - Yagona bojxona siyosatini amalga oshirish huquqi.
 - Bojxona va boshqa davlat organlari bilan me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqish va nazorat qilish.
- DBQning vazifalari va vakolatlari qonuniy me‘yoriy hujjatlar orqali belgilanadi, ular **mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy**.

4. O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashkil topishi va rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashkil topishi va rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari shundaki, mamlakatimizning asosiy bojxona qonunini yangilash ishlari uzoq va puxta olib borilgan. Qonun loyihasi ustida ishlash bojxona ishiga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimga solishdan boshlangan. Keyingi ikki yil ichida ushbu sohani tartibga soladigan o‘nlab nizom va yo‘riqnomalar qayta ishlangan. Bularga bojxona rejimlari, ayrim taomillar, bojxona bilan bog‘liq infratuzilma xodimlari: bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtirishi bo‘yicha mutaxassis faoliyatiga taalluqli hujjatlar kiradi.

Tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar amaldagi Bojxona kodeksiga ham kiritildi. Bir vaqtda kodeksning yangi tahriri loyihasi ustida ham ish olib borildi. Bunda amaldagi qonunni qo'llash amaliyoti, MDH bo'yicha hamkor davlatlarning bojxona qonunchiligi, hozirgi xalqaro bojxona amaliyotining amalda qo'llanilishi, shuningdek Jahon savdo tashkilotining qonun-qoidalari, 1999 yil yangilangan tahrirdagi "Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida" Kioto konventsiyasi va bojxona nazoratini tashkil etish masalalarini tartibga soladigan boshqa xalqaro konvensiyalarning qoidalari inobatga olingan.

Qonun loyihasini tayyorlayotganda DBK mutaxassisleri kodeksga bevosita ta'sir etadigan, qonunosti hujjatlari miqdorini iloji boricha qisqartiradigan hujjat bo'lishi kerakligidan kelib chiqdilar, chunki mufassal va aniq-puxta qonun bojxonani tartibga solish sohasida barqarorlik va oldindan ayta olishlik kafolatidir. Shu bois bojxona organlari va TIF ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning asosiy me'yorlari idoraviy me'yoriy hujjatlardan yangilangan qonunga o'tkazildi.

Bojxona to'lovlarini hisoblab yozish va to'lash yoki undirishning barcha masalalari bevosita qonun loyihasida aks ettirildi. Biroq bojxona boshqaruvi jarayonining har bir bosqichini imkon qadar batafsillashtirish amalda bajarib bo'lmaydigan vazifa. Imkon qadar bevosita amal qiladigan qonun yaratish maqsad qilib olingan bo'lishiga qaramay, hozir unga qo'shimcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqmasdan bo'lmaydi.

Bu nafaqat Davlat bojxona qo'mitasi, balki loyihani ishlab chiqishning turli bosqichlarida ishtirok etgan xalqaro ekspertlarning ham nuqtai nazaridir. Misol uchun, ushbu hujjatga bojxona bojlarining stavkalari, tovarlarni tasniflash qoidalarini kiritib bo'lmaydi. Zero, u bojxona tariflari bilan tartibga solishning barcha o'ziga xos detallarini batafsil tavsiflab berishi kerak bo'lgan amaliy yo'riqnoma emas.

Shu bois muayyan dastaklar to'plami hisoblangan turli xil qonunosti hujjatlari (yo'riqnomalar, tartiblar, nizomlar va hokazo), shubhasiz, har doim bojxona amaliyotida qo'llanadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi bevosita amal qiluvchi hujjat sifatida ularning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Shu sababli u 418 moddadan, 59 bob va 12 bo'limdan iborat bo'lib, amaldagi Bojxona kodeksi bilan qiyoslaganda ancha katta hajmli bo'ladi. Chunonchi, hozirgi paytda yangi tahrir loyihasida qayta taxrir qilingan modda va bo'lim mavjud.

Qonun loyihasi hajmining ko'payishi shu bilan shartlanganki, unda bojxona nazorati va tovarlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlarini hisoblab yozish masalalari va hokazolar bo'yicha bojxona organlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar me'yorlari ancha batafsil belgilangan; barcha mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan fuqarolarning ham bojxona to'g'risidagi qonunlarni buzish uchun javobgarligi masalalari tartibga solingan.

Shu sababli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay amaliy muhitni yaratish, tadbirkorlar bilan hamkorlikning sifat jihatidan yangi amaliy algoritmini ko'rish respublika bojxona xizmatining muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga terrorchilik harakatlari zamonamizning dahshatli voqealigiga aylandi. Terrorizm solayotgan xavf, xalqaro narkobiznesning hujumkorligi bojxona xizmatidan huquqni

muhofaza qilish funksiyalarini kuchaytirishni, yanada faolroq harakatlarni, ishda ildam bo‘lishni talab qildi.

Bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, narkotiklar, qurol, o‘q-dori, portlovchi moddalar, harbiy va ikkiyoqlama maqsaddagi tovarlarni aniqlash hamda ularning kontrabandasi bartaraf etish Davlat bojxona qo‘mitasining eng muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi. DBKsi tezkor tadbirlarning natijadorligi va uyushganligiga; tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni o‘z vaqtida olish, to‘plash, tahlil qilish va ushbu axborotdan amalda foydalanish tizimini barpo etishga alohida e‘tibor qaratgan.

Ushbu vaziyatlarni hal etish barcha fuqarolarning qonunga itoat etishi va halolligiga bog‘liq. Buning uchun bojxonaning barcha bo‘g‘inlari bojxona nazoratini aniq-puxta tashkil etishni ta‘minlashlari, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishlari zarur bo‘ladi.

Ana shu maqsadda bojxona infratuzilmasi obyektlarini modernizatsiyalash, ularni eng yangi uskunalar, aloqa va nazoratning zamonaviy vositalari bilan jihozlash bo‘yicha rejali ish olib borilmoqda. Bu faoliyat o‘z natijasini bermoqda. 2005 yilning to‘qqiz oyi ichida bojxona xizmati narkotiklarni kontrabandaga urinishga doir 80 dan ortiq urinishga barham bergan. G‘ayriqonuniy aylanmadan 38 kilogrammga yaqin turli narkotik vositalar, tarkibida psixotrop va kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar bo‘lgan yarim milliondan ziyod tabletkalar hamda ampulalar olib qo‘yilgan.

Ushbu yo‘nalishda respublika bojxonasi respublikaning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirib borib, terrorizmga qarshi kurashda bojxona xizmatlarining sa‘y-harakatlarini birlashtirish, bojxona nazoratining tashqi savdoga ko‘maklashish choralar bilan iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash choralarini biriktiradigan ta‘sirchan mexanizmini shakllantirish uchun harakat qilinmoqda.

3-mavzu. Bojxona to‘lovlari va ularning iqtisodiy ahamiyati

Reja:

1. Bojxona bojlarining iqtisodiy tabiati va ularning vazifalari

2. Bojxona bojlarini shakllanishi va tabakalanishi

Bojxona bojlari – bu tovarlar va xizmatlar xalqaro savdoda davlat chegarasidan o‘tishda yuklatiladigan majburiy to‘lovlar bo‘lib, ular davlat byudjetiga tushadigan daromad manbai sifatida xizmat qiladi. Bojxona bojlarining iqtisodiy tabiati bir vaqtning o‘zida quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

1. Fiskal (byudjet) vazifa

- Davlat byudjeti daromadlarini to‘plash.
- Milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash.

2. Tartibga soluvchi vazifa

- Ichki bozorni chet el tovarlaridan himoya qilish.
- Iqtisodiy siyosat maqsadlariga muvofiq tovar oqimlarini boshqarish.

3. **Proteksionistik vazifa**

- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish.
- Bojxona tariflari yordamida importni kamaytirish yoki rag‘batlantirish.

4. **Rag‘batlantiruvchi vazifa**

- Chet el investitsiyalarini jalb qilish.
- Import qilinadigan tovarlar va xomashyolarning tanlovini boshqarish orqali iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

5. **Barqarorlikni ta‘minlovchi vazifa**

- Savdo balansini barqarorlashtirish.
- Milliy valyutani himoya qilish.

2. **Bojxona bojlarini shakllanishi va tabakalanishi**

Bojxona bojlarini belgilashda bir nechta muhim **obyektiv omillar** hisobga olinadi:

- Tovarlarning iqtisodiy tabiati va qiymati;
- Tovar guruhlari va alohida mahsulotlar bo‘yicha bozor talab va taklifi;
- Ichki ishlab chiqarish va import hajmi;
- Davlat siyosati va strategik maqsadlar;
- Xalqaro shartnomalar va tarif majburiyatlari.

Tabakalanish va optimal yechimlar:

- Bojxona bojlari tovar guruhlari (masalan, oziq-ovqat, mashinasozlik, kimyo mahsulotlari) va alohida mahsulotlar bo‘yicha farqlanadi;
- Maxsus va stavka asosida belgilanishi mumkin: ad valorem (foizli), specific (aniq) yoki kombinatsiyalangan stavkalar.

Soliq tizimi va uning asosiy tamoyillari

Soliq tizimi – bu davlatning soliq siyosati doirasida soliqlarni yig‘ish va nazorat qilish tartibi.

Soliq tizimi tarkibi:

- To‘g‘ri soliqlar (foyda, mol-mulk, yer solig‘i);
- Egri soliqlar (aksizlar, bojxona bojlari);
- Majburiy to‘lovlar va yig‘imlar.

Davlat soliq siyosati tamoyillari:

1. **Ijtimoiy adillik tamoyili** – soliqlar barcha daromad darajalari bo‘yicha adolatli taqsimlanishi;
2. **Aniqlik tamoyili** – soliqlarni hisoblash va undirish aniq va tushunarli bo‘lishi;
3. **Qulaylik tamoyili** – soliq to‘lovchi uchun to‘lov jarayoni oson va qulay bo‘lishi;
4. **Samaradorlik tamoyili** – soliq daromadlari davlat iqtisodiy siyosati maqsadlariga mos kelishi;
5. **Barqarorlik tamoyili** – soliqqa tortish tizimi o‘zgarishlardan barqaror bo‘lishi.

Soliqning asosiy funksiyalari:

- **Fiskal funktsiya** – davlat byudjetini moliyalashtirish;
- **Taqsimlash funktsiyasi** – resurslarni ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlar bo'yicha taqsimlash;
- **Rag'batlantirish funktsiyasi** – iqtisodiy faoliyatni boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish.

O'zbekiston Respublikasidagi soliq turlari

- Daromad solig'i (jismoniy va yuridik shaxslar);
- Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);
- Aksizlar;
- Mulk solig'i;
- Bojxona to'lovlari va bojlar.

To'g'ri va egri soliqlar:

- **To'g'ri soliqlar** – daromad va mulkka asoslangan (masalan, foyda solig'i);
- **Egri soliqlar** – tovar va xizmatlar hajmiga asoslangan (masalan, aksiz, bojxona boji).

Bojxona to'lovlari

Mohiyati – import va eksport jarayonida to'lanadigan majburiy to'lovlar, davlat byudjetiga tushadigan daromad manbai.

Turlari:

1. **Bojxona bojlari (customs duties)** – tovarlarni import qilishda olinadi.
2. **Maxsus bojlar** – strategik yoki himoya qilinadigan tovarlar uchun;
3. **QQS va aksizlar** – bojxona chegara punktlarida undirilishi mumkin.

Bojxona bojlarining tavsifnomasi:

- Shaxsiy va korxona faoliyatiga ta'sir qiladi;
- Ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qiladi;
- Import va eksportni tartibga soladi;
- Stavkalar tovar guruhlariga va alohida mahsulotlarga qarab farqlanadi.

Bojxona bojlarining stavkalari:

- **Ad valorem** – tovar qiymatining foiziga nisbatan;
- **Specific** – bir birlik tovar bo'yicha aniq miqdorda;
- **Kombinatsiyalangan** – ikki turli stavkaning birikmasi.

4-mavzu. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari

Reja:

- 1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahririni yaratilishi va uni xalqaro huquqiy me'yorlarga mosligi**
- 2. Bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash faoliyatining huquqiy asoslari.**
- 3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzg'anlik uchun javobgarlik**

Bojxona kodeksini yangi tahririning loyihasini ishlab chiqish 2000 yilda boshlangan edi. Uni yaratgan ishchi guruh amaldagi kodeksni qo'llash amaliyotini, hozirgi xalqaro bojxona amaliyotining realliklarini, «Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida»gi Kioto konvensiyasiga (1974 yil), avvalo uning qayta ko'rilgan versiyasiga (1999 yil) asoslangan g'oyalarni hisobga oladi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga kelajakda kirishi ham loyiha qoidalarini shakllantirishda belgilovchi qoidalar hisoblanadi. Bu savdoni nazorat qilish mexanizmini umumqabul qilingan xalqaro standartlarga mutanosib ravishda ko'rishga majbur etadi.

Shu tariqa, bojxona xizmati asosiy qonunning yangi tahririni tayyorlash quyidagi muhim tamoyillarni hisobga olgan holda yuritiladi:

- Hujjatning xalqaro savdo va bojxona ishlari qoidalari, boshqa xalqaro huquq me'yorlariga, shuningdek, respublikada amalda bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyatni va xorijiy investitsiyalarni amalga oshirilishini tartibga soladigan qonun hujjatlariga muvofiqligi;
- Milliy qonunchilikni O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida tuzilgan «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitim»ga muvofiq Yevropa qonunchiligiga moslashtirish;
- Ular asosida tashqi savdo va dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekiston bilan savdosida uni tartibga solish, amalga oshiriladigan bir qator xalqaro savdo va bojxona konvensiyalariga kirishga tayyorlanish;
- Hujjatga bevosita ta'sir ko'rsatish xususiyatini berish.

Darvoqe, hozirgi tamoyilni talqin qilish borasida ko'plab bahslar yuritilmoqda. Bojxona ishining ba'zi amaliyotchilari bevosita ta'sir ko'rsatadigan qat'iy Kodeksni yaratish bajarib bo'lmaydigan vazifa deb hisoblaydilar. Hayot oqimi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining jo'shqin sur'atlari har qanday qonun hujjatlariga, har qanday me'yoriy hujjatlarga qotib qolgan shaklda mavjud bo'lishga imkon bermaydi.

Ular yangi kodeksda asosiy jihatlar aks ettirilishi, detallar esa boshqa tartibga soluvchi hujjatlarda belgilanishi kerak deb hisoblaydilar. Shunday bo'lsada, barcha holatlarni chuqur tahlil qilib, amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligini hisobga olib, ishchi guruh bojxona organlari bilan tadbirkorlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar asosiy me'yorlarining katta qismini idoraviy, me'yoriy hujjatlardan yangilangan qonunga kiritish to'g'risida qaror qabul qildi.

Aniq ravshaniki, yanada batafsil puxta kodeks – bojxona tartibga solishi sohasida barqarorlik va istiqbolni ko‘zlab ish yuritish kafolatidir. Bojxona talab qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning batafsil ro‘yxati va tovarlarni chiqarish muddati albatta qonun tomonidan belgilanishi kerak. Ta’sir choralarining batafsil ro‘yxati ham shunday qilinishi darkor.

Biroq, har bir qadamni, bojxona ma’murchiligi jarayonlarini imkon qadar batafsillashtirish haqiqatda amalda bajarib bo‘lmaydigan vazifa. Mo‘ljal aniq bo‘lishiga qaramay, unga hamroh bo‘ladigan me’yoriy-huquqiy hujjatlarsiz bevosita ta’sir qiladigan qonunni yaratib bo‘lmaydi. Bu faqat Davlat bojxona qo‘mitasining nuqtai nazari emas.

Bojxona qonunchiligini ishlab chiqishda biz, masalan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi (EIK) ekspertlari bilan yaqindan hamkorlik qilamiz. Ular ham bu masalada bizni qo‘llab-quvvatlashadi: ha, qonun ravshan va tushunarli bo‘lishi kerak, lekin uning matni doim ham professional yurist bo‘lmagan kishilar tomonidan aynan qabul qilinmasligi mumkin.

Alalxusus, so‘z Bojxona Kodeksi singari murakkab me’yoriy-huquqiy hujjat to‘g‘risida borganda. Misol uchun, tovarni chegaradan muammosiz qanday qilib olib o‘tishni tushunish uchun uning bir o‘zi kifoya qilmaydi, chunki bojxona bojlari stavkalari, tovarlarni tasniflash qoidalarini ushbu hujjatga kiritish mumkin emas. Zeroki, u barcha tafsilotlarni ipidan ignasigacha bayon qiladigan amaliy yo‘riqnoma emas.

Bojxona sohasida huquqiy munosabatlar go‘yatda xilma-xillikka ega. Ba’zan oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan muammolar yuzaga keladi. Lekin baribir, ularni hal etish kerak. Buning ustiga shunday qilish kerakki, o‘zbo‘shimchalik, qonunning u yoki bu qoidalarini o‘z bilgichicha talqin qilishlar kam bo‘lsin. Shuning uchun muayyan regulyatorlar to‘plami ularga turli qonunosti hujjatlari (yo‘riqnomalar, tartiblar, nizomlar va hokazolar) kiradi. Shubhasiz, har doim bojxona amaliyotida ishlatiladi.

Lekin, yana bir marotaba ta’kidlashim kerak: yangi tahrirdagi bojxona kodeksi, bevosita ta’sir ko‘rsatadigan hujjat sifatida, ularni anchagina qisqartirishga olib keladi.

Amaldagi bojxona kodeksini qo‘llash amaliyotni umumlashtirish chog‘ida muammo va masalalar doirasida belgilandi, ularni mazkur aniq bosqichda hal qilish hayotiy muhim hol edi. Unga O‘zbekiston Respublikasining qonuni tomonidan bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalarning qayta-qayta kiritilishi ham shu bilan izohlanadi.

Misol uchun, «qayta ishlash» bojxona rejimiga taalluqli qoidalar, bojxona va erkin omborlar boj to‘lamasdan savdo qilinadigan do‘konlarni nazorat qilish masalalari anchagin o‘zgartirildi, ular batafsilroq qayd etilgan, ba’zi atamalar yanada yig‘iq talqinga ega bo‘ldi. Bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtiruvchi bo‘yicha mutaxassis faoliyati to‘g‘risida nizomlarga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi.

Amaldagi bojxona kodeksi 19 bob va 11 bo‘limdagi 198 moddadan iborat. Yangi tahrir loyihasida hozir 65 bob va 18 bo‘limda 500 dan ortiq modda mavjud.

Qonun loyihasi hajmining ko‘payishi avvalo shu narsalar bilan bog‘liq:

- Bojxona nazorati va tovarlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlarini hisoblab yozish va hokazo masalalar bo'yicha bojxona organlari bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida huquqiy munosabatlar me'yorlari yanada batafsilroq belgilangan;
- Mulkchilikning barcha shakllariga mansub xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan, fuqarolarning ham, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligi masalalari tartibga solinmoqda;
- Huquqbuzar o'z aybini tan oladigan va unga solinadigan jarimalarni joyning o'zida to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan ayrim bojxona huquqbuzarliklari uchun ish yuritish va undirishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilish taklif etiladi;
- «Maxsus bojxona tamoyillari», «Xatarni boshqarish», «Xalqaro pochta jo'natmalari», «Ichki bojxona tranziti», «Valyuta nazorati», «Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqlarining himoya qilinishi», «Bojxona statistikasi», «Axboriy tizimlar va axborot texnologiyalari» singari va boshqa bo'limlar qo'shimcha ravishda kiritildi.

Aytaishim joizki, yangi boblarning anchagina qismini qonunchilik novellalari deb atash mumkin. Bungacha bizda faqat umumiy tamoyillar bo'lib, ular asosida ishda biron bir tarzda ishtirok eta olardik. Endi yangiliklarga bojxona ishining yangi konsepsiyasi qo'yildi. So'z avvalo, xatarlar tahlili va ularni boshqarish tizimi to'g'risida boryapti...

Loyihaning fazilatlaridan biri shundan iboratki, u tovar olib kelishdan tortib, uning taqdirini belgilashgacha muammolarning butun zanjirini tartibga solishni nazarda tutadi. Amaldagi kodeksda mazkur masalalar bunday kompleks tarzda hal qilinmagan.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa chiqarib, asosli tarzda aytish mumkinki, yangi tahrirdagi bojxona kodeksi loyihasida hozir O'zbekistonda amal qilayotgan tashqi savdo qoidalariga rioya qilishning universal mexanizmi mavjud. Uning asosiy qoidalari Jahon savdo tashkilotining umum e'tirof etilgan me'yorlari va qoidalariga muvofiqlashtirilgan. Shu tariqa, bojxona qonunchiligi meyorlarining yangi majmuining o'z vaqtidagi va ta'sirchan huquqiy baza bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga, mamlakatimizni jahon iqtisodiyotiga yanada integrallashishga va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga yo'naltirilgan.

2. Bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash faoliyatining huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri – bojxona chegarasi orqali bojxona qoidalarini buzganda, kontrabanda yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarini olib o'tilishiga qarshi kurashishdir.

Bojxona qoidalarini buzilishi deganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining 129-moddasiga asosan bojxona kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga aybli g'ayriqonuniy rioya etish tushuniladi.

Bojxona kodeksining 129-moddasiga asosan bojxona qoidalarining buzilishi – Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishiga oid boshqa qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiyatchiliklaridan o‘tkazish tartibiga, bojxona to‘lovlarini to‘lash tartibiga rioya etmaslik, bojxona imtiyozlarini berish va ulardan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning huquqiga zid tusdagi harakat yoki harakatsizligidir. Buning uchun (ya’ni, ularning huquqqa zid harakati yoki harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Javobgarlik sub’ektlari. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik sub’ektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O‘zbekiston Respublikasi shaxslari ham, xorijiy shaxslar ham ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

- fuqaro (o‘n olti yoshga to‘lgan);
- mansabdor shaxs (agar ular huquqbuzarliklar sodir etilgan paytda ularning xizmat vazifalariga Bojxona kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishi bo‘yicha qonun hujjatlari talablarini bajarishni ta’minlash kirs);
- yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);
- yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar.

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 15-bo‘limi 134-172-moddalarida bojxona haqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilgani uchun javobgarlik belgilangan.

Fuqaro va mansabdor shaxslarning javobgarligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdor shaxslar ma’muriy javobgar bo‘ladilar; ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo‘lsa, jinoyat javobgarligiga tortiladi.

Huquqni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi o‘rtasida o‘zaro munosabatlar paydo bo‘lganda, huquq buzish mavzusi fuqaroga tegishli tovar bo‘lganda, bojxona qoidalarining buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin. Mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etilishi paytida Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta’minlash ularning xizmat vazifalariga kirs, bojxona qoidalarini buzilganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Yuridik shaxslarning javobgarligi. Yuridik shaxslar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga nisbatan Bojxona kodeksining 134-172-moddalarida nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib

olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yukni oluvchi, jo'natuvchi, tashuvchi, saqlovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlari yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan hatti-harakat korxona va tashkilot (yuridik shaxs) tomonidan sodir etilgan bojxona qoidalarining buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxs sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi. Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lgan tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirdagina, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoyiy javobgarlikka tortish, yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzg'anlik uchun beriladigan jazo turlari.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzg'anlik uchun quyidagi jazolar beriladi (BKning 132-moddasiga muvofiq):

1. **Jarima.** Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtda, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdan belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib belgilanadi. Tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.
2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organlari tomonidan berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish.
3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish. Musodara qilish – bojxona qoidalarini buzilishi obyekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekin olib qo'yilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzg'anlik uchun javobgarlik

1. Bojxona xodimlarining vazifasi

- Bojxona xodimlari mamlakat bojxona chegaralarini daxlsizligini ta'minlaydi.
- Maqsad: noxush moddalar, qurol-yarog', giyohvandlik vositalari va ekstremistik faoliyatga qarshi qat'iy to'sqinlik qilish.
- Vazifa: kontrabandaga qarshi kurashish, milliy boylik va intellektual mulkni himoya qilish.

2. Bojxona qonunbuzarligi tushunchasi

- **Bojxona kodeksi 129-moddasiga** muvofiq, bojxona qoidalariga aybli ravishda rioya qilmaslik – qonunbuzarlik hisoblanadi.
- Shu jumladan:
 - bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdagi qoidalarni buzish,
 - bojxona to'lovlarini to'lamaslik,
 - bojxona imtiyozlaridan noqonuniy foydalanish.

3. Javobgarlik subyektlari

Bojxona qonunbuzarligi uchun javobgarlik quyidagi shaxslarga nisbatan qo'llanadi:

1. **Fuqaro** – 16 yoshdan oshgan shaxslar.
 2. **Mansabdor shaxs** – bojxona vazifasini bajarish majburiyatidagi xodimlar.
 3. **Yuridik shaxslar** – korxona, tashkilot, muassasa.
 4. **Yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkorlar** – shaxsiy biznes bilan shug'ullanuvchi shaxslar.
- Jinoyat alomatlari mavjud bo'lsa, fuqaro jinoyat javobgarligiga tortiladi.
 - Yuridik shaxslar xodimlarining javobgarligi ularni bojxona qonunbuzarligidan ozod qilmaydi.

4. Bojxona qonunbuzarligi turlari va jazolari (132-moddaga muvofiq)

1. **Jarima**
 - Pul ko'rinishida; qiymat bojxona tovarlari yoki transport vositalarining bozor narxi asosida belgilanadi.
2. **Litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish**
 - Ba'zi faoliyat turlari uchun bojxona organi tomonidan berilgan ruxsatnomalar bekor qilinadi.
3. **Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish**
 - Qurilma, vosita yoki tovarlar noqonuniy olib o'tilgan bo'lsa davlat mulkiga o'tadi.

- Qonunbuzarlik bir necha marta sodir etilsa, har biri alohida jazo talab qiladi.
- Jazolar bojxona to'lovlari va boshqa majburiyatlarni bekor qilmaydi.

5. Jazo belgilash muddati

- Jarima va litsenziya chaqirib olish: aniqlangandan 6 oy ichida, ammo uch yilni kechiktirmay qo'llanadi.
- Bojxona tovarlarini musodara qilish: qonunbuzarlik aniqlangan vaqtdan boshlab asosiy yoki qo'shimcha jazo sifatida qo'llanadi.
- Ishni yuritish: boshlang'an kundan bir oy ichida tugatilishi lozim, zarur hollarda yuqori organ tomonidan to'rt oyga uzaytirilishi mumkin.

6. Ish yuritish tartibi

1. Bojxona qonunbuzarligi aniqlanadi va dastlabki hujjatlar tuziladi (bayonnoma, tushuntirishlar, guvohlar, ekspert xulosalari).
 2. Dalillar yig'iladi va tekshiriladi.
 3. Ish ko'rib chiqish va qaror qabul qilinadi.
 4. Qaror ijrosi ta'minlanadi, profilaktik choralar ishlab chiqiladi.
- Ishlar davlat tilida yoki mahalliy aholi tilida yuritiladi.
 - Ish yuritish davomida ishtirokchilarning ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

7. Ish yuritishni to'xtatish holatlari

- Bojxona huquqbuzarligi mavjud bo'lmasa.
- Shaxs 16 yoshga to'lmagan bo'lsa.
- Shaxs aqli butun bo'lmasa.
- Shaxs zarur mudofaa chorasini qo'llasa.
- Amnistiya e'lon qilingan yoki jazo muddati o'tgan bo'lsa.
- Jinoyat ish mavjud bo'lsa.
- Shaxs vafot etgan bo'lsa.

5-mavzu. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va undirish tartibi

Reja:

1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.
2. QQS to'lovchilar tarkibi. QQSning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza. QQS bo'yicha belgilangan imtiyozlar.
3. QQS stavkalari. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish. QQSni to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari.

4.O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tovarlarni olib chiqishda soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari.

3.1.O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati.

237-modda. Soliq to‘lovchilar

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qiluvchi quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq to‘lovchilar deb yuritiladi):

- 1) O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;
- 2) tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan daromadi soliq davrida bir milliard so‘mdan oshgan yoxud ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qiluvchi chet el yuridik shaxslari, agar tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish joyi deb O‘zbekiston Respublikasi e‘tirof etilsa;
- 4) faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari;
- 5) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to‘g‘risidagi shartnoma) doirasida amalga oshiriladigan faoliyat bo‘yicha – oddiy shirkatning ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs – oddiy shirkatning ishtirokchisi;
- 6) O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tuvchi shaxslar. Mazkur shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq majburiyatlari ushbu bo‘limda belgilangan hollarda va tartibda soliq agentlari tomonidan bajariladi.

Quyidagilar soliq to‘lovchilar deb hisoblanmaydi, bundan ushbu moddaning birinchi qismi 6-bandida nazarda tutilgan hollar mustasno:

- 1) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari – o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish doirasida;
- 2) aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchi shaxslar.

Soliq to‘lovchilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) to‘lovchi sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish hisobida turadi.

238-modda. Soliq solish ob‘yekti

Quyidagilar soliq solish ob‘yektidir:

- 1) realizasiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bo‘yicha aylanma;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish.

Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish

bo'yicha aylanmani bunday doimiy muassasaning faoliyatidan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Quyidagilar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi:

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy (oilaviy) mol-mulkni realizasiya qilish;

2) yuridik shaxs qayta tashkil etilayotganda uning mol-mulkini huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) o'tkazish;

3) ishonchli boshqaruvning muassisi tomonidan mol-mulkni ishonchli boshqaruvchiga berish va ishonchli boshqaruv shartnomasining amal qilish muddati tugagan taqdirda, ishonchli boshqaruvchining o'zi ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkni qaytarishi;

4) milliy valyuta yoki chet el valyutasi muomalasi bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish (bundan numizmatika maqsadlari mustasno).

239-modda. Tovarlarini (xizmatlarini) realizasiya qilish bo'yicha aylanma

Tovarlarini realizasiya qilish bo'yicha aylanma quyidagilardan iborat:

1) tovarga bo'lgan mulk huquqini pullik asosda, shu jumladan tovarning qarz shartnomasi bo'yicha o'tkazish;

2) tovarni bepul berish, bundan shunday berish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno;

3) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berish;

4) tovarni bo'lib-bo'lib to'lash shartlari asosida berish.

Tovarni realizasiya qilishdan farq qiluvchi har qanday faoliyat, shu jumladan quyidagilar xizmatlarini realizasiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi:

1) pullik asosda xizmatlar ko'rsatish;

2) bepul xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan mol-mulkni soliq to'lovchining bepul foydalanishi uchun berish, bundan shunday xizmatlarini ko'rsatish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan hollar mustasno.

Tovarlarini bepul berish yoki bepul xizmatlar ko'rsatish quyidagi shartlardan hyech bo'lmaganda biriga rioya etilganda iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi deb e'tirof etiladi:

1) daromad olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqarilgan bo'lsa;

2) shunday tadbirkorlik faoliyatini saqlash yoki rivojlantirish uchun zarur bo'lsa va xarajatlarning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi asoslantirilgan bo'lsa;

3) qonun hujjatlarining qoidalaridan kelib chiqsa.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida quyidagilar ham tovarlarini (xizmatlarini) realizasiya qilish bo'yicha aylanmadir:

1) yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida tovarlarini berish (xizmatlar ko'rsatish);

2) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) ishtirokchilari o'rtasida shunday shartnoma doirasida tovarlarini berish (xizmatlar ko'rsatish);

3) quyidagilarga tovarlarini berish (xizmatlar ko'rsatish):

a) yuridik shaxs ishtirokchilari tarkibidan ishtirokchi chiqqanda (chiqarilganda) yoki uning yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoxud ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) yuridik shaxs tomonidan qaytarib sotib olinganda, ishtirokchiga;

b) emitent bo'lgan yuridik shaxs tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olishda, aksiyadorga;

v) yuridik shaxs tugatilganda, aksiyadorga yoki ishtirokchiga;

4) xarajatlari ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq (bundan 20-bandda nazarda tutilgan xarajatlar mustasno) foyda solig'ini hisoblab chiqarishda chegirilmaydigan, soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatish;

5) jismoniy shaxslarga mehnatga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobiga tovarlarni berish (xizmatlar ko'rsatish);

6) soliq to'lovchi tomonidan o'ziga tegishli mol-mulkni (xizmatlarni), agar bunday mol-mulk (xizmatlar) bo'yicha soliq summasi to'liq yoki qisman hisobga o'tkazilgan bo'lsa, boshqaruv organi a'zolariga, xodimlarga, ularning oila a'zolariga yoxud boshqa shaxslarga soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy maqsadlarda foydalanish uchun berish (xizmatlar ko'rsatish);

7) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish, agar tovarlar va (yoki) mol-mulk qayta ishlash mahsuli shaklida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

8) erkin bojxona hududining bojxona tartib-taomiliga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovarni yo'qotish, boshqa holatlarda soliqni to'lash zarur bo'lgan taqdirda;

9) qaytarilishi lozim bo'lgan, ko'p marta muomalada bo'ladigan idishlarning sotuvchi tomonidan berilishi, agar idish bunday idishdagi mahsulotni yetkazib berishga doir shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmasa.

Tovarlar (xizmatlarni) olish huquqini beruvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb e'tirof etiladi.

240-modda. Tovarlar realizatsiya qilish joyi

Quyidagi shartlardan hych bo'lmaganda bittasi bajarilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlar realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi:

1) tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida uning hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa;

2) tovar jo'natish yoki transportda tashish boshlangan paytda O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

241-modda. Xizmatlarni realizatsiya qilish joyi

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, basharti bunday xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatni amalga oshirsa yoki tursa, O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi.

Agar xizmatlarning xaridori O'zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxsni (uning filiallarini yoki vakolatxonalarini) yoki jismoniy shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish asosida haqiqatda hozir bo'lsa, mazkur hudud xaridorning

faoliyatni amalga oshirish joyi deb e'tirof etiladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan taqdirda, xaridorning O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda hozir bo'lishi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joy yoki uni boshqarish joyi, uning doimiy muassasasi joylashgan yer (agar xizmatlar ushbu doimiy muassasa orqali olingan bo'lsa), jismoniy shaxsning yashash joyi asosida belgilanadi.

Quyidagi hollarda ham O'zbekiston Respublikasi hududi xizmatlarni realizasiya qilish joyi deb e'tirof etiladi, agar:

1) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan ko'chmas mol-mulk bilan bevosita bog'liq bo'lsa. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, arxitektura loyihasini ishlab chiqish, qurilish faoliyatini tayyorlash va muvofiqlashtirish, arxitektura va qurilish faoliyati ustidan mualliflik va (yoki) texnik nazorat bilan bog'liq bo'lgan qurilish, montaj qilish, qurilish-montaj xizmatlari, ko'chmas mol-mulkka doir ishga tushirish-sozlash, ta'mirlash, restavratsiya qilish ishlari, ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek ko'chmas mol-mulkni ijaraga berish kiradi;

2) xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda bo'lgan ko'char mol-mulk bilan bevosita bog'liq bo'lsa, bundan transport vositalarini ijaraga berish mustasno. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, ko'char mol-mulkni montaj qilish, sozlash, yig'ish, ishlov berish, qayta ishlash, ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish, saqlash kiradi;

3) umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, dam olish va boshqa shunga o'xshash xizmatlar, turizm, mehmonxona xizmatlari va joylashtiruvchi, madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, o'qitish (ta'lim) sohasidagi, shu jumladan malaka imtihonlari o'tkazish, seminarlar, malaka oshirish kurslarini, pullik ko'rgazmalarni, konferensiyalarni, simpoziumlarni va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etishga doir xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida ko'rsatilsa. Ushbu bandning qoidalari elektron shaklda ko'rsatiladigan o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4) tashish va (yoki) transportda tashish bo'yicha xizmatlar yoxud bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog'liq xizmatlar quyidagilar tomonidan ko'rsatiladigan bo'lsa:

a) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, agar jo'natish punkti va (yoki) belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa. Ushbu kichik bandda ko'rsatilgan qoida ushbu transport vositalarida tashishni (transportda tashishni) nazarda tutuvchi, kemada vaqtincha yuk tashishga doir shartnoma bo'yicha (ekipaj bilan bo'lgan vaqtga) transport vositalarini berish chog'ida ham qo'llaniladi. Bunda, agar havo kemalaridan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o'rtasida tashish uchun foydalaniladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududi kemada vaqtincha yuk tashish shartnomasiga ko'ra havo kemalarini foydalanishga berish bo'yicha xizmatlarni realizasiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydi;

b) chet ellik shaxslar tomonidan, agar jo'natish punkti va belgilangan punkt O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa (bundan chet el yuridik shaxslari tomonidan yo'lovchilarni, pochmani va yukni ushbu yuridik shaxsning

doimiy bo'lmagan muassasasi orqali tashishga doir xizmatlar mustasno). Ushbu kichik bandning qoidalari tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha transportda tashish chog'ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita tashish va (yoki) transportda tashish bilan bog'liq xizmatlarga hamda ushbu qismning 5-bandida ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

5) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyigacha tashish chog'ida bojxona tranzitining bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni tashish va (yoki) transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar (bundan ushbu qismning 7-bandida ko'rsatilgan xizmatlar mustasno) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar yoki chet el yuridik shaxsining doimiy muassasasi yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilsa;

6) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigasiya xizmatlari ko'rsatilsa;

7) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tabiiy gazni quvurlar orqali tashishni tashkil etish bo'yicha xizmatlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilsa;

8) ijaraga berish paytida O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan transport vositalarini qisqa muddatli ijaraga berish bilan bog'liq xizmatlar. Agar xizmatlar transport vositalarini uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq bo'lsa, transport vositalarining joylashgan yeridan qat'i nazar, xizmatlarni sotib oluvchining faoliyatini amalga oshiradigan joyi (joylashgan yeri) bunday xizmatlarning realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi. Bunda havo va dengiz kemalariga, vertolyotlarga va temir yo'l transportining harakatdagi tarkibiga nisbatan shartnoma, agarda u 90 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi. Boshqa transport vositalariga nisbatan bunday shartnomalar 30 kungacha bo'lgan muddatga tuzilgan bo'lsa, qisqa muddatli deb hisoblanadi;

9) televideniya va (yoki) radioda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa shakllarda reklamani joylashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida amalga oshiriladigan xizmatlar;

10) ushbu Kodeksning 282-moddasida ko'rsatilgan elektron shakldagi xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan yoki faoliyatni amalga oshirayotgan shaxslar tomonidan olinsa. Bunda, agar quyidagi shartlardan hyech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, O'zbekiston Respublikasining hududi jismoniy shaxs tomonidan elektron shakldagi xizmatlarni olish joyi deb e'tirof etiladi;

a) xaridorning yashash joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa;

b) xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash uchun foydalaniladigan bank yoki xaridor tomonidan xizmatlarga haq to'lash amalga oshiriladigan to'lov tizimlarining operatori O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

v) xaridor xizmatlarni olish chog'ida foydalangan tarmoqning manzili O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;

g) xizmatlarni olish yoki xizmatlarga haq to'lash uchun foydalaniladigan telefon raqami mansub bo'lgan mamlakatning xalqaro kodi O'zbekiston Respublikasi tomonidan berilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi, agarda ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xizmatlarni realizasiya qilish joyi unda belgilangan mezonlarga muvofiq bo'lmasa, ushbu xizmatlarni realizasiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydi.

Agar xizmatlar ko'rsatish asosiy xizmatlarni realizasiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo'lsa, bunday realizasiya qilish joyi deb asosiy xizmatlar realizasiya qilingan joy e'tirof etiladi.

242-modda. Tovarlar (xizmatlarni) realizasiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sana

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan hisobvara-q-faktura taqdim etilgan sana yoki tovarlar jo'natilgan (berilgan) sana, agar ushbu sana hisobvara-q-faktura taqdim etilgan sanadan oldin kelsa, tovarlarni realizasiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarni jo'natish (berish) amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi xaridorga o'tkazilgan kun tovarlarni realizasiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ko'chmas mol-mulk realizasiya qilingan taqdirda, ko'chmas mol-mulkni boshqa shaxs tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi shartnomaning taraflari tomonidan imzolangan qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi bo'yicha xaridorga ko'chmas mol-mulk berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hisobvara-q-faktura yoki boshqa hujjat rasmiylashtirilgan (imzolangan) sana xizmatlarni realizasiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismi qoidalari boshlanishi bir hisobot (soliq) davriga, tamomlanishi esa boshqa hisobot (soliq) davriga to'g'ri keladigan xizmatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Elektr va (yoki) issiqlik energiyasi, suv, gaz, kommunal xizmatlar, aloqa xizmatlari, quvurlar tizimi orqali yuklarni tashishga doir xizmatlar realizasiya qilinganda, tovarlar (xizmatlar) doimiy (uzluksiz) asosda realizasiya qilingan boshqa xollarda tovarlar yetkazib berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) kalendar oyning so'nggi kuni tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanadir.

Obyektlar qurilishida, shu jumladan ob'yektlarni foydalanish uchun tayyor holda qurishda, shuningdek uzoq (bir soliq hisoboti davridan ortiq) texnologik davriylikdagi uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha, agar tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar shartlarida xizmatlarni har oyda topshirish nazarda tutilmagan bo'lsa, har bir kalendar oyning oxirgi kuni aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi taraflari tomonidan imzolangan qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ko'ra mol-mulk ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) tasarrufiga berilgan sana aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berishda (xizmatlar ko'rsatishda) aylanma amalga oshirilgan sana deb soliq to'lovchining tegishli ichki hujjati bilan rasmiylashtirilgan, ushbu tovarni berish (xizmatlar ko'rsatish) amalga oshirilgan kun e'tirof etiladi.

Tovarlar eksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan holda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilgan taqdirda, quyidagi sanalar tovarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sana deb hisoblanadi:

1) bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona chegarasi haqiqatda kesib o'tilgan sana;

2) bojxonaga oid deklaratsiyalashni amalga oshirgan bojxona organining belgilari qo'yilgan holda tovarlarga taalluqli bojxona yuk deklaratsiyasi ro'yxatdan o'tkazilgan sana – davriy va (yoki) vaqtinchalik bojxonaga oid deklaratsiyalashdan foydalanilgan hollarda.

243-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma

Agar ushbu Kodeksning 260-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagilarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma soliq solishdan ozod etiladi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarida (tashkilotlarida) bolalarga qarash bo'yicha xizmatlarni;

2) bemorlar va keksalarni parvarish qilish bo'yicha xizmatlarni;

3) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlarini, diniy ashyolarni, diniy tashkilotlar hamda birlashmalar tomonidan udumlarni va marosimlarni o'tkazishga doir xizmatlarni;

4) protez-ortopediya buyumlarini, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inventarni, shu jumladan ushbu buyumlar va inventarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilish, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni;

5) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mahsulotlarini ushbu muassasalar tomonidan realizatsiya qilish;

6) ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan hamda nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan, yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari hisoblangan yuridik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinadigan tovarlar va xizmatlarni;

7) pochta markalarini (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalarni, konvertlarni;

8) pensiyalar va nafaqalar to'lashga doir xizmatlarni;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini. Mazkur soliq solishdan ozod etish tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

10) o'qitish (ta'lim) sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan test sinovlari va imtihonlar o'tkazishni tashkil etish xizmatlarini, xususan:

boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus, texnik va kasb-hunar, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasidagi ta'lim xizmatlarini;

ta'lim muassasalari (tashkilotlari), shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha ta'lim berish bo'yicha xizmatlarni;

maktabgacha ta'lim va tarbiya dasturlari doirasida ta'lim va tarbiyalash faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda bolalarga qarash va ularni parvarishlash bo'yicha xizmatlarni, to'garaklarda, seksiyalarda (shu jumladan sport seksiyalarida) va studiyalarda voyaga yetmagan bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha xizmatlarni;

11) tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni (bundan kosmetologik xizmatlar mustasno). Ushbu bandning maqsadida tibbiy xizmatlar jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

tibbiy yordamga va sanitariya xizmati ko'rsatishga doir xizmatlar;

tashxis qo'yish, profilaktika va davolash bo'yicha xizmatlar;

stomatologik xizmatlar, shu jumladan tishlarni protezlash bo'yicha xizmatlar;

12) veterinariya xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida veterinariya xizmatlari jumlasiga, xususan, quyidagilar kiradi:

veterinariyaga oid xizmatlar ko'rsatish, hayvonlarga tashxis qo'yish va ularni davolash bo'yicha xizmatlar;

hayvonlar va inson uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan aholini himoya qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilish;

davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlarning veterinariya va veterinariya-sanitariya xavfsizligini ta'minlash;

13) dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni;

14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish xizmatlarini, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlarini. Ushbu bandning maqsadida:

a) sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari jumlasiga sanatoriylar, shifoxonalar, profilaktoriylar, kurortlar, pansionatlar, dam olish uylari va zonolari, bolalar dam olish oromgohlari hamda boshqa dam olish tashkilotlari tomonidan ularning asosiy faoliyati doirasida ko'rsatiladigan, ular yuridik shaxslar yoki yuridik shaxslarning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ko'rsatilishidan qat'i nazar, yo'llanmalar yoki joysiz davolanish uchun beriladigan hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlar kiradi;

b) jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari jumlasiga, xususan, sport inshootlarida, maktablarda, klublarda sport turlari bo'yicha o'quv guruhleri hamda jamoalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishga oid xizmatlar, umumijismoniy tayyorgarlik xizmatlari, sport musobaqalarini yoki bayramlarni, sport-tomosha tadbirlarini o'tkazish bo'yicha xizmatlar, shuningdek mazkur tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish uchun sport inshootlarini ijaraga berish kiradi;

15) yo'lovchilarni yagona tariflar bo'yicha tashish xizmatlarini ko'rsatish;

a) umumiy foydalanishdagi yo‘lovchi tashish shahar transportida va yo‘lovchi tashish avtomobil transportida (bundan taksi, shu jumladan yo‘nalishli taksi mustasno);

b) shahar atrofidagi yo‘nalishda temir yo‘l transportida;

16) uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta‘mirlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo‘jaliklari, yer resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta‘mirlash boshqarmalari hamda bo‘limlarining bevosita aholi tomonidan haq to‘lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga uy-joy mulkdorlari shirkatlari orqali haq to‘lash kiradi;

17) tovarlarni (xizmatlarni), agar tovarlarni berish (xizmatlar ko‘rsatish) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bepul amalga oshirilsa;

18) qimmatbaho metallardan ishlangan bank va o‘lchovli quymalarini, qimmatbaho metallardan ishlangan quyma (investisiya) tangalarni (numizmatika maqsadlari uchun foydalaniladigan tangalardan, shuningdek qimmatbaho metallardan ishlangan chet el tangalaridan tashqari), zargarlik buyumlarini;

19) bojsiz savdo bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni;

20) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va vakolatli organlar, tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, agar bunday xizmatlar ko‘rsatish shart ekanligi qonun hujjatlarida belgilangan bo‘lsa, faoliyatning muayyan sohasida ushbu organlar va tashkilotlarning zimmasiga yuklatilgan alohida vakolatlarni bajarish doirasida davlat boji yoki boshqa to‘lovlar undiriladi;

21) byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproqqa oid va geobotanika ishlarini;

22) byudjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari;

23) xalqaro moliyaviy institutlarning qarzlar va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlar hisobidan olinadigan tovarlarni (xizmatlarni), agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo‘lsa;

24) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatlarini;

25) telekommunikasiya tarmoqlarida operativ-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

26) mesenatlik ko‘magi tarzida beriladigan (ko‘rsatiladigan) tovarlarni (xizmatlarni);

27) ushbu Kodeksning 244-moddasida nazarda tutilgan moliyaviy xizmatlarni;

28) ushbu Kodeksning 245-moddasida nazarda tutilgan hayotni sug‘urta qilish xizmatlarini va boshqa sug‘urta xizmatlarini.

Ushbu moddada sanab o‘tilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishga doir aylanma soliq to‘lovchilarda bunday faoliyatni amalga oshirish uchun tegishli

lisenziyalar va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, agar uning amalga oshirilishini lisenziyalash lozim bo'lsa yoki ruxsat etuvchi hujjatlar talab etsa, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladi.

Soliq solinadigan aylanmalarni va ushbu moddaning qoidalariga muvofiq soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar ushbu Kodeksning 268-moddasiga muvofiq aylanmalarning alohida hisobini yuritishi shart.

244-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan moliyaviy xizmatlar

Quyidagi moliyaviy xizmatlar soliq solishdan ozod etiladi:

1) bank operatsiyalari, xususan:

yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini omonatlarga jalb etish;

yuridik va jismoniy shaxslarning jalb etilgan pul mablag'larini banklar nomidan hamda ularning hisobidan joylashtirish;

yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan bank kartalari bo'yicha hisob-kitoblar uchun xizmat qiluvchi bank hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish, shuningdek bank kartalariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning topshirig'iga ko'ra ularning bank hisobvaraqlari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;

yuridik va jismoniy shaxslarga kassa xizmatlarini bank kassalari yoki maxsus asbob-uskunalar (bankomat, avtomatik depozit mashinalar va hokazo) orqali ko'rsatish;

chet el valyutasining naqd puldagi va naqd pulsiz oldi-sotdisi (shu jumladan chet el valyutasining oldi-sotdi operatsiyalariga doir vositachilik xizmatlari ko'rsatish);

bank kafolatlarini bajarish (bank kafolatini berish va bekor qilish, bunday kafolat shartlarini tasdiqlash va o'zgartirish, bank kafolati bo'yicha to'lov, bunday kafolatga doir hujjatlarni rasmiylashtirish va tekshirish);

majburiyatlarning pul shaklida bajarilishini nazarda tutuvchi uchinchi shaxslar uchun kafillik berish;

akkreditivlarni ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

to'lov tizimlari, dasturlaridan va uskunalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni (to'lovlarni) amalga oshirish;

2) hisob-kitoblar ishtirokchilari o'rtasida axborot va texnologik hamkorlikni, shu jumladan hisob-kitoblar ishtirokchilariga bank kartalari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha axborotni to'plash, unga ishlov berish va uni taqdim etish yuzasidan xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar;

3) yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini, kooperativlarning pay fondlaridagi va investisiya pay jamg'armalaridagi paylarni, qimmatli qog'ozlarni hamda hosila moliyaviy vositalarni realizatsiya qilish, bundan soliq solinishi lozim bo'lgan hosila moliyaviy vositalarning asos aktivini realizatsiya qilish mustasno. Ushbu bo'lim maqsadlarida hosila moliyaviy vositani realizatsiya qilish deganda uning asos aktivini realizatsiya qilish, shuningdek kontrakt bo'yicha

mukofotlar summalarini, variyasiyaga oid marja summalarini to'lash, hosila moliyaviy vositalar shartlariga muvofiq asos aktiv to'lovi bo'lmagan hosila moliyaviy vosita taraflarining boshqa davriy yoki bir martalik to'lovlari tushuniladi;

4) realizasiya qilinishi ushbu qismning 3-bandiga binoan soliq solishdan ozod etiladigan hosila moliyaviy vositalar asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha huquqlardan (talablardan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish);

5) forfeyting va faktoring operatsiyalari;

6) zayomlarni pul shaklida berishga doir shartnomalardan va (yoki) kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzasidan kreditorning huquqlaridan (talablaridan) boshqa shaxs foydasiga voz kechish (ularni boshqalarga berish, olish) bo'yicha, shuningdek boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartnomasi asosida dastlabki shartnoma yuzasidan qarz oluvchining har bir yangi kreditor oldidagi majburiyatlarining bajarilishga doir operatsiyalar;

7) kreditlarni, zayomlarni pul shaklida va qimmatli qog'ozlar bilan berish, shu jumladan ular bo'yicha foizlar bilan birga berish, shuningdek REPO operatsiyalari, shu jumladan REPO operatsiyalari bo'yicha qimmatli qog'ozlar berilganligi uchun to'lanishi lozim bo'lgan pul summolari;

8) mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishga doir xizmatlarning ushbu xizmatlar bo'yicha foizli daromadlar olishga taalluqli qismi bo'yicha;

9) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda ularning reyestrini yuritish, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

10) tranzaksiyalarni bir vaqtning o'zida to'lov ishtirokchilari o'rtasida vositachilik haqlarini taqsimlagan holda amalga oshirish bilan bog'liq to'lov tizimlarining moliya xizmatlari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va qimmatli qog'ozlarga taalluqli qism bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishilgan holda, ushbu moddaning qoidalarini qo'llash tartibi yuzasidan tushuntirishlar, shu jumladan ayrim aylanmalarni batafsil aniqlashtirish bo'yicha tushuntirishlar berishga haqli.

245-modda. Soliq solishdan ozod qilinadigan sug'urta xizmatlari

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantiye-malar;

sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizasiya qilishdan olinadigan mablag'lar;

qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda ushbu modda qoidalarining qo'llanilish tartibi yuzasidan, ayrim aylanmalarni batafsillashtirgan xolda, tushuntirishlar berishga haqli.

246-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Quyidagilarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish soliq solishdan ozod etiladi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirilayotgan tovarlar;

3) davlat, hukumat, xalqaro tashkilotlar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish uchun olib kiriladigan tovarlar;

4) chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

5) qonun hujjatlariga muvofiq alohida qimmatga ega madaniy meros ob'yektlari jamoasiga kiritilgan, davlat madaniyat muassasalari tomonidan olingan yoki ular tomonidan sovg'aga olingan madaniy qimmatliklar. Ushbu soliq solishdan ozod etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli tasdiqnomasi mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi;

6) o'xshashi O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar;

7) xalqaro kitob almashinuvi bo'yicha davlat kutubxonalari va muzeylari tomonidan olinadigan bosma nashrlarning barcha turlari, shuningdek xalqaro notijorat almashinuvini amalga oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan davlat tashkilotlari tomonidan olib kiriladigan kinematografiya asarlari;

8) milliy valyuta va chet el valyutasi, qonuniy to'lov vositalari bo'lgan banknotlar (bundan kolleksiyalash uchun mo'ljallanganlari mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlar;

9) xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kiriladigan tovarlar, agar qarzga doir bitimda bu tovarlar olib kirilayotganda soliqlardan ozod etilishi nazarda tutilgan bo'lsa;

10) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikasiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

11) dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalarini, veterinariya dori vositalarini, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur norma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3.2.QQS to'lovchilar tarkibi. QQSning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza. QQS bo'yicha belgilangan imtiyozlar.

Soliq bazasi

247-modda. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalar

Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq o'zi ishlab chiqargan yoki olgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab aniqlanadi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum soliq to'lovchining ushbu tovarlarga (xizmatlarga) pulda va (yoki) natura shakllaridagi to'lov, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan haq to'lash sifatida olingan barcha daromadlaridan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Soliq bazasini aniqlash chog'ida soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) ushbu Kodeksning 242-moddasida belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan

sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o'rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chet el valyutasida belgilangan summaga teng bo'lgan summadagi milliy valyutada haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa hamda bunda realizasiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to'langan sana ularni realizasiya qilish bo'yicha ushbu Kodeksning 242-moddasiga muvofiq aniqlanadigan aylanma amalga oshirilgan sanaga to'g'ri kelmasa, mazkur sanalarda chet el valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq ushbu Kodeksning XII bo'limiga muvofiq boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Ushbu Kodeksning 239-moddasiga muvofiq o'z ehtiyojlari uchun soliq solish ob'yekti deb e'tirof etiladigan tovarlar berilgan (xizmatlar ko'rsatilgan) taqdirda, soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan ushbu bobga muvofiq aniqlanadi.

248-modda. Soliq bazasini aniqlash tartibi

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq bazasi ushbu Kodeksning 176-moddasi talablarini hisobga olgan holda, aksiz solig'ini (aksiz to'lanadigan tovarlar, xizmatlar uchun) hisobga olib, unga soliqni kiritmagan holda, bitim taraflari tomonidan qo'llanilgan narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda realizasiya qilinadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati sifatida aniqlanadi.

Xaridorlarga realizasiya qilish bo'yicha aylanmani amalga oshirish sanasida chegirmalar (boshqa tijorat bonuslari) bergan soliq to'lovchi soliq bazasini bunday chegirmalar (tijorat bonuslari) chegirib tashlangan holdagi narxdan (tarifdan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Soliq bazasi quyidagi hollarda tovarlarning (xizmatlarning) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq aniqlanadigan bozor qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlab realizasiya qilishda;

2) agar ushbu Kodeksning 239-moddasi birinchi qismi 2-bandida yoki ikkinchi qismining 2-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni (xizmatlarni) bepul berishda (ko'rsatishda);

3) yuridik shaxsning mol-mulkidan ushbu Kodeksning 239-moddasi to'rtinchi qismi 6-bandiga muvofiq shaxsiy maqsadlarda foydalanishda.

Agar bitimning narxi tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan past yoki yuqori bo'lsa, soliq organlari soliq bazasiga tuzatish kiritishga haqli. Soliq to'lovchi bunday qaror yuzasidan bitimning narxi bozor narxlariga muvofiqligini va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilmaganligining asoslarini taqdim etish yo'li bilan nizolashishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan (import qilingan) tovarlarni realizasiya qilish chog'ida soliq bazasi ushbu tovarlarni olib kirish (import qilish) chog'ida byudjetga haqiqatda to'langan soliq hisoblab chiqarilgan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar realizasiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, unga soliqni kiritmagan holda, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa ularni qayta ishlashga doir xizmatlarning qiymati asosida, ushbu Kodeksga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i hisobga olingan holda aniqlanadi.

Obyektlarni qurishda, shu jumladan ob'yektlarni foydalanish uchun tayyor qilib qurishda, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni, shuningdek uzoq texnologik (bir hisobot davridan ortiq) davriylikdagi boshqa uzoq muddatli shartnomalarni bajarishda soliq bazasi har bir kalendar oyning oxirida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmining ushbu Kodeksning 303-moddasiga muvofiq soliq bazasi kiritilmagan holda aniqlanadigan qiymati asosida aniqlanadi. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, soliq bazasi bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning qiymatidan kelib chiqqan va buyurtmachi materiallarining qiymatini soliq bazasiga kiritmagan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarga mehnat haqi hisobiga yoki dividendlar to'lovlari hisobiga tovarlar berilganda (xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek ushbu Kodeksning 239-moddasi to'rtinchi qismi 3-bandida belgilangan hollarda soliq bazasi tovarlarning (xizmatlarning) ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadigan qiymatidan kelib chiqqan va soliqni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Erkin bojxona hududining bojxona rejimiga soliq to'lamasdan joylashtirilgan tovar yo'qotilganda soliq bazasi ushbu Kodeksning 254-moddasi birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olishga bo'lgan huquqni beruvchi vaucherni realizasiya qilish chog'ida vaucherning soliq hisobga olingan holdagi qiymati soliq bazasi bo'ladi.

Olib sotish uchun jismoniy shaxslardan olingan avtomobillar va uy-joy ko'chmas mulk ob'yektlari realizasiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizasiya qilish narxi va sotib olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Foyda solig'ini hisoblab chiqarishda ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlardan foydalanilganda (o'z kuchi bilan xizmatlar ko'rsatilganda), soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bunday soliq to'lovchi tomonidan o'tgan 90 kun davomida realizasiya qilingan aynan shunday (ular mavjud bo'lmaganda shunga o'xshash) tovarlarning (xizmatlarning) o'rtacha o'lgan narxidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan qiymati sifatida, ko'rsatilgan davrda bunday realizasiya mavjud bo'lmaganda esa aksizlar hisobga olingan (aksizosti tovarlar uchun) va soliq qo'shilmagan bozor narxlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ushbu bo'limga muvofiq realizasiya qilishga doir aylanmalari soliq solinmaydigan aylanmalar bo'lgan chiptalar, abonementlar, yo'llanmalar (joysiz

davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlarni olish huquqini beruvchi boshqa hujjatlar realizasiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq summasini o'z ichiga oladigan, realizasiya qilish narxi va ularni sotib olish narxi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasini aniqlashning boshqa shartlar va holatlarni hisobga oladigan o'ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 249–256-moddalarida belgilanadi.

249-modda. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Mol-mulk moliyaviy ijaraga (lizingga) berilgan taqdirda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) soliq bazasi barcha davriy ijara (lizing) to'lovlari summasi (shu jumladan, qaytarib sotib olish summasi, agar shartnomada shunday summa nazarda tutilgan bo'lsa) sifatida, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz hisobidagi daromadi chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining shartlari bajarilmaganligi sababli moliyaviy ijara (lizing) ob'yekti qaytarilgan taqdirda, soliq bazasi ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan ob'yekt qaytarilgan sanada bunday ob'yekt uchun o'zi to'lamagan ijara (lizing) to'lovlarning summasi miqdorida foiz hisobidagi xarajat chegirib tashlangan va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Ushbu Kodeksning 246-moddasiga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan, olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda soliq bazasi mazkur asbob-uskunalarini sotib olish narxi va realizasiya qilish narxi o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqib aniqlanadi.

250-modda. Vositachilik (topshiriq), transport ekspeditsiyasi shartnomalari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig'iga ko'ra komitentga (ishonch bildiruvchiga) tegishli bo'lgan tovarlar realizasiya qilingan taqdirda, vositachilik (topshiriq) shartnomasining shartlariga muvofiq bo'lgan shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga xizmatlar ko'rsatganda soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

1) vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi – uning soliqni o'z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida;

2) komitentning (ishonch bildiruvchining) soliq bazasi – komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig'iga ko'ra vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizasiya qilingan tovarlarning qiymati, shuningdek soliqni kiritmagan holda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim bo'yicha komitent (ishonch bildiruvchi) bunday uchinchi shaxsga ko'rsatgan xizmatlarning qiymati miqdorida.

Soliq solishdan ozod etish soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik (topshiriq),

transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida xizmatlar ko'rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vositachilik (topshiriq) shartnomasi shartlariga muvofiq bo'lgan shartlar asosida komitent (ishonch bildiruvchi) uchun uning topshirig'iga ko'ra olingan tovarlar vositachi (ishonchli vakil) tomonidan komitentga (ishonch bildiruvchiga) berilgan taqdirda, uchinchi shaxs tomonidan vositachi (ishonchli vakil) bilan tuzilgan bitim bo'yicha bunday uchinchi shaxs komitent (ishonch bildiruvchi) uchun xizmatlar ko'rsatganda vositachining (ishonchli vakilning) soliq bazasi uning soliqni o'z ichiga oladigan vositachilik haqi miqdorida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasida belgilangan, transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha mijoz bo'lgan taraf uchun tashuvchi va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilar tomonidan xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq bazasi transport ekspeditsiyasi shartnomasida nazarda tutilgan, uning soliqni o'z ichiga oladigan haqi miqdorida aniqlanadi.

251-modda. Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizasiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Korxona mol-mulk majmuasi sifatida realizasiya qilinganda, soliq bazasi ushbu moddada belgilangan tartibda, uni realizasiya qilishning soliqni o'z ichiga oladigan narxi miqdorida, ushbu korxona mol-mulkining har bir soliq ob'yekti bo'yicha alohida aniqlanadi.

Agar korxonani realizasiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan past bo'lsa, korxonani realizasiya qilish narxining mazkur mol-mulkning balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi.

Agar korxonani realizasiya qilish narxi uning tarkibiga kiradigan jami mol-mulkning balans qiymatidan yuqori bo'lsa, korxonani realizasiya qilishning debitorlik qarzi summasiga va qimmatli qog'ozlar qiymatiga kamaytirilgan narxining realizasiya qilingan korxona tarkibiga kiradigan mol-mulkning debitorlik qarzi summasiga va qimmatli qog'ozlarning qiymatiga kamaytirilgan balans qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan tuzatish koeffitsiyenti qo'llaniladi. Ushbu qismga muvofiq tuzatish koeffitsiyentini hisob-kitob qilishda qimmatli qog'ozlarning qiymati, agar u faqat bozor qiymati bo'yicha qayta baholangan bo'lsa, chiqarib tashlanadi.

Mol-mulkning har bir turini realizasiya qilish narxi uning balans qiymatining ushbu moddaning ikkinchi yoki uchinchi qismlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadigan tuzatish koeffitsiyentiga ko'paytmasi sifatida aniqlanadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan holatda, debitorlik qarzining summasiga doir tuzatish koeffitsiyenti qo'llanilmaydi. Agar bunday holda qimmatli qog'ozlarning qiymati qayta baholangan bo'lsa, mazkur koeffitsiyent ularning qiymatiga nisbatan ham qo'llanilmaydi.

Korxona sotuvchisi tomonidan korxona sotilgan narxni ko'rsatgan holda jamlama hisobvara-q-faktura tuziladi.

Jamlama hisobvara-q-fakturada asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan va ishlab chiqarish uchun mo'ljallanmagan mol-mulkning boshqa turlari, debitorlik qarzining summalari, qimmatli qog'ozlarning

qiymati hamda balans aktivlarining boshqa pozitsiyalari mustaqil pozitsiyalarga ajratiladi. Jamlama hisobvaraƒ-fakturaga inventarizasiya dalolatnomasi ilova qilinadi.

Jamlama hisobvaraƒ-fakturada har bir mol-mulk turining narxi ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda balans qiymatining tuzatish koeffitsiyentiga ko'paytmasiga teng deb qabul qilinadi.

Realizasiya qilinishiga soliq solinadigan mol-mulkning har bir turi bo'yicha tegishli ravishda soliq stavkasi va tegishli soliq summasi ko'rsatiladi.

252-modda. Transportda tashishni amalga oshirishda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Yo'lovchilarni, bagajni, yuklarni yoki pochtni temir yo'l, avtomobil, havo yoki daryo transportida tashishlar amalga oshirilganda soliq bazasi soliqni qo'shmaganda holdagi tashish qiymati sifatida aniqlanadi.

Imtiyozli tariflar bo'yicha yo'l hujjatlari realizasiya qilinganda soliq bazasi ushbu imtiyozli tariflardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Safar boshlanguniga qadar xaridorlarga ishlatilmagan yo'l hujjatlari uchun pullar qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo'lgan summaga soliqning barcha summasi kiritiladi.

Safar tugatilganligi sababli yo'l davomida yo'lovchilarga yo'l hujjatlari qaytarilgan taqdirda, qaytarilishi lozim bo'lgan summaga yo'lovchilar yurishi kerak bo'lgan qolgan masofaga tegishli miqdordagi soliq summasi kiritiladi. Bunday holda soliq bazasini aniqlashda yo'lovchilarga haqiqatda qaytarilgan summalar hisobga olinmaydi.

253-modda. Muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) realizasiya qilinganda soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Muddatli bitim deganda shartnomada belgilangan muddat tugagach bevosita ushbu shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha tovarlar yetkazib berilishini (xizmatlar ko'rsatilishini) taqozo etadigan bitim tushuniladi.

Muddatli bitimlar bo'yicha tovarlar (xizmatlar) realizasiya qilinganda soliq bazasi ushbu tovarlarning (xizmatlarning) bevosita shartnomada ko'rsatilgan, lekin realizasiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo'lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lmagan hosila moliyaviy vositalar realizasiya qilinganda soliq bazasi asos aktivning bevosita shartnomada ko'rsatilgan, lekin realizasiya qilingan sanadagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymatdan past bo'lmagan qiymati sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi hosila moliyaviy vositalarning asos aktivni realizasiya qilinganda, soliq bazasi, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, asos aktivni realizasiya qilish amalga oshirilishi kerak bo'lgan hamda ushbu hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida aniqlanadi.

Uyushgan bozorda muomalada bo'lgan va asos aktiv yetkazib berilishini nazarda tutuvchi opsiya kontraktlarning asos aktivni realizasiya qilingan taqdirda,

soliq bazasi ushbu asos aktivni realizasiya qilish amalga oshirilishi kerak bo'lgan va hosila moliyaviy vositani birja tasdiqlagan tasniflash shartlariga muvofiq belgilangan qiymat sifatida, lekin realizasiya qilish sanasidagi bozor narxlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilganidan past bo'lmagan qiymatda aniqlanadi.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida opsion kontrakt (opsion) deganda bir taraf (opsion xaridori) boshqa tarafdin (opsionni sotuvchidan) oldindan belgilangan narx bo'yicha asos aktivning muayyan sonini sotib olish («koll» opsioni) yoki sotish («put» opsioni) huquqini oladigan bitim tushuniladi.

Ushbu moddaning ikkinchi – beshinchi qismlarini qo'llash maqsadida tovarning, xizmatning yoki asos aktivning narxi aksizlar hisobga olingan (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olinmagan holda aniqlanadi.

Tovarlarning, xizmatlarning yoki asos aktivning bozor qiymati –ushbu Kodeksning VI bo'limiga muvofiq, ularni realizasiya qilish sanasi esa ushbu Kodeksning 242-moddasiga muvofiq aniqlanadi.

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida uyushgan bozorda muomalada bo'lgan hosila moliyaviy vositaning tasniflanishi deganda hosila moliyaviy vositaning shartlarini belgilovchi birja hujjati tushuniladi.

254-modda. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasini aniqlash tartibi

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq bazasi quyidagilarni qo'shgan holda hisoblab chiqarilgan ushbu tovarlarning qiymati sifatida aniqlanadi:

1) tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymatini;

2) tovarlar O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i va bojxona bojini.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari ushbu hududga olib kirilayotganda soliq bazasi bunday qayta ishlashning qiymati sifatida aniqlanadi.

Soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan bir nomdagi, turdagi va markadagi tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bir turkumi tarkibida bir vaqtning o'zida ham aksiz to'lanadigan, ham aksiz to'lanmaydigan tovarlar mavjud bo'lsa, soliq bazasi mazkur tovarlarning har bir guruhiga nisbatan alohida aniqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar turkumi tarkibida bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidan ilgari olib chiqilgan tovarlarning qayta ishlash mahsulotlari mavjud bo'lsa, soliq bazasi xuddi shunday tartibda aniqlanadi.

255-moddasi. Tovarlar (xizmatlar) chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilinganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining hududi realizatsiya qilish joyi bo'lgan tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchilar sifatida soliq organlarida hisobda turmagan chet ellik shaxslar tomonidan realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ushbu tovarlarni (xizmatlarni) aksizlar (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holda realizatsiya qilishdan olingan daromadning summasi sifatida aniqlanadi.

Soliq agentlari deb ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarning (xizmatlarning) xaridorlari (ularni oluvchilar) bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar (ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari e'tirof etiladi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan chet el yuridik shaxslari bilan hisob-kitoblarda O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki chet el yuridik shaxslarining doimiy muassasalari topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki boshqa vositachilik shartnomalari asosida ishtirok etsa, bunday shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi. Mazkur hollarda soliq bazasi soliq to'lovchi tomonidan bunday tovarlarning aksizlar (aksiz to'lanadigan tovarlar uchun) va soliq hisobga olingan holdagi qiymati sifatida aniqlanadi.

Ushbu Kodeksning 282-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan chet el yuridik shaxslari realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi deb e'tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatgan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslariga topshiriq, vositachilik shartnomalari yoki shunga o'xshash shartnomalar asosida elektron shakldagi xizmatlar ko'rsatgan taqdirda, bunday xizmatlarning mazkur xaridorlari soliq agentlari deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishga doir har bir operatsiya amalga oshirilganda soliq bazasi ushbu bo'limning qoidalari hisobga olingan holda alohida aniqlanadi.

Ushbu moddaga muvofiq soliq agentlari deb e'tirof etiladigan shaxslar tegishli soliq summasini hisoblab chiqarishi, soliq to'lovchidan, u soliq to'lovchi ekanligidan yoki soliq to'lovchi emasligidan qat'i nazar, uni ushlab qolishi va byudjetga o'tkazishi shart.

Agar kontraktlarning shartlariga muvofiq xizmatlar chet ellik shaxslar tomonidan soliqni hisobga olmasdan taqdim etilsa, ushbu xizmatlar bo'yicha soliq bazasi soliq agentlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatidan kelib chiqqan holda, soliqni hisobga olmasdan aniqlanadi. Bunday holda soliq agenti tegishli soliq summasini mustaqil tarzda hisoblab chiqarishi va byudjetga o'tkazishi shart.

Ushbu moddaning qoidalarini mazkur Kodeksning 243–245-moddalarida ko‘rsatilgan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo‘llanilmaydi.

Ushbu moddaga muvofiq soliqning to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq to‘langan soliq summasini hisobga kiritish huquqini beradi.

256-modda. Davlat mol-mulki bilan operatsiyalar amalga oshirilganda soliq agentlari tomonidan soliq bazasini aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mol-mulki ijaraga berilganda, davlat mulkini ijaraga berish bo‘yicha vakolatli organ soliq agenti deb e‘tirof etiladi. Bunday hollarda soliq bazasi bunday mol-mulkning soliq hisobga olingan holdagi ijara shartnomasida belgilangan ijara to‘lovi miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat mol-mulki realizatsiya qilinganda (berilganda) soliq bazasi soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkning xaridorlari (uni oluvchilar) soliq agenti deb e‘tirof etiladi, bundan yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lmagan jismoniy shaxslar mustasno. Bunday hollarda soliq bazasi sotib olinayotgan (olinayotgan) davlat mol-mulkining soliq hisobga olinmasdan shartnomada belgilangan qiymati miqdorida soliq agenti tomonidan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida musodara qilingan mol-mulk, sudning qaroriga binoan realizatsiya qilinadigan mol-mulk, egasiz qimmatliklar, xazinalar va sotib olingan qimmatliklar, shuningdek meros olish huquqi asosida davlatga o‘tkazilgan qimmatliklar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu mol-mulkni (qimmatliklarni) aksiz solig‘ini (aksiz to‘lanadigan tovarlar uchun) va soliqni hisobga olgan holda realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi sifatida soliq agenti tomonidan aniqlanadi. Bunday hollarda ushbu mol-mulkni realizatsiya qilishni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan organ, tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor soliq agenti deb e‘tirof etiladi.

Soliq bazasi ushbu moddada nazarda tutilgan har bir operatsiyani amalga oshirish chog‘ida soliq agentlari tomonidan alohida aniqlanadi.

Ushbu moddaga muvofiq soliq agenti deb e‘tirof etiladigan shaxslar soliq to‘lovchidan tegishli soliq summasini, u soliq to‘lovchi ekanligidan yoki soliq to‘lovchi emasligidan qat’i nazar, hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi va byudjetga to‘lashi shart.

Ushbu moddaga muvofiq soliq to‘langanligini tasdiqlovchi to‘lov hujjati xaridorga to‘langan soliq summasini ushbu Kodeksning 37-bobiga muvofiq hisobga olish huquqini beradi.

257-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

Soliq to‘lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda;
- 3) bitim shartlari o‘zgarganda, shu jumladan jo‘natilgan tovarlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning narxi va (yoki) soni (hajmi) o‘zgarganda;

4) tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi tomonidan chegirmalar berilganda. Ushbu bandda nazarda tutilgan tuzatish kiritish, agar siylovlar berish shartlari shartnoma shartlarida yoki soliq to'lovchining narx (tarif) siyosatida nazarda tutilgan bo'lsa, ilgari amalga oshirilgan tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha soliq bazasini kamaytiradi. Bunday shartlar tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko'rsatish) shartnomasining muayyan shartlarini xaridor tomonidan bajarishni, shu jumladan tovarlarning (xizmatlarning) muayyan hajmini olishni va muddatidan oldin haq to'lashni nazarda tutishi mumkin.

Soliq bazasiga uni kamaytirish yoki ko'paytirish tarafga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchida soliq bazasiga tuzatish kiritish tovarlarga (xizmatlarga) haq to'lash bo'yicha majburiyat ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq umid qilib bo'lmaydigan qarzdorlik deb e'tirof etilganda va uni hisobdan chiqarish lozim bo'lgan hollarda ham amalga oshiriladi. Bunday holda tuzatish kiritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq bazasiga tuzatish kiritish (salbiy yoki ijobiy) qo'shimcha hisobvaraqa-faktura yoki ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida va ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollar ro'y bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Soliq bazasi xatolarni tuzatish natijasida o'zgartirilgan taqdirda, shuningdek ilgari yozib berilgan hisobvaraqa-fakturaga o'zgartish va (yoki) qo'shimchalar kiritish zarur bo'lganda ushbu moddaning qoidalarini qo'llanilmaydi. Bunday holda ilgari yozib berilgan hisobvaraqa-faktura bekor qilinadi va uning o'rniga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzatilgan hisobvaraqa-faktura rasmiylashtiriladi.

Tovarlar (xizmatlar) yetkazib beruvchi tomonidan soliq bazasiga tuzatish kiritish amalga oshirilayotganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo'shimcha hisobvaraqa-faktura asosida ilgari o'zi hisobga olish uchun qabul qilgan soliq summasiga tegishli tarzda tuzatish kiritadi (ko'paytiradi yoki kamaytiradi).

3.3.QQS stavkalari. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish. QQSni to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari.

258-modda. Soliq stavkalari

Agar ushbu Kodeksning 36-bobida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, soliq stavkasi 15 foiz miqdorida belgilanadi.

Ushbu Kodeksning 36-bobida nazarda tutilgan hollarda soliq stavkasi 0 foiz miqdorida belgilanadi.

259-modda. Soliq davri

Ushbu Kodeksning 39-bobida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, bir oy soliq davridir.

36-bob. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanma

260-modda. Eksport operatsiyalariga va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga soliq solish

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solish quyidagilar realizasiya qilinganda amalga oshiriladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar;

2) ilgari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan tovarlar va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududidan bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash natijasida olingan (hosil bo'lgan) tovarlar (qayta ishlash mahsulotlari, chiqindilar va (yoki) qoldiqlar);

3) O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilgan g'amlab qo'yilgan narsalar. Ushbu modda maqsadida havo kemalaridan risoladagidek foydalanilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari g'amlab qo'yilgan narsalar deb e'tirof etiladi;

4) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni bevosita O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoxud transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar;

5) xalqaro tashishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlar.

Nol darajali stavkani ayrim hollarda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari ushbu Kodeksning 264-moddasida belgilangan.

Nol darajali stavkani qo'llash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar soliq hisoboti bilan birga taqdim etiladi.

261-modda. Eksport operasiyalarini tasdiqlash

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:

1) kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

2) tovarlarni chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish uchun belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklarasiyasi;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizasiya qilinganda eksportni tasdiqlash uchun komitent (ishonch bildiruvchi) tomonidan qo'shimcha tarzda soliq to'lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi) taqdim etiladi.

Tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun amalga oshirilayotgan faoliyatning turiga qarab boshqa hujjatlar taqdim etilishi mumkin. Soliq to'lovchining amalga oshiriladigan faoliyat turiga qarab nol soliq stavkasini qo'llash huquqini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati hamda ularni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

262-modda. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga soliq solish

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish sharti bilan nol stavka bo'yicha soliq solinadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlarga qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq erkin muomalaga chiqarish rejimiga joylashtirgan holda ushbu Kodeksning 258-moddasi birinchi qismida belgilangan soliq stavkasi bo'yicha soliq solinishi lozim.

263-modda. Xalqaro tashishlar bilan bog'liq xizmatlarga soliq solish

Nol stavka bo'yicha soliq solish quyidagilarni realizasiya qilish chog'ida amalga oshiriladi:

1) tovarlarni xalqaro tashish bo'yicha xizmatlarni. Tovarlarni xalqaro tashish deganda tovarlarning jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan taqdirda tovarlarni havo kemalari, temir yo'l transporti va (yoki) avtotransport vositalari orqali tashish tushuniladi;

2) chet eldan keltirilgan tovarlarni tashish chog'ida bojxona tranziti bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga yetib kelish joyidagi bojxona organidan to O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketish joyidagi bojxona organigacha tashish yoki transportda tashish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmatlarni;

3) tashishlar yagona xalqaro tashish hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan taqdirda, basharti yo'lovchilarni, pochtani va bagajni jo'natish punkti yoki belgilangan punkti O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, yo'lovchilarni, pochtani va bagajni tashish bo'yicha xizmatlarni;

4) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport qilinadigan tovarlarni tashish yoki transportda tashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududidagi qayta ishlash mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan tashuvchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni. Ushbu bandning qoidalari, basharti tashish hujjatlarida bojxona organlarining belgilari qo'yilgan bo'lsa, qo'llaniladi;

5) havo kemalariga bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo hududida ko'rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan aeronavigasiya xizmatini.

264-modda. Ayrim hollarda nol darajali stavkaning qo'llanilishi

Tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish aylanmasi to'langan soliqni qoplash (qaytarish) yo'li bilan nol darajali stavkasi bo'yicha tortiladi, agar ushbu tovarlar (xizmatlar) quyidagicha olinsa:

1) chet el diplomatik vakolatxonalarining va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalar

diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarining (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining) shaxsiy foydalanishi uchun;

2) Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida tovarlarni (xizmatlarni) sotib olayotgan soliq to'lovchilar tomonidan, agar bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Agar tegishli chet davlatning qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga, ushbu vakolatxonalarning diplomatik hamda ma'muriy-texnik xodimlariga (shu jumladan ular bilan birga yashaydigan oila a'zolariga) nisbatan xuddi shunday tartib belgilangan bo'lsa yoxud bunday norma O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, nol darajali stavkani qo'llash ushbu moddaning birinchi qismi 1-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Suv ta'minoti, kanalizasiya, sanitariya jihatdan tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni realizasiya qilishga doir aylanmaga, shu jumladan bunday xizmatlarni uy-joy mulkdorlari shirkatlari tomonidan aholi nomidan, shuningdek idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining bo'linmalari tomonidan olishga, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadi.

Nol darajali stavka qimmatbaho metallarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan qimmatbaho metallarni olish bo'yicha vakolatli organga realizasiya qilinadigan bunday metallarga nisbatan qo'llaniladi.

265-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Ushbu Kodeksning 247–257-moddalariga muvofiq soliq bazasini aniqlashda soliq summasi soliq bazasining soliq stavkasiga muvofiq bo'lgan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq summasi tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishga doir operatsiyalarning soliq bazasidan, tegishli soliq davriga taalluqli bo'lgan aylanmalarni amalga oshirish sanasidan kelib chiqqan holda, tegishli soliq davrida soliq bazasini ko'paytiradigan yoki kamaytiradigan barcha o'zgartishlar hisobga olingan holda har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra hisoblab chiqariladi.

Tovarlarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliqning umumiy summasi ushbu Kodeksning 254-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq bazasining soliq stavkasiga mos keladigan foizli ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Agar ushbu Kodeksning 254-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan talablarga muvofiq soliq bazasi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarning har bir guruhi bo'yicha alohida aniqlansa, soliq summasi mazkur soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqariladi. Bunda soliqning umumiy summasi bunday soliq bazalarining har biri bo'yicha alohida hisoblab chiqarilgan soliq summalarini qo'shish orqali hisoblab chiqariladi.

266-modda. To'langan soliq summalarini hisobga olish

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda, agar ushbu Kodeksning 267-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq

to'lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini hisobga olish orqali ushbu Kodeksning 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqning umumiy summasini kamaytirishga, quyidagi shartlarni bir vaqtda bajargan taqdirda, haqli bo'ladi:

1) soliq to'lovchining tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlardan (xizmatlardan), foydalanilganda realizasiya qilish bo'yicha aylanmasiga soliq solinishi, shu jumladan nol stavka bo'yicha soliq solinishi lozim bo'lganda;

2) olingan tovarlarga (xizmatlarga) soliq to'lovchi tomonidan hisobvaraqa-faktura yoki yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan soliq summasi alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat olinganda hamda tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilganda;

3) tovarlar olib kirilgan (import qilingan) taqdirda soliq byudjetga to'langanda;

4) ushbu Kodeksning 255 va 256-moddalarida nazarda tutilgan hollarda soliq byudjetga to'langanda;

5) nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlarni eksportga realizasiya qilish aylanmasi maqsadida foydalaniladigan, haqiqatda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) soliq tovarlar eksportidan soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining ulushida hisobga olinadi.

Nol darajali stavka bo'yicha tortiladigan tovarlar eksporti vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirilgan taqdirda, soliq vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining hisobvarag'iga kelib tushgan valyuta tushumining summasi ulushida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududi realizasiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan xizmatlarni ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari ushbu bobda belgilangan tartibda haqiqatda olingan tovarlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Bunda ushbu bobni qo'llash maqsadida bunday xizmatlarni realizasiya qilish bo'yicha aylanmadan olinadigan soliq solinadigan aylanmaga tenglashtiriladi.

Soliq to'lovchi tomonidan asosiy vositalar (shu jumladan o'rnatiladigan asbob-uskunalar), nomoddiy aktivlar va ko'chmas mulk ob'yektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob'yektlar sotib olinganda, shuningdek kelgusida o'z asosiy vositalari sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan aktivlarni yaratish uchun tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda sotuvchi tomonidan soliq to'lovchiga taqdim etilgan soliq summasini hisobga olish to'liq hajmda amalga oshiriladi. Soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasi hududiga bunday tovarlarni olib kirish chog'ida ushbu soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasini hisobga olish xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Mol-mulk ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan taqdirda, oluvchi mol-mulkni ustav fondiga (ustav kapitaliga) berish chog'ida ishtirokchi tomonidan to'langan soliq summasini hisobga olish huquqiga ega. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida olingan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va ko'chmas mol-mulk ob'yektlari, shu jumladan qurilishi tugallanmagan ob'yektlar bo'yicha ishtirokchi ularni berish chog'ida to'langan soliq ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan tartibda berilgan aktivlarni oluvchi soliq to'lovchida hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi bo'lmagan shaxs soliq to'lovchi sifatida ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yilganda, shuningdek soliq to'lashdan ozod etish bekor qilingan taqdirda soliq to'lovchi maxsus ro'yxatga olish hisobiga qo'yish (ozod qilishni bekor qilish) sanasida o'z balansida mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlarining va uzoq muddatli aktivlarning balans qiymatida hisobga olingan soliq summasini ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan shartlarga rioya etilgan taqdirda, hisobga olish huquqiga ega.

Ushbu moddaning beshinchi qismiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi:

tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari bo'yicha – shaxs ro'yxatdan o'tkazish hisobiga qo'yilgan sanadan oldingi so'nggi o'n ikki oy ichida olingan, soliq to'lovchida uni ro'yxatdan o'tkazish hisobiga qo'yish (ozod etishni bekor qilish) sanasida mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldig'iga to'g'ri keladigan tovarlarning (xizmatlarning) haqiqiy qiymati bo'yicha;

uzoq muddatli aktivlar bo'yicha – mazkur ob'yektlarning shaxs soliq bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish hisobiga qo'yilgan (ozod etish bekor qilingan) sanadagi qayta baholanishi hisobga olinmagan, soliqning tegishli summasini o'z ichiga olgan balans (qoldiq) qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Agar soliq to'lovchi sifatida hisobda turmaydigan chet el yuridik shaxsi komitent (ishonch bildiruvchi) bo'lsa, tovar tegishli vositachilik (topshiriq) shartnomasiga muvofiq shartlar asosida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizasiya qilingan taqdirda, ushbu tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda to'langan soliq summasi tegishli soliq davrida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan realizasiya qilingan tovarlar ulushiga to'g'ri keladigan ulushda vositachi (ishonchli vakil) tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo'lgan komitentning (ishonch bildiruvchining) topshirig'iga ko'ra olingan tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga vositachi (ishonchli vakil) tomonidan olib kirilgan taqdirda, import qilingan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi chog'ida vositachi (ishonchli vakil) tomonidan to'langan soliq komitentda (ishonch bildiruvchida) hisobga olinishi lozim.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish chog'ida ekspeditor tomonidan tashuvchidan va (yoki) boshqa yetkazib beruvchilardan olingan xizmatlarga doir soliq summasi bunday shartnoma bo'yicha ekspeditorning mijozi bo'lgan tarafda hisobga olinadi.

Sotuvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasining soliq to'lovchisi bo'lmagan chet ellik shaxsga ushbu chet ellik shaxs tomonidan O'zbekiston

Respublikasida tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida taqdim etilgan yoki ushbu chet ellik shaxslar tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish maqsadlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishi chog'ida ular tomonidan to'langan soliq summolari hisobga olinishi lozim. Soliqning mazkur summolari ushbu Kodeksning 255-moddasiga muvofiq soliq agenti tomonidan ushbu chet ellik shaxsning daromadlaridan ushlab qolingani soliq byudjetga to'langanidan keyin, ushbu shaxs olgan (olib kirgan) tovarlardan (xizmatlardan) faqat soliq agenti qiymatidan soliqni ushlab qolgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish maqsadida foydalanilgan qismi bo'yichagina hisobga olinishi yoki ushbu chet ellik shaxsga qaytarilishi lozim. Bunda soliqning mazkur summolari, bosharti chet ellik shaxs ushbu Kodeksning 237-moddasiga muvofiq soliq to'lovchi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish hisobiga qo'yilgan bo'lsa, hisobga olinishi yoki ushbu shaxsga qaytarilishi lozim.

Agar soliq to'lovchi realizasiya qilish bo'yicha aylanmasiga soliq solinishi lozim bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni), shuningdek realizasiya qilish bo'yicha aylanmasi soliq solishdan ozod etiladigan tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilsa, hisobga olinishi lozim bo'lgan soliq summasi ushbu Kodeksning 268-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Agar hisobga olish huquqi tovarlarni (xizmatlarni) olish bo'yicha qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitim natijasida vujudga kelganligiga oid dalillar mavjud bo'lsa, soliq organlari hisobga olishni bekor qilishni yoki unga tuzatishni amalga oshirishga haqli.

267-modda. Hisobga olinmaydigan soliq summasi

Tovarlar (xizmatlar) olish (olib kirish) chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq quyidagi hollarda hisobga olinmaydi:

1) realizasiya qilish bo'yicha aylanmalari ushbu bo'limga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mo'ljallangan asosiy vositalar, ko'chmas mulk ob'yektlari va nomoddiy aktivlar sotib olinganda (olib kirilganda);

2) tovarlar (xizmatlar) ushbu qismning 1-bandida ko'rsatilgan asosiy vositalarni, ko'chmas mulk ob'yektlarini qurish, modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va ta'mirlash uchun sotib olinganda;

3) realizasiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun sotib olinganda;

4) tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchi bo'lmagan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sotib olinganda;

5) vakillik xarajatlari;

6) tovarlar (xizmatlar) bepul olinganda, bundan oluvchi ular bo'yicha soliq to'lagan hollar mustasno;

7) soliq to'lovchining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo'ljallangan, ushbu Kodeksning 317-moddasiga muvofiq foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlar chegirib tashlanmaydigan tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda.

Soliq to'lovchi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish chog'ida to'lagan soliq summolari quyidagi tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish yoki olib kirish chog'ida ham, agar bu tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish amalga oshirilayotgan faoliyat turiga bog'liq bo'lmasa, hisobga olinmaydi:

1) yengil avtomobillarni, motosikllarni, vertolyotlarni, motorli qayiq'larni, samolyotlarni, shuningdek motorli vositalarning boshqa turlarini va ular uchun yoqilg'ini;

2) alkogol va tamaki mahsulotlarini.

Ushbu Kodeksning 268–270-moddalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, hisobga olinmaydigan soliq summasi sotib olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

[268-modda. Soliq solishdan ozod etiladigan realizasiya qilish bo'yicha aylanma mavjud bo'lganda soliq summasini hisobga olish uchun qabul qilish tartibi](#)

Agar soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshirsa, soliq solinadigan aylanmaga to'g'ri keladigan soliq summasi hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasi soliq to'lovchining tanloviga ko'ra alohida-alohida usulda va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Alohida-alohida usul bo'yicha soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etilgan aylanmalar uchun foydalaniladigan, olingan tovarlarning (xizmatlarning) hamda ular bo'yicha to'langan soliq summalarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni ajratish mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Mutanosib usul bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasi soliq solinadigan aylanma summasining tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish (soliqni hisobga olmasdan) bo'yicha aylanmaning umumiy summasidagi joriy kalendar yil ichida o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan solishtirma miqdoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Mutanosib usuldan foydalanish chog'ida hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq, shuningdek ushbu Kodeksning 269-moddasida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinishi lozim bo'lgan soliq summasiga tuzatish kiritilgan hollarda hisobga olishga qabul qilinmagan soliq soliq to'lovchi tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida chegirib tashlanadigan xarajatlar tarkibida hisobga olinadi.

Agar soliq solinadigan aylanmalarning ulushi joriy soliq davrida aylanma umumiy summasining 5 foizidan oshib ketmasa, soliq to'lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar bo'yicha), shu jumladan uzoq muddatli aktivlar bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasini joriy soliq davrida olingan tovarlarning (xizmatlarning) qiymatiga to'liq kiritishga haqli.

[269-modda. Hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish](#)

Ilgari tovarlarni (xizmatlarni) olish chog'ida hisobga olish uchun qabul qilingan, olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliq summasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritilishi lozim:

1) tovarlardan (xizmatlardan) kelgusida soliq solishdan ozod etilgan aylanma uchun foydalanilganda;

2) ular buzilganda yoxud qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli organ tomonidan, ular yo'qligida esa soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tabiiy kamayish normalaridan ortiqcha yo'qotilgan taqdirda. Ushbu bandning qoidasi favqulodda holatlar (tabiiy ofat, yong'in, avariya, yo'l-transport hodisasi va boshqa shu kabi holatlar) munosabati bilan tovarlarning buzilishiga yoxud yo'qotilishiga nisbatan tatbiq etilmaydi;

3) yetkazib beruvchi tomonidan taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb e'tirof etilganda;

4) soliq to'lovchi maqomini yo'qotganda (yoki soliq to'lashdan ozod qilinganda).

Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha ushbu Kodeksning 267-moddasi birinchi qismi 1 – 4-bandlariga muvofiq ilgari hisobga olinmagan soliq summasi kelgusida ular soliq solinadigan aylanma uchun foydalanilgan hollarda tuzatiladi (hisobga olinadi).

Tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi bunday tuzatishlarni amalga oshirishdan oldingi oxirgi o'n ikki oy ichida olingan tovarlarning (xizmatlarning) soliq summasi qayta tiklanishi lozim bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlariga to'g'ri keladigan qiymati asosida aniqlanadi.

Asosiy vositalarning ob'yektlari, ko'chmas mulk ob'yektlari va nomoddiy aktivlar bo'yicha tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan soliq summasi ushbu Kodeksning 270-moddasida nazarda tutilgan tartibda qayta baholash hisobga olinmagan, ushbu ob'yektlarning balans qiymatiga to'g'ri keladigan, ilgari bu ob'yektlar bo'yicha hisobga olingan (yoki ularning qiymatiga kiritilgan) soliq summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ilgari bunday tovarlar (xizmatlar) bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilingan miqdordagi, asosiy vositalarga, ko'chmas mulk ob'yektlariga va nomoddiy aktivlarga nisbatan esa ularning qayta baholash hisobga olinmagan holdagi qoldiq (balans) qiymatiga mutanosib miqdordagi soliq summalari tiklanishi lozim.

Tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beruvchi tomonidan ushbu Kodeksning 257-moddasiga muvofiq soliq bazasiga tuzatishlar kiritish amalga oshirilganda, xaridor yetkazib beruvchi tomonidan rasmiylashtirilgan qo'shimcha (yoki tuzatilgan) hisobvara-q-faktura asosida u tomonidan ilgari hisobga qabul qilingan soliq summasiga tegishli tartibda tuzatish kiritishi kerak.

Soliqqa tuzatish kiritish summasi ko'rsatilgan ob'yektlarning balans qiymatini oshirishga (yoki kamaytirishga) taalluqli bo'ladi yoxud foyda solig'ini hisoblab chiqarishda hisobga olinadigan xarajatlar (yoki daromadlar) tarkibiga kiritiladi.

Tovar reeksport bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda va ushbu tovarning importi chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi unga bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilganda, soliq to'lovchi hisobga o'tkaziladigan soliq summasiga o'ziga qaytarilgan soliq summasi bo'yicha tuzatish kiritadi (uni kamaytiradi).

Hisobga olingan soliq summasiga tuzatishlar kiritish ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelgan soliq davrida amalga oshiriladi.

270-modda. Asosiy vositalarning ayrim ob'yektlari, ko'chmas mulk ob'yektlari va nomoddiy aktivlar bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish

Ushbu Kodeksning 266-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan ob'yektlar bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasiga ushbu Kodeksning 267-moddasiga muvofiq ob'yektlardan kelgusida foydalanilgan taqdirda tuzatish kiritilishi lozim, bundan to'liq amortizasiya qilingan yoki ishga tushirilgan paytidan e'tiboran o'n yildan ortiq vaqt o'tgan ob'yektlar mustasno.

Soliqqa tuzatish kiritish summasi ushbu ob'yektlar bo'yicha ilgari hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasidan kelib chiqqan holda, ularning bunday tuzatish kiritilayotgan sanadagi (qayta baholash hisobga olinmagan holdagi) balans (qoldiq) qiymatiga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi. Bunda soliqqa tuzatish kiritish summasi mazkur ob'yektlar balans qiymatining ko'payishiga olib boriladi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ob'yektdan kelgusida soliq to'lovchi tomonidan ushbu bo'limga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va realizasiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun yangidan foydalanilsa, soliq to'lovchi tuzatish kiritishga va hisoblab chiqarilgan soliq summasini ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilganiga o'xshash tartibda hisobga olish uchun qabul qilishga haqli.

Ushbu Kodeksning 266-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan ob'yektlar bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi, agar soliq to'lovchi tomonidan keyinchalik bunday ob'yektlardan ushbu Kodeksning 267-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun foydalanilsa, hisobga o'tkazilishi lozim, bundan to'liq amortizasiya qilingan yoki ishga tushirilgan paytidan e'tiboran o'n yildan ortiq vaqt o'tgan ob'yektlar mustasno.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq soliqqa tuzatish kiritish summasi ilgari mazkur ob'yektlar qiymatiga kiritilgan soliq summasidan kelib chiqqan holda, ularning tegishli soliq summasini o'z ichiga oladigan, bunday tuzatish kiritilgan sanadagi (qayta baholash hisobga olinmagan holdagi) balans (qoldiq) qiymatiga mutanosib ravishda hisoblab chiqariladi. Ushbu qismga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqqa tuzatish kiritish summasi ushbu Kodeksning 266-moddasi uchinchi qismida belgilangan tartibda hisobga o'tkazilishi lozim.

Agar ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan ob'yektdan keyinchalik realizasiya qilinishi soliq solishdan ozod etilgan tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun yangidan foydalanilsa, soliq to'lovchi hisobga o'tkaziladigan soliq summasiga tuzatish kiritishni amalga oshirish hamda ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan tartibga o'xshash tartibda hisoblab chiqarilgan soliq summasini tiklashi kerak.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ob'yektdan realizasiyasiga soliq solinadigan tovarlarni (xizmatlarni) ham, soliq solishdan ozod qilingan tovarlarni ishlab chiqarish (xizmatlarni ko'rsatish) uchun ham foydalanilgan taqdirda, tiklanishi lozim bo'lgan soliq summasi ko'rsatilgan ob'yekt bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilingan, ob'yektning bunday tuzatish kiritilgan sanadagi balans (qoldiq) qiymatiga (qayta hisoblashni hisobga olmagan holda) to'g'ri

keladigan soliq summasining qismi sifatida aniqlanadi. Mazkur qism soliq solishdan ozod qilingan realizasiya qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining joriy kalendar yili davomida o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan realizasiya qilingan tovarlar (xizmatlar) umumiy qiymatining ulushiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Agar ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan ob'yektdan kelgusida ham realizasiya qilish aylanmasi soliq solishdan ozod qilinadigan, ham realizasiya qilish aylanmasiga soliq solinadigan tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalanilsa, hisobga olinmaydigan soliq summasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

1) ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan tartibga o'xshash tartibda hisoblab chiqarilgan, ob'yektning balans (qoldiq) qiymatida hisobga olingan soliq summasi ajratiladi;

2) ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan tartibga muvofiq hisobga olinmaydigan, soliq solishdan ozod qilingan aylanmaga to'g'ri keladigan soliq summasining ajratilgan qismi aniqlanadi. Qoldiq summa ushbu bobga muvofiq hisobga olinadi.

[271-modda. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishda hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summalariga tuzatish kiritish](#)

Tovarlarni (xizmatlarni) olishda ilgari hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasi, agar bunday tovarlarga (xizmatlarga) haq to'lash bo'yicha majburiyat ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq bunday tuzatish amalga oshirilgan soliq davrida hisobdan chiqariladi, bundan ushbu Kodeksning 266-moddasi birinchi qismi 3 va 4-bandlariga muvofiq hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summolari mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatish kiritish amalga oshirilgan tovarlar (xizmatlar) uchun haq to'langan taqdirda, haq to'lash amalga oshirilgan soliq davridagi tegishli soliq summasiga soliq to'lovchi hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasini ko'paytirish tomonga teskari tuzatish kiritish huquqiga ega.

272-modda. To'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi har bir soliq davri yakunlari bo'yicha, ushbu Kodeksning 265-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, ushbu bobga muvofiq hisobga olinishi va tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan summalar hisobga olingan holda hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog'idagi soliq summasi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga to'lanadi.

Agar ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi salbiy bo'lsa, soliq to'lovchi mazkur summaning o'rnini ushbu Kodeksning 274-moddasida belgilangan tartibda qoplash huquqiga ega bo'ladi.

273-modda. Soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Soliq to'lovchilar, agar ushbu bobda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobotini o'zlari soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga o'tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirilmagan muddatda taqdim etishlari shart.

Ushbu Kodeksning 272-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliqni to'lash agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq hisobida turilgan joy bo'yicha har bir soliq davrining yakunlariga ko'ra, soliq hisoboti taqdim etishlari muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirish chog'ida soliq ushbu bo'lim qoidalari hisobga olingan holda, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda byudjetga to'lanadi.

Soliq agentlari soliqni o'zi soliq hisobida turgan joy bo'yicha to'laydi. Soliq to'lovchilar bo'lmagan soliq agentlari o'zi soliq hisobida turgan joydagi soliq organlariga tegishli soliq hisobotini ushbu Kodeksning 255 va 256-moddalariga muvofiq to'lash amalga oshirilgan o'tgan soliq davridan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Soliq hisobotiga soliq to'lovchining xaridlar reyestrda va sotuvlar reyestrda ko'rsatilgan ma'lumotlar kiritiladi.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar, shuningdek vositachilik (topshiriq) va transport ekspeditsiyasi shartnomalari asosida boshqa shaxsning manfaatlarni ko'zlab tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslar olingan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar daftarlaridagi ma'lumotlarni ham belgilangan shakl bo'yicha taqdim etishi shart. Agar bunday shaxslar soliq to'lovchilar bo'lmasa, ular soliq hisobotiga faqat soliq agenti sifatida operatsiyalarni yoki vositachilik (topshiriq) shartnomasi asosida komitentning (ishonch bildiruvchining), transport ekspeditsiyasi shartnomasi asosida yukni oluvchining (yukni jo'natuvchining) manfaatlarini ko'zlab vositachilik operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida olingan hamda taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarida aks ettiriladigan ma'lumotlarni kiritadi.

Xaridlar va sotuvlar reyestrlarini, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarni hisobga olish daftarlarini yuritish shakllari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

274-modda. Soliqning o'rnini qoplash

Ushbu Kodeksning 272-moddasiga muvofiq o'rni qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobidan hisobga olinadi.

Soliq to'lovchi o'rni qoplanishi lozim bo'lgan soliq summasini soliq organlariga soliq summasini qaytarish to'g'risida berilgan arizaga asosan qaytarish huquqiga ega.

Agar kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra soliq organi qaytarish uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasining o'rnini to'liq yoki qisman qoplash to'g'risida qaror qabul qilsa, mazkur soliq summasi soliq to'lovchiga soliq summasini qaytarish to'g'risida ariza berilgan sanadan e'tiboran oltmish kundan kechiktirmay qaytariladi.

Soliqning jami summasi o'rnini tezlashtirilgan tarzda qoplash tartibi bu haqda soliqni qaytarish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan taqdirda, quyidagi toifadagi soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llaniladi:

1) O'zbekiston Respublikasining yirik soliq to'lovchilar toifasiga belgilangan tartibda kiritilgan yuridik shaxslariga;

2) soliqni qoplashga doir ariza bilan birga amaldagi bank kafolatini taqdim etgan yoki soliq organlari bilan garov shartnomasini ushbu Kodeksning 107 yoki 109-moddalarida belgilangan tartibda rasmiylashtirgan soliq to'lovchilarga;

3) eksport va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshiradigan shaxslarga – agar ilgari bu shaxslarga soliq summasi qoplangan va bunda qonunbuzarliklar aniqlanmagan bo'lsa, nol darajali soliq stavkasi qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan soliqning oshib ketgan summalari qismida;

4) chet el diplomatik vakolatxonalariga va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalariga;

5) mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga, agar bunday bitimda nol darajali stavka qo'llanilishi nazarda tutilgan bo'lsa;

6) soliq monitoringi ishtirokchilariga.

Soliqning o'rnini tezlashtirilgan tartibda qoplashda soliq to'lovchi tomonidan qaytarish uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasining o'zni unga yetti kun ichida to'liq hajmda qoplanadi. Bunda o'zni qoplanishi uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasi asoslantirilganligining kameral soliq tekshiruvi umumiy tartibda amalga oshiriladi. Agar kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra arizada ko'rsatilgan soliq summasi yoki uning bir qismi asossiz bo'lib chiqsa, soliq to'lovchi soliqning o'zni o'ziga asossiz ravishda qoplangan summasini qoplash sanasidan to'ni byudjetga to'lash sanasigacha penya hisoblangan holda byudjetga to'lashi shart.

Soliq summalarining o'rnini qoplash tartibi va shartlari, ushbu moddaga muvofiq kameral soliq tekshiruvini o'tkazish, shuningdek chet davlat fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida olingan tovarlarni olib chiqishda ularga soliq summasini qaytarish (TAX FREE) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

38-bob. Alohida hollarda soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

275-modda. Birgalikdagi faoliyat, ishonchli boshqaruv yoki konsessiya bitimi doirasida operatsiyalarni amalga oshirishda soliqni hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari

Agar oddiy shirkat shartnomasining (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaning) ishtirokchilaridan hech bo'lmaganda bittasi O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo'lgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi yoxud yakka tartibdagi tadbirkor bo'lsa, soliq solish maqsadida birgalikdagi faoliyat doirasida amalga oshiriladigan hamda ushbu Kodeksning 239-moddasiga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan operatsiyalarning umumiy hisobini yuritish shunday ishtirokchi (bundan buyon ushbu moddada ishonchli shaxs deb yuritiladi) tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Mazkur qoida oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) muvofiq shirkat ishlarini yuritish kimning zimmasiga yuklatilganligidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq operatsiyalarni amalga oshirishda shirkatning ishonchli shaxsi, konsessioner yoki

ishonchli boshqaruvchi zimmasiga soliq to'lovchining ushbu bo'limda belgilangan majburiyatlari yuklatiladi.

Oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishda shirkatning ishonchli shaxsi, konsessioner yoki ishonchli boshqaruvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli hisobvaraq-fakturalarni taqdim etishi shart.

Soliq solinishi lozim bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni) oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) doirasida ishlab chiqarish va (yoki) realizasiya qilish uchun olinadigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha soliqni hisobga olish imkoniyati faqat shirkatning ishonchli shaxsiga, basharti sotuvchilar tomonidan ushbu shaxsga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar mavjud bo'lsa, beriladi.

Shirkatning ishonchli shaxsi tomonidan boshqa faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasiga (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga) muvofiq operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida foydalaniladigan va ushbu shaxs tomonidan o'zining boshqa faoliyati amalga oshirilganda foydalaniladigan tovarlarning (xizmatlarning) alohida-alohida hisobi mavjud bo'lganda, soliq summalarini hisobga olishga bo'lgan huquq yuzaga keladi.

Soliqni hisobga olishga oid qism bo'yicha xuddi shunday qoidalar konsessiya bitimiga yoki mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq amalga oshiriladigan operatsiyalarga nisbatan belgilanadi.

Shirkatning soliq hisobini yuritish uchun mas'ul bo'lgan ishonchli shaxsi, konsessioner, ishonchli boshqaruvchi oddiy shirkat shartnomasini (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomani) konsessiya bitimini, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasini bajarish jarayonida amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobini har bir ko'rsatib o'tilgan shartnoma bo'yicha alohida-alohida yuritadi.

276-modda. Qayta tashkil etilganda soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda uning soliq majburiyati ushbu moddada belgilangan o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda, ushbu Kodeksning 92-moddasiga muvofiq o'zining huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajariladi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, qayta tashkil etish shaklidan qat'i nazar, qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga qo'yilgan va (yoki) ushbu shaxs tomonidan tovarlarni (xizmatlarni) olishda (olib kirishda) to'langan, lekin u tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinmagan soliq summasi ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda ushbu yuridik shaxsning huquqiy vorisida, agar huquqiy voris soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, hisobga olinishi lozim.

Soliq summalarini hisobga olish qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisi tomonidan qayta tashkil etilgan yuridik shaxs tovarlarni (xizmatlarni) olganda, unga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar asosida, shuningdek huquqiy voris tovarlarni (xizmatlarni) olganda unga taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar asosida amalga oshiriladi. Soliq summalarini hisobga olish qayta tashkil etilgan

yuridik shaxs tomonidan tovarlar (xizmatlar) olinishi bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha qarz huquqiy vorisga o'tkazilganidan keyin to'liq hajmda amalga oshiriladi.

Agar qayta tashkil etilgan shaxs ushbu Kodeksning 274-moddasiga muvofiq soliqning o'rnini qoplanishi huquqiga ega bo'lsa, lekin soliqning o'rnini qoplanishi lozim bo'lgan summasi qayta tashkil etish tugallanganiga qadar unga qoplanmasa, ko'rsatilgan soliq summasining o'rnini uning huquqiy vorisiga qoplanadi.

Agar yuridik shaxs qayta tashkil etilganda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) soliq to'lovchi bo'lmasa, qayta tashkil etilayotgan shaxs ushbu bo'limda belgilangan tartibda soliqni hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summasiga tuzatish kiritishni amalga oshirishi kerak.

277-modda. O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kirishda va O'zbekiston Respublikasi hududidan tovarlarni olib chiqishda soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda soliq solish tanlangan bojxona rejimiga qarab, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tovarlar erkin muomalada bo'lish (import) uchun chiqarish bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to'liq hajmda hisoblanadi;

2) tovarlar reimport bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to'lovchi ushbu Kodeksga muvofiq tovarlar eksport qilinganda to'lashdan ozod etilgan soliq summalarini yoxud unga tovarlar eksport qilinganligi tufayli qaytarib berilgan summalarni to'laydi. Sanab o'tilgan summalarni to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

3) tovarlar tranzit, bojxona ombori, reeksport, boj olinmaydigan savdo, erkin bojxona hududi, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga, shuningdek g'amlab qo'yilgan narsalar bojxonada deklarasiya qilinganda soliq to'lanmaydi;

4) tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilganda, bosharti qayta ishlash mahsulotlarini muayyan muddatda O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqilsa, soliq to'lanmaydi;

5) tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilganda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod etish qo'llaniladi;

6) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash mahsulotlari olib kirilgan taqdirda, soliq to'lovi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi;

7) tovarlar ichki iste'mol uchun qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilganda soliq to'liq hajmda to'lanadi.

Tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotganda soliq solish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomilida olib chiqilayotganda soliq to'lanmaydi. Mazkur qoida tovarlarni keyinchalik eksport bojxona tartib-taomiliga muvofiq olib chiqish maqsadida ushbu tovarlar bojxona ombori tartib-taomiliga joylashtirilganda ham qo'llaniladi;

2) tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga reeksport bojxona tartib-taomilida olib chiqilayotganda soliq to'lanmaydi, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish chog'ida to'langan soliq summaları esa soliq to'lovchiga bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytariladi. Mazkur qoida tovarlar reeksport bojxona tartib-taomiliga muvofiq keyinchalik olib chiqish maqsadida bojxona ombori bojxona tartib-taomiliga joylashtirilganda ham qo'llaniladi;

3) maxsus bojxona tartib-taomilini tugallash maqsadida g'amlab qo'yilgan narsalar, shuningdek tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilayotganda soliq to'lanmaydi;

4) tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan ushbu qismning 1–3-bandlarida ko'rsatilganlariga nisbatan boshqa tartib-taomillarga muvofiq olib chiqilayotganda, agar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona tartib-taomillari bilan soliq to'lashdan ozod etish va (yoki) to'langan soliq summalarini qaytarish amalga oshirilmaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy, oilaviy, uy-ro'zg'or ehtiyojlari va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun mo'ljallangan tovarlar olib o'tilayotganda, tovarlar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganligi munosabati bilan soliq to'lash tartibi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadi.

39-bob. Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

278-modda. Soliq to'lovchilar

Realizasiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizasiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari bunday xizmatlarni jismoniy shaxslarga ko'rsatishga oid qism bo'yicha soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Agar chet el yuridik shaxslari jismoniy shaxslarga ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan xizmatlarni elektron shaklda ko'rsatsa hamda ularni realizasiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lsa, bunday xizmatlarni ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslari bilan topshiriq, vositachilik, agentlik shartnomalari yoki boshqa shunga o'xshash shartnomalar asosida bevosita jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarda ishtirok etadigan vositachilar bo'lgan chet el yuridik shaxslari bunday xizmatlarni realizasiya qilishga doir operatsiyalarga nisbatan soliq agentlari deb e'tirof etiladi.

Agar bunday xizmatlar vositachilar bo'lgan bir nechta yuridik shaxsning hisob-kitoblarida izchil ketma-ketlikda ishtirok etgan holda ko'rsatilsa, bevosita jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarda ishtirok etayotgan vositachi bo'lgan chet el yuridik shaxsi, unda ushbu xizmatlarni ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxsi bilan shartnoma mavjudligidan qat'i nazar, soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Agar bunday xizmatlar O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslariga va O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasalar orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslarga ko'rsatiladigan bo'lsa, bunday xizmatlarning xaridorlari bo'lgan mazkur shaxslar soliq agentlari deb e'tirof etiladi.

279-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslarini hisobga qo'yish va hisobdan chiqarish tartibi

Agar chet el yuridik shaxsi jismoniy shaxslarga ushbu Kodeksning 282-moddasida ko'rsatilgan, realizasiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi deb e'tirof etiladigan elektron shakldagi xizmatlar ko'rsatadigan bo'lsa, va agar bu yuridik shaxsning o'zi vositachilarsiz xizmatlarni oluvchi bo'lgan jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirsa, chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) to'g'risidagi ariza va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ro'yxati tasdiqlanadigan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Shunday xizmatlarda soliq agenti deb e'tirof etiladigan vositachi bo'lgan chet el yuridik shaxsini soliq organida hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Hisobga qo'yish (hisobdan chiqarish) to'g'risidagi ariza chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq organiga elektron shaklda xizmatlar ko'rsatish boshlangan (tugatilgan) kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kechiktirmay beriladi.

280-modda. Soliq solish ob'yekti va soliq bazasi. Soliq davri. Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Jismoniy shaxslarga elektron shakldagi xizmatlarni realizasiya qilish bo'yicha aylanma soliq solish ob'yektidir.

Chet el yuridik shaxslari jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi realizasiya qilish joyi deb e'tirof etiladigan, ushbu Kodeksning 282-moddasida belgilangan elektron shakldagi xizmatlarni ko'rsatganda soliq bazasi mazkur xizmatlarning ularni realizasiya qilishning haqiqiy narxlaridan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisobga olingan holdagi qiymati sifatida aniqlanadi.

Bir chorak soliq davridir.

Soliq bazasi har bir chorak bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov (qisman to'lov) kelib tushgan vaqtdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq bazasini ushbu moddaga muvofiq aniqlash chog'ida elektron shaklda ko'rsatiladigan xizmatlarning chet el valyutasida ifodalangan qiymati O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ko'rsatilgan xizmatlar to'lovi (qisman to'lovi) kelib tushgan oyning oxirgi kunida belgilangan kursi bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblanadi.

Agar bunday xizmatlarni realizasiya qilishga doir operatsiyalarga nisbatan soliqni hisoblab chiqarish bo'yicha majburiyat ushbu moddaga muvofiq soliq agentining zimmasiga yuklatilmagan bo'lsa, chet el yuridik shaxslari soliqni hisoblab chiqarishni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

281-modda. Elektron shaklda xizmatlar ko'rsatishda chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu Kodeksning 82-moddasida belgilangan elektron shakldagi xizmatlar ko'rsatuvchi chet el yuridik shaxslari soliq organiga soliq hisobotini soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali, belgilangan format bo'yicha elektron shaklda taqdim etadi.

Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliq organiga hujjatlarni (axborotni) va ma'lumotlarni taqdim etish uchun soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan foydalanish mumkin bo'lmagan davrda bunday hujjatlar (axborot) va ma'lumotlar telekommunikasiya aloqa kanallari orqali taqdim etiladi.

Soliq hisobotlari, hujjatlar (axborot) va boshqa ma'lumotlar o'tgan chorakdan keyingi oyning yigirmanchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Chet el yuridik shaxslari tomonidan soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

282-modda. Elektron shakldagi xizmatlar

Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda jahon Internet axborot tarmog'idan (bundan buyon matnda Internet tarmog'i deb yuritiladi) avtomatik usulda foydalanish orqali ko'rsatilgan xizmatlar elektron shakldagi xizmatlar jumlasiga kiradi. Xususan, bunday xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) dasturiy ta'minotdan (shu jumladan Internet tarmog'i orqali yetkazib beriladigan o'yinlardan), shuningdek ma'lumotlar bazalaridan, ularga kiritiladigan yangi ma'lumotlardan va qo'shimcha funksional imkoniyatlardan Internet tarmog'i orqali, shu jumladan ulardan masofadan turib foydalanish imkonini berish yo'li bilan foydalanishga bo'lgan huquqlarni taqdim etish;

2) elektron kitoblardan (nashrlardan) va boshqa elektron nashrlardan, axborot, ta'limga oid materiallardan, grafik tasvirlardan, matnli yoki matnsiz musiqa asarlaridan, audiovizual asarlardan foydalanish huquqini Internet tarmog'i orqali, shu jumladan Internet tarmog'i orqali ko'rib chiqish yoki eshitish uchun ulardan masofadan turib foydalanish imkonini berish yo'li bilan taqdim etish;

3) Internet tarmog'ida, shu jumladan elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlardan va Internet tarmog'ida ishlab turgan ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda reklamaga oid xizmatlar ko'rsatish, shuningdek Internet tarmog'ida reklama uchun reklamaga oid maydon (joy) va vaqt berish;

4) Internet tarmog'ida tovarlarni (xizmatlarni) va mulkiy huquqlarni olish (realizatsiya qilish) to'g'risida takliflar joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

5) Internet tarmog'i orqali sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida aloqalar o'rnatish va bitimlar tuzish uchun axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan texnik, tashkiliy, axborot imkoniyatlarini hamda boshqa imkoniyatlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish. Bunday xizmatlar jumlasiga, xususan, Internet tarmog'ida real vaqt rejimida ishlaydigan savdo maydonchasini berish kiradi, bu maydonda potensial xaridorlar avtomatlashtirilgan tartib-taomil vositasida o'z narxini taklif etadi hamda taraflar avtomatik tarzda yaratiladigan xabar orqali sotuv to'g'risida xabardor qilinadi;

6) o'z maqsadlari uchun yoki iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish maqsadida Internet tarmog'ida hozir bo'lishni ta'minlash va (yoki) saqlab turish, foydalanuvchilarning elektron resurslarini (saytlarini va (yoki) Internet tarmog'idagi saytlari sahifalarini) saqlab turish, ulardan Internet tarmog'idan boshqa foydalanuvchilarning foydalanishini ta'minlash, foydalanuvchilarga ularni modifikasiyalash imkonini taqdim etish;

7) dasturning masofadan va onlayn rejimida ishlashini avtomatik tarzda saqlab turish, Internet tarmog'ida axborot tizimlarini, saytlarni va (yoki) sahifalarni boshqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

8) basharti axborotni taqdim etgan shaxs undan Internet tarmog'i orqali foydalanish imkoniga ega bo'lsa, ushbu axborotni saqlash va unga ishlov berish;

9) axborot tizimida axborotni joylashtirish uchun real vaqt rejimida hisoblash quvvatini taqdim etish;

10) domen nomlar berish, xosting xizmatlarini ko'rsatish;

11) Internet tarmog'i orqali xaridor tomonidan ma'lumotlar kiritilayotganda avtomatik usulda yuzaga keladigan axborotni yetkazib berish, ma'lumotlarni qidirish, so'rovlarga ko'ra ularni saralash va ajratish, axborot-kommunikasiya tarmoqlari orqali mazkur ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish bo'yicha avtomatlashtirilgan xizmatlar ko'rsatish. Bunday yetkazib berishlar jumlasiga, xususan, fond birjasining real vaqt rejimidagi ma'lumotlari, matnlarning avtomatlashtirilgan tarjimasini real vaqt rejimida amalga oshirish kiradi;

12) potensial xaridorlar to'g'risidagi axborotni qidirish va (yoki) buyurtmachiga taqdim etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

13) Internet tarmog'idagi qidiruv tizimlaridan foydalanish imkonini berish;

14) Internet tarmog'idagi saytlarda statistikani yuritish.

Elektron shakldagi xizmatlar jumlasiga quyidagilar kirmaydi:

1) agar Internet tarmog'i orqali buyurtma berilganda tovarlar yetkazib berish (xizmatlar ko'rsatish) aslida Internet tarmog'idan foydalanmagan holda amalga oshiriladigan bo'lsa, tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilish;

2) elektron hisoblash mashinalari (shu jumladan kompyuter o'yinlari) uchun dasturlarni va moddiy jismlardagi ma'lumotlar bazalarini realizasiya qilish (ulardan foydalanish huquqlarini taqdim etish);

3) elektron pochta orqali maslahat xizmatlari ko'rsatish;

4) Internet tarmog'idan foydalanish imkonini berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.

6-mavzu. Aksiz solig'ini hisoblash va undirish tartibi

Reja:

1. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni. Aksiz solig'i to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish ob'yekti va soliq solinadigan baza.

2. Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarning ro'yxati. Soliq stavkalari va ularning tabaqalanish me'zonlari. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

1. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni. Aksiz solig'i to'lovchilar tarkibi, soliqqa tortish ob'yekti va soliq solinadigan baza.

283-modda. Soliq to'lovchilar

Aksiz solig'ini to'lovchilar (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi) deb quyidagi shaxslar e'tirof etiladi:

1) O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

2) tabiiy gazni iste'molchilarga realizasiya qilishni amalga oshiruvchilar;

3) benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizasiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizasiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

4) oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

5) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchilar. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar ham soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi:

1) telekommunikasiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to'lanadigan xizmatlarni) ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

284-modda. Soliq solish ob'yekti

Aksiz solig'i (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) solinadigan ob'yektlar quyidagilardan iborat:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizasiya qilish, shu jumladan aksiz to'lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun berish:

tovarga bo'lgan mulk huquqini berish;

garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan berish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul berish;

aksiz to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxslarning mehnatiga haq to'lash yoki dividendlar to'lash hisobidan berish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida yoxud oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida berish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni:

a) ishtirokchiga (muassisga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi kamayganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning bir qismi) qaytarib sotib olinganda ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olingan taqdirda aksiyadorga berish;

v) yuridik shaxsni tugatishda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan qayta ishlash uchun topshirish, shuningdek qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan, shuningdek aksiz to'lanadigan shunday xom ashyo va materiallarning mahsuli bo'lgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni qaytarish sharti bilan berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga ishlab chiqaruvchi tomonidan topshirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

7) benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizasiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

8) aksiz to'lanadigan xizmatlar ko'rsatish;

9) O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning buzilishi, yo'qotilishi, bundan favqulodda vaziyatlar natijasida yuzaga kelgan hollar mustasno. Aybdor tomonidan tovarning qiymati sug'urta orqali to'langan yoki uning o'zni qoplangan taqdirda, aksiz solig'i sug'urta orqali to'lash (o'zini qoplash) ulushida to'lanadi.

Quyidagilar soliq solish ob'yekti hisoblanmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni eksportga (eksportning bojxona tartib-taomillarida) realizasiya qilish, bundan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona tartib-taomiliga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan, qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketish sharti bilan berish;

3) ixtisoslashtirilgan gaz ta'minoti korxonalari orqali aholiga suyultirilgan gazni maishiy ehtiyojlar uchun realizasiya qilish;

4) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarni:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kirish;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar orqali xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirish;

agar qarz shartnomasida ularni soliqdan ozod etish nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro moliya institutlarining qarzlari va hukumat tashkilotlarining xalqaro qarzlari hisobidan olib kirish;

5) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilish. O'zbekiston Respublikasi hududiga soliq solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirishning eng yuqori normalari qonun hujjatlarida belgilanadi;

6) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikasiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik

vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

285-modda. Soliq bazasi

Soliq bazasi belgilangan soliq stavkalariga qarab aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan soliq stavkalari mutlaq (qat'iy) summada belgilangan bo'lsa, soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) naturada ifodalangan hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) soliq stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bo'lib realizasiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) qiymati, biroq ularning haqiqiy tannarxidan past bo'lmagan qiymati hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lash, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga bepul yoki boshqa tovarlarga (xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qaytarib berish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq bazasi aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlarning qiymatini hamda qaytarish sharti bilan qayta ishlangan xom ashyo va materiallarning qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi, agar ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizasiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holidagi hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizasiya qilish chog'ida realizasiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan hajmi soliq bazasi hisoblanadi.

286-modda. Aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana

Ushbu Kodeksning 242-moddasida tegishli operatsiyalar uchun nazarda tutilgan sana aksiz to'lanadigan tovarlarga (xizmatlarga) doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sana hisoblanadi.

Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solish operatsiyalarini amalga oshirish sanasi ularni bojxonaning import tartib-taomilidan chiqarish sanasi hisoblanadi.

287-modda. Soliq bazasiga tuzatish kiritish

Soliq bazasiga tuzatish kiritish ushbu Kodeksning 257-moddasida nazarda tutilgan hollarda va tartibda, soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

288-modda. Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1) eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berishga doir kontrakt (kontraktning belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxasi);

2) tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklarasiyasi;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan, tovarga ilova qilinadigan hujjatlar;

4) chet ellik sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma.

Tovarlar chet el valyutasida eksport qilish yuzasidan daromadlar tovarlar eksport rejimiga chiqarilgan kundan e'tiboran bir yuz sakson kalendar kuni ichida kelib tushmagan taqdirda, tovarlarni eksportga realizasiya qilish soliq solishning ob'yekti deb e'tirof etiladi.

Tovarlar eksportga vositachi (ishonchli vakil) orqali vositachilik (topshiriq) shartnomasi bo'yicha realizasiya qilingan taqdirda eksportni tasdiqlash uchun komitent (topshiriq beruvchi) tomonidan soliq to'lovchining vositachi yoki ishonchli vakil bilan tuzilgan vositachilik shartnomasi yoki topshiriq shartnomasi (shartnomaning ko'chirma nusxasi) qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

4.2. Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarning ro'yxati. Soliq stavkalari va ularning tabaqalanish me'zonlari. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi.

289-modda. Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlarning ro'yxati. Soliq stavkalari

Aksiz to'lanadigan tovarlarning (xizmatlarning) ro'yxati va ularga doir soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan tasdiqlanadi.

Soliq stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy belgilangan), shuningdek advalor va qat'iy belgilangan soliq stavkalarini o'z ichiga olgan aralash stavkada belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 9 dekabrda O'RQ-589-son Qonuniga
8-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan (xizmat ko'rsatiladigan),
aksiz solig'i solinadigan tovarlarga (xizmatlarga) aksiz solig'i
STAVKALARI**

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Solliq stavkasi		
		2020 yil 1 yanvardan	2020 yil 1 apreldan	2020 yil 1 oktyabrdan
1.	Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi (1 dal uchun)	10 800 so'm	11 700 so'm	12 500 so'm
2.	Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun):			
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	7 700 so'm	8 300 so'm	
	boshqa vinolar	14 500 so'm	15 700 so'm	16 800 so'm
3.	Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)	102 000 so'm	109 100 so'm	116 400 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan konyakka	168 100 so'm	179 700 so'm	192 300 so'm
4.	Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)	98 000 so'm	107 800 so'm	116 400 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga	162 700 so'm	179 000 so'm	192 300 so'm
5.	Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)	10 600 so'm	11 700 so'm	
6.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar	141 500 so'm/1000 dona + 9,0 foiz*	152 800 so'm/1000 dona + 9,0 foiz*	163 500 so'm/1000 dona + 9,0 foiz*
7.	Zargarlik buyumlari	25%		
8.	Mobil aloqa xizmatlari	20%		
9.	Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11%		
10.	Neft mahsulotlari:			
	Ai-80 benzini	200 000 so'm/ tonna		
	Ai-91, Ai-92, Ai-93, Ai-95 benzini	250 000 so'm/ tonna		
	dizel yoqilg'isi	200 000 so'm/ tonna		
	EKO dizel yoqilg'isi	180 000 so'm/ tonna		
	aviakerosin	180 000 so'm/ tonna		

	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	250 000 so‘m/ tonna	
11.	Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport	20%	
12.	Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («Hududgazta’minot» AJ orqali aholiga sotiladigan hajmlar bundan mustasno), shu jumladan, eksport	30%	
13.	Polietilen granulalar	30%	
14.	Yakuniy iste’molchiga sotiluvchi:**		
	benzin	1 litr uchun 285 so‘m/ 1 tonna uchun 378 480 so‘m	1 litr uchun 350 so‘m/ 1 tonna uchun 465 530 so‘m
	dizel yoqilg‘isi	1 litr uchun 285 so‘m/ 1 tonna uchun 346 275 so‘m	1 litr uchun 350 so‘m/ 1 tonna uchun 425 918 so‘m
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 285 so‘m/ 1 tonna uchun 540 645 so‘m	1 litr uchun 350 so‘m/ 1 tonna uchun 664 993 so‘m
	siqilgan gaz	1 kub.metr uchun 435 so‘m	1 kub.metr uchun 500 so‘m

* Aksiz solig‘ining qat’iy belgilangan stavkasi natura ifodasidagi aksiz to‘lanadigan tovarlar hajmiga nisbatan qo‘llaniladi, aksiz solig‘ining advalor stavkasi ishlab chiqaruvchining aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan qo‘llaniladi.

** Benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazni avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali sotishda aksiz solig‘i 1 litrdan kelib chiqib, boshqa hollarda esa 1 tonnadan kelib chiqib hisoblab chiqariladi.

290-modda. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

Soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va soliqning belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Import qilingan, aksiz to‘lanadigan, o‘ziga nisbatan aralash – advalor va qat’iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq soliq bazasi va advalor stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda soliq summasi qat’iy belgilangan stavka qo‘llanilgan holda hisoblab chiqarilgan summadan kam bo‘lishi mumkin emas.

291-modda. Soliq davri

Bir oy soliq davridir.

292-modda. Soliq hisobotini taqdim etish tartibi

Soliq hisoboti, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq bo'yicha hisobda turilgan joydagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizasiya qilingan taqdirda, soliq hisoboti avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi soliq organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning o'ninchi kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

293-modda. Soliq to'lash tartibi

Soliqni to'lash soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliqni to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi

7-mavzu. O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati

Reja:

- 1. Bojxona siyosatining asosiy maqsadi**
- 2. Bojxona siyosati – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida**

Jinoyat ob'ekti – bu jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning quyidagi ko'rinishdagi ob'ektlari mavjud:

- 1. Jinoyatning umumiy ob'ekti** – jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisiga aytiladi. Masalan: shaxs va uning huquq hamda erkinliklari; jamiyat va davlat manfaatlari; mulk; tabiiy muhit; tinchlik; insoniyat xavfsizligi. Umumiy ob'ekti jinoyat huquqining ijtimoiy-siyosiy mazmunini, jinoyat tajovuzkorligining ijtimoiy xavflilik hususiyatini belgilab beradi. Umumiy ob'ekti jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar o'rtasidagi tafovutni belgilash imkonini beradi.
- 2. Turdo'sh ob'ekti** – jinoyat qonuni jinoyatlarning ma'lum ko'rinishlaridan muhofaza etadigan, mohiyatiga ko'ra, bir toifadagi ijtimoiy munosabatlar guruhidan iborat. Ayni u yoki bu guruhga oid ijtimoiy munosabatlarning muhimligi jinoyat kodeksining maxsus qismida jinoyatlarning ayrim guruhini izchil joylashishini aniqlab beradi.
- 3. Bevosita ob'ekti** – ma'lum jinoyat turidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabat bo'lib, ayni uning o'zi jinoyatga baho berishda belgilab olinishi lozim.

Ko'p ob'ektili jinoyatlarda bevosita ob'ekti doirasida asosiy, qo'shimcha va fakultativ ob'ektlar ajratiladi. Mazkur tasnif tajovuzning ma'lum turidan himoya qilish uchun quyilgan ijtimoiy munosabatlarning qiyosiy ahamiyatiga asoslanadi.

- **Asosiy bevosita ob'ekti** – bu qonun chiqaruvchining ma'lum huquqiy normani tuzishda, eng avvalo, jinoyat qonuni muhofaza qilishga intilishiga qo'yayotgan ijtimoiy munosabatdir. Ayni asosiy bevosita ob'ekti jinoyatning ijtimoiy xavflilik hususiyatini, uning maxsus qism tizimidagi o'rnini aniqlaydi va turdo'sh ob'ekti tarkibiy qismi hisoblanadi.
- **Qo'shimcha bevosita ob'ekti** – asosiy ob'ektga tajovuz qilinganda muqarrar zarar etkazadigan ijtimoiy munosabatdir. Mazkur ob'ekt jinoyat tarkibining muqarrar alomati bo'lib, u qilmishga baho berishga ta'sir etadi.
- **Fakultativ bevosita ob'ekti** – ma'lum jinoyat tarkibining zaruriy alomati bo'lmagan, lekin mavjud jinoyat sodir etilishida xavf ostida qoladigan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni – shaxsning ongli hatti-harakati va irodaviy hulq-atvori tushuniladi. Ob'ektiv tomon quyidagi belgilarni o'z ichiga oladi:

- Qilmish (harakat yoki harakatsizlik);
- Jinoyiy oqibat;
- Qilmish va jinoyiy oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- Jinoyatning sodir etilish vaqti;
- Jinoyatning sodir etilish joyi;
- Jinoyatning sodir etilish vaziyati;
- Jinoyatning sodir etilish usuli;
- Jinoyatning sodir etilish quroli;
- Jinoyatning sodir etilish vositasi.

Harakat – shaxsning ijtimoiy xavfli, irodaviy faol hulq-atvori.

Harakatsizlik – ijtimoiy xavfli, faol bo'lmagan shaxsning me'yoriy hujjatlarda bajarishi ko'rsatilgan ma'lum harakatlarni bajarmaganligi.

Jinoyiy oqibat – jinoyiy-huquqiy muhofaza etiladigan, ijtimoiy munosabat ob'ektlariga ijtimoiy xavfli qilmish natijasida yetkazilgan zarar. Qilmish harakati va harakatsizlik bilan jinoyat natijasida yetkazilgan jinoyiy oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish – jinoyatning sub'ektiv aloqasi.

Jinoyatning sodir etilish vaqti – yil, oy, hafta, kun va tunning ma'lum qismiga, u yoki bu voqea sodir etilishi natijasida maxsus sharoitlarni vujudga keltiradigan davr.

Jinoyatning sodir etilish joyi – jinoyiy voqea sodir etilgan ma'lum hudud.

Jinoyatning sodir etilish vaziyati – jinoyat sodir etilgan cheklangan hudud, unda insonning moddiy predmetlari, tabiiy iqlim va boshqa omillarning ijtimoiy xavfli qilmish darajasiga ta'siri.

Jinoyatni sodir etish usuli – shaxsning jinoyiy niyatini amalga oshirish uchun qo'llagan uslubi yoki harakatlar majmuasi.

Jinoyat quroli – jinoyat sodir etilishida foydalaniladigan predmet.

Jinoyatni sodir etish vositalari – jinoyatni amalga oshirishni yengillashtiruvchi predmetlar.

8-mavzu. Tovarlarini bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash

261-modda. Bojxona deklaratsiyasini berish muddati

Bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kalendar kundan kechiktirmay beriladi, bundan ushbu Kodeksning [22](#), [23](#) va [25-boblarida](#) nazarda tutilgan hollar mustasno.

Agar bojxona deklaratsiyasini taqdim etish muddatining tugashi bojxona organi ishlamaydigan kunga to'g'ri kelib qolsa, bojxona organining navbatdagi ish kuni shu muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi.

Bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona deklaratsiyasini berish tovarlarni taqdim etish bilan bir vaqtda yoki bevosita tovarlar va transport vositalari bojxona hududiga olib kirilganidan keyin amalga oshiriladi.

[Keyingi tahrirga qarang.](#)

Olib chiqilayotgan tovarlar uchun bojxona deklaratsiyasi ular amalda olib chiqib ketilguniga qadar beriladi.

Tovarlarning o'zini olib chiqmasdan yoki ularni olib kirmasdan bojxona rejimi o'zgartiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona deklaratsiyasi avvalgi bojxona rejimi tugallanganiga qadar beriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlarda qo'l yukida va kuzatib boriladigan bagajda bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni taqdim etish bilan bir vaqtda beriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tganidan so'ng uch soatdan kechiktirmay deklaratsiyalanadi, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa bojxona chegarasini kesib o'tishdan kamida uch soat oldin deklaratsiyalanadi.

262-modda. Dastlabki deklaratsiyalash

Tovarlarini dastlabki deklaratsiyalash ularni bojxona hududiga yetib kelguniga qadar deklaratsiyalash bo'lib, u deklarantning xohishiga ko'ra qo'llanilishi mumkin.

Agar bojxona maqsadlari uchun tovarning kuzatuv hujjatlaridan foydalanish nazarda tutilsa, dastlabki bojxona deklaratsiyasiga ushbu hujjatlarning deklarant tomonidan tasdiqlangan ko'chirma nusxalari ilova qilinadi va, zarur bo'lgan hollarda, tovarlar bojxona hududiga yetib kelganidan keyin bojxona organi hujjatlarning ko'chirma nusxalarida ko'rsatilgan ma'lumotlarni hujjatlarning asl nusxasidagi ma'lumotlar bilan taqqoslaydi.

Tovarlar bojxona hududiga kelguniga qadar ma'lumotlarni taqqoslash tugallanganidan va tegishli bojxona to'lovlari to'langanidan keyin dastlabki bojxona deklaratsiyasidan tovarlarga bojxona operatsiyalari qo'llanilishi uchun zarur yagona hujjat sifatida foydalaniladi, bundan deklaratsiyada barcha zarur

ma'lumotlarning ko'rsatilmaganligi va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur hujjatlarning to'liq hajmda taqdim etilmaganligi hollari mustasno.

[Keyingi tahrirga qarang.](#)

Agar dastlabki bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kun ichida unda ko'rsatilgan tovarlar deklaratsiyani qabul qilgan bojxona organiga taqdim etilmagan bo'lsa, dastlabki bojxona deklaratsiyasi berilmagan deb hisoblanadi.

[Keyingi tahrirga qarang.](#)

263-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'ladigan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Bojxona deklaratsiyasi bojxona organiga zarur hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda beriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasida va taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan axborotni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Mazkur hujjatlarning va qo'shimcha ma'lumotlarning ro'yxati bojxona to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi.

(263-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni tahririda](#) — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[!\[\]\(6ea148e68b8eeb631cc290a248ae35e3_img.jpg\) LexUZ sharhi](#)

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-iyuldagi 605-son "Tovarlarni bojxonada deklaratsiyalash tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi [qarori](#).

Bojxona organiga xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

Bojxona organi yetishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilaydi.

264-modda. Bojxona deklaratsiyasini qabul qilish

Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligini rasmiylashtirish u topshirilgan kunda, ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

265-modda. Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish

Bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarga deklarant tomonidan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilishi, topshirilgan bojxona deklaratsiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish va (yoki) uni qaytarib olish deklaratsiya qabul qilinguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng o'zgartirish, qo'shimcha kiritish, qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va (yoki) bekor qilish deklarant bojxona organiga murojaat etganidan keyin amalga oshiriladi.

[Keyingi tahrirga qarang.](#)

Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish yoki unga qo'shimcha kiritish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, deklarantning yoki uchinchi shaxslarning topshirig'iga yoki iltimosiga ko'ra yozma

bojxona deklaratsiyasini to'ldirishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirishga yoki ularga qo'shimcha kiritishga haqli emas, bundan bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklaratsiyasiga kiritish, shuningdek, agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona deklaratsiyasida kodsiz tarzda mavjud bo'lsa, kodli ma'lumotlarni o'zgartirish yoki ularga qo'shimcha kiritish mustasno.

266-modda. Bojxona yuk deklaratsiyasini o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish, qaytarib olish va bekor qilish tartibi

Bojxona rasmiylashtiruvchi tugallanganidan va tovarlar muayyan bojxona rejimiga joylashtirilganidan keyin, bojxona yuk deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran uch yil ichida bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona organining talabi bilan yoki vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra o'zgartirish, unga qo'shimcha kiritish, uni qayta rasmiylashtirish yoxud bekor qilish mumkin.

Agar bojxona organi deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan ko'rsatilgan sabablarni asosli deb topsa, bojxona yuk deklaratsiyasi tovarlar chiqarib yuborilguniga qadar deklarant yoki bojxona brokeri tomonidan qaytarib olinishi mumkin. Olib chiqilayotgan tovarlarga doir bojxona yuk deklaratsiyasi ushbu tovarlarni olib chiqishga ruxsat berilganidan keyin ham, lekin ular amalda olib chiqilguniga qadar qaytarib olinishi mumkin.

Keyingi tahrirga qarang.

Bojxona yuk deklaratsiyalariga o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish, ularni qaytarib olish, qayta rasmiylashtirish va bekor qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ushbu moddaga muvofiq belgilanadi.

267-modda. Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi

Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar, shu jumladan bojxona nazorati ostida tovarlar tashilayotganda qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi qo'llaniladi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tashuvchi yoki vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovar bojxona hududiga yetib kelgan joyda tovarni taqdim etish yoki tovar kelib tushadigan bojxona organiga tovarni yetkazib berish bilan bir vaqtda beriladi. Agar tashuvchi yoki vakolatli shaxs uni to'ldirish uchun barcha zarur hujjatlarga ega bo'lmasa, qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tovar taqdim etilgandan so'ng keyingi ish kunidan kechiktirmay tashuvchi yoki vakolatli shaxsning arizasi asosida beriladi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi sifatida transport, tijorat hujjatlaridan, shu jumladan xalqaro tashishlar amalga oshirilayotganda qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan va quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlardan foydalaniladi:

- transport hujjatlariga muvofiq tovarni jo'natuvchining (qabul qiluvchining) nomi va joylashgan yeri;
- tovar jo'natilgan mamlakat va kelib tushadigan mamlakat;
- tovarning nomi;
- tovarning miqdori, shu jumladan tovarlarning brutto/netto og'irligi (kilogrammlarda) yoki tovarlarning hajmi (metr kublarda);
- yuk joylarining soni, tovarning o'rash-joylash hamda tamg'alash xususiyati va usullari;
- tovarning faktura (ma'lum qilingan) qiymati;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq tovarning kamida oltita belgi darajasidagi tasnifiy kodi haqidagi ma'lumotlar.

268-modda. Muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasi

Tovarlar bojxona chegarasi orqali quvur transportida yoxud elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tilayotganda muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasini berish yo'li bilan tovarlarni dastlabki tarzda deklaratsiyalashga yo'l qo'yiladi. Tovarlar bojxona chegarasi orqali bojxona organi tomonidan belgilangan muddatlarda amalda olib o'tilganidan keyin deklarant yoki bojxona brokeri bojxona yuk deklaratsiyasini berishi shart.

Muvaqqat bojxona yuk deklaratsiyasida tovarlarning chamalangan miqdorida olib o'tish maqsadlaridan, bojxona chegarasidan olib o'tish rejalashtirilayotgan tovarlarning miqdoriga va (yoki) tovarning kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlarida nazarda tutilgan bahosini aniqlash tartibiga, shuningdek tovarlarning taxminiy sifatiga ko'ra aniqlanadigan shartli bojxona qiymatidan (bahosidan) kelib chiqqan holda ma'lumotlarni bayon etishga yo'l qo'yiladi.

269-modda. To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi

Agar deklarant yoki bojxona brokeri o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra deklaratsiyani to'ldirish uchun barcha zarur axborotga ega bo'lmasa, to'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi tovarni identifikatsiyalash imkoniyati bo'lishi sharti bilan berilishi mumkin.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi ushbu Kodeks 22-moddasi ikkinchi qismining "v", "d" va "e" bandlarida ko'rsatilgan hollarda berilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarag.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasiga deklarant yoki bojxona brokeri, agar bojxona to'g'risidagi qonunchilikda alohida ma'lumotlarni taqdim etish uchun boshqa muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, to'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi bojxona organi tomonidan qabul qilib olingan kundan e'tiboran oltmish kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda yetishmagan ma'lumotlarni va lozim darajada to'ldirilgan bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish haqidagi yozma majburiyatni ilova qiladi.

To'liq bo'lmagan bojxona yuk deklaratsiyasi qo'llanilgan holda deklaratsiyalashda lozim darajada to'ldirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi avval boshda berilganidagi kabi bojxona organlarining zimmasiga qonunchilikning qaysi talablari va shartlari bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan bo'lsa, o'sha talablar va shartlar, shu jumladan bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi qo'llaniladi.

(269-moddaning uchinchi va to'rtinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

270-modda. Davriy bojxona yuk deklaratsiyasi

Davriy bojxona yuk deklaratsiyasi ishlab chiqarilgan mamlakati, fizik xususiyatlari, sifati, ishlab chiqaruvchisi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasi bo'yicha tovar kodining o'nta belgili darajasi bir xil bo'lgan tovarlar ayni bir shaxs tomonidan bojxona chegarasi orqali muntazam ravishda olib o'tilgan taqdirda qo'llaniladi.

Ayni bir shaxs tomonidan muntazam ravishda olib o'tish deganda, mazkur moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarning oltmish kalendar kun ichida

bir marotabadan ko'p marta bitta yuk jo'natuvchi manzilidan boshqa yuk qabul qiluvchi manziliga bir kontrakt (shartnoma, kelishuv) asosida bir xil sharoitda bojxona chegarasidan olib o'tilishi tushuniladi. Bunday hollarda muayyan vaqt ichida bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar uchun bitta bojxona yuk deklaratsiyasi beriladi. Bu tartib vaqtincha tovarlarni saqlashning eng ko'p muddati yoki bojxona to'lovlarini to'lash muddatlari buzilishiga olib kelishi mumkin emas.

9-mavzu. O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimi tuzilishi

Bojxona tizimi mamlakat iqtisodiy va siyosiy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bojxona ishini takomillashtirish va uning huquqiy bazasini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Shu maqsadda bojxona ishini tashkil etishga tizimli-tarkibiy va funksional o'zgarishlar kiritildi. Bu o'zgarishlar:

- Bojxona ishini samarali tashkil etish,
- Yagona bojxona siyosatini amalga oshirish,
- Bojxona organlarining tezkorligi va samaradorligini oshirish,
- Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan bojxona tizimi nafaqat soliq va bojxona yig'imlarini nazorat qiladi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim funksiyani bajaradi.

II. Bojxona tizimini tashkil etish va uning maqsadlari

Bojxona tizimi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. **Bojxona ishini yaxshilash** – bu jarayon bojxona organlarining ish faoliyatini samarali tashkil etish, nazorat tizimlarini optimallashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirishni o'z ichiga oladi.
2. **Yagona bojxona siyosatini amalga oshirish** – barcha bojxona organlari bir xil qoidalar va standartlarga rioya qilishi, shu orqali bojxona tizimi yagona maqsad yo'nalishida ishlashi.
3. **Bojxona organlarining samaradorligini oshirish** – ish jarayonlarini tezlashtirish, huquqiy va tashkiliy bazani mustahkamlash, shuningdek xodimlar malakasini oshirish orqali amalga oshiriladi.
4. **Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash** – bojxona organlari noqonuniy savdo va kontrabanda oldini olishda muhim vosita hisoblanadi.

III. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ) bojxona ishini boshqaruvchi asosiy organ hisoblanadi. Uning tarkibi quyidagilardan iborat:

1. **Markaziy apparat** – bojxona siyosatini ishlab chiqish, strategik rejalashtirish, huquqiy normalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.
2. **DBQB** – Davlat Bojxona Qo'mitasi Bo'linmalari yuridik shaxs hisoblanadi, ular bank muassasalarida hisob-kitoblarni yuritadi, joriy va boshqa hisobvaraqlarga ega bo'ladi.
3. **IBK (Ichki Bojxona Kengashi)** – ichki nazorat va koordinatsiyani amalga oshiradi.
4. **Muhr tizimi** – DBQ markaziy apparati va bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasvirlangan va nomi yozilgan muhrga ega bo'lib, hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Bojxona tizimining bu tarkibi uning huquqiy mustaqilligi va moliyaviy faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi.

IV. Bojxona organlarining ichki tuzilishi

Ichki tuzilma – bu bojxona organining huquqiy va tashkiliy jihatdan mustaqil, ammo bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'linmalar tizimidir.

1. **Huquqiy jihat** – har bir bo'linma o'z faoliyatini qonunchilik va reglamentlar asosida amalga oshiradi.
2. **Tashkiliy jihat** – bo'linmalar o'zaro bog'liq bo'lib, har biri bojxona vazifalarining ma'lum qismini bajaradi.
3. **Vazifalarni taqsimlash** – barcha bo'linmalar birgalikda bojxona organlariga yuklangan vazifalarni samarali bajarishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ichki tuzilma bojxona organining samarali ishlashi va huquqiy me'yorlarga rioya qilinishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimi:

- Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash,
- Bojxona siyosatini bir xilda amalga oshirish,
- Bojxona organlarining tezkorligi va samaradorligini oshirish kabi asosiy vazifalarni bajaradi.

Tizimning huquqiy va tashkiliy mustahkamligi mamlakat iqtisodiy barqarorligini saqlash va xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi. Shu bois, bojxona tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish har doim davlat uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

10-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi

Reja:

1. Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni mohiyati, ahamiyati va maqsadlari
3. TIFni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvi vositalari
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvida tarif usullar

1. Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishda, jahon amaliyotida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosi – boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga asoslangan tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plamidir.

Boj tarifini ta'rifidan shuni aytish mumkinki, ixtiyoriy mamlakatni boj tarifi – bojxona bojlarini aniq stavkalardan iboratdir.

Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki import shartini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lgan vzosdir.

Bojxona bojlari mohiyatiga ko'ra uchta asosiy vazifani bajaradilar:

1. **Fiskal vazifa** – bu vazifa ham import, ham eksport bojlari uchun tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat budjetini to'ldirish manbalaridan biridir.
2. **Proteksionistik (himoya) vazifa** – bu vazifa faqat import bojlarga tegishlidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi.
3. **Balanslashtiruvchi vazifa** – ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jahon bozoridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarning mamlakat hududidan eksport qilinishini oldini olish. Bu vazifa eksport bojlarga tegishlidir.

Dunyo ho'jaligi amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan bojlardan foydalanish maqsadi, tartibi, ob'ektiga va boshqa belgilariga ko'ra quyidagicha klassifikatsiyalanishi mumkin. Bu bojlarni klassifikatsiyalash ularni qo'llash va iqtisodiy mazmunini aniqlash imkonini beradi.

Bojxona bojlari undirilish tartibiga ko'ra:

1. **Advalorem** – bu boj turi bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlar va transport vositalarini bojxona qiymatidan foizda hisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruhiga mansub bo'lgan har xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Advalorem bojlarni boshqa boj turlaridan farqlantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovarning narxining tebranishidan qat'iy nazar, advalorem boj ichki bozorni himoya qiladi. Faqat davlat budjetiga tushayotgan daromad miqdori o'zgarishi mumkin.

Misol: Agar boj tovarni bahosini 20% tashkil etsa, tovar narxi 200 dollarga teng holda davlat budjeti daromadi 40 dollarni tashkil etadi. Tovar narxi 300 dollargacha oshsa, budjet daromadi 60 dollarni, agar 100 dollarga kamaysa, daromad miqdori 20 dollarga kamayadi. Lekin ikkala holda ham ichki bozorni himoya qilish darajasi 20%ni tashkil etadi, ya'ni tovar narxi 20%ga oshganda ichki bozorda sotiladi.

Advalorem bojning kamchilik tomoni shundaki, bu boj tovarning bojxona qiymatini hisoblashni talab etadi. Tovar qiymati har xil iqtisodiy va ma'muriy omillar ta'sirida o'zgarib turishini hisobga oladigan bo'lsak, advalorem bojni qo'llash baholashning sub'ektivligi bilan bog'liq bo'ladi.

2. **Hoss bojlari** – bu bojni qiymatini bojga tortiladigan tovarning birligidan belgilangan kattalikda hisoblashdir.
3. **Aralash bojlar** – yuqorida keltirilgan ikkala boj turini o'zida mujassamlashtiradi.

Jahon ho'jaligi amaliyotida undirilish ob'ektiga ko'ra belgilanadigan yana bir guruhi – import, eksport va tranzit bojlari hisoblanadi. Bu bojlar barcha davlatlar tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun qo'llaniladi.

Import bojlari import tovarlariga, ularni mamlakat ichki bozorida erkin almashuvga chiqarishda qo'llaniladi. Bu boj jahon bozoridagi barcha davlatlar o'rtasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun qo'llaniladi.

Eksport bojlari eksport tovarlariga, ularni bojxona chegarasidan tashqariga chiqarishda qo'llaniladi. Bu bojlar mamlakatlar tomonidan juda kam hollarda qo'llaniladi. Odatda ularni alohida olingan tovarlarga, ularni jahon bozoridagi erkin narxlar bilan ichki bozordagi narxlar o'rtasidagi katta tafovut holida eksportni qisqartirish va budjetni to'ldirish maqsadida qo'llaniladi.

Tranzit bojlari – shu davlat hududidan tranzit sifatida olib utiladigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Amaliyotda juda kam uchraydi, asosan savdo urushi vositasi sifatida qo'llaniladi.

2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni mohiyati, ahamiyati va maqsadlari.

Dunyo xo'jaligining XX asr oxirlaridagi faoliyatini o'ziga xos xususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yanada rivojlanishi va takomillashishidir.

Har bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo xo'jaligiga integrasiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama uyilgan holda, tashkil etishga qaratgan bo'ladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy sharoitlaridan biri bo'lgan – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

Bu chora-tadbirlar dunyo xo'jaligida ma'lum ustivorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

- bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishilmasdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi. Odatda biror bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan huddi shunday tartibda qabul qilingan chora-tadbirlarni qarama-qarshi holda qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtasida siyosiy ziddiyatlarni paydo bo'lishiga olib keladi.
- ikki tomonlama, ya'ni savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi.
- ko'p tomonlama, ya'ni davlatlar savdo siyosatini kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi. Erkin savdo – davlatning tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asoslanib rivojlanishi. Proteksionistik – tarif va notarif usullarni qo'llash orqali ichki bozorni chet raqobatchilardan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati. Bularning qaysi biri qanday afzallikka ega yoki ega emasligi bir-biridan ustunligi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillik tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin. 50–60 yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun proteksionistik siyosatdan erkin savdo siyosatiga o'tish hos bo'lgan. 70–yillarning boshlarida esa teskari tendensiya, ya'ni erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish ko'zatilgan boshladi.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshiriladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar o'rtasida qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarishda bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlar bilan – rivojlanayotgan davlatlar sanoat tovarlari eksporti sohasida.

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

- selektiv proteksionizm – ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.
- soha proteksionizmi – xalq xo'jaligining ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq xo'jaligi) qaratilgan.
- kollektiv proteksionizm – ma'lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yahshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi? Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqtirib kelgan. Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globalashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqalashtirishga intilish qonuniydir. Galvert universitetida 115 ta davlat bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, epik iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda ichki yalpi mahsulot

hajmini yillik o'sishi 0,7% ni tashkil qilgan bir paytda, ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi. (Albatta, ochiq tashqi iqtisodiy siyosatni olib borishni yaxshi rivojlangan va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayapti). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba'zi bir tadbirlari barcha davlatlarda mavjud.

Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskalatsiyasi o'rinlidir, ya'ni xom ashyo va tayyor mahsulotlarga belgilangan import bojlari o'rtasidagi katta farq. GATTni Urugvay raundidan so'ng rivojlangan davlatlar tomonidan olib chiqiladigan xom ashyoga belgilangan tarif stavkalari, tayyor mahsulotlarga belgilangan stavkalarga nisbatan 3,5 baravar kam va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan stavkalarga nisbatan esa 7,5 baravar kam bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimlarini tezkor shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tamoyillarini ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integrasiyalashuv yo'llarini mustaqil belgilab olish vazifasi qo'yilgandi. Ayni paytda, respublika hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi va zaruriy huquqiy asoslarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga imkon berdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur qonunning 17–moddasiga binoan tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta siyosati orqali tartibga solish;
- soliq siyosati orqali tartibga solish;
- tarif va notarif dastaklar orqali tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensasiya va dempingga qarshi chora-tadbirlarni qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishida davlat monopolisini o'rnatish;
- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatsiyalash;
- texnika, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talab

3. TIF ni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati. Bozor islohotlari Yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy mustahkamlanishi, barqaror rivojlanishi, uning jahon ho'jaligi tizimiga

muvaqqiyatli integratsiyalashuvi ko'p jihatdan davlatning barcha ko'rinishidagi tashqi iqtisodiy siyosatni (TIS) erkinlashtirishga bog'liq.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi optimal darajada proteksionizm va erkin savdo siyosatini qo'llanilishini taqazo etadi.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab quya olmaydi. Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug'iladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida tashqi iqtisodiy aloqalarning (TIA) davlat tomonidan tartibga solinishi ayniqsa muhimdir. Bu esa birinchi navbatda tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat urg'izishni talab etadi.

TIS mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin ushbu tushunchaning mazmunini aniqlashtirib olish zarur.

TIALarni davlat tomonidan tartibga solish – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Bu tashqi iqtisodiy siyosatning eng umumiy ta'rifidir. Ushbu tarifni aniqlashtirish uchun tashqi iqtisodiy siyosat davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlash joizdir.

Birinchiidan, o'tish davri sharoitida tashqi iqtisodiy siyosat yangi iqtisodiy shakllanishining muhim omili, iqtisodiy hayotning bozor munosabatlariga monand ilg'or shakllarini barpo etishning vositasi hisoblanadi va qat'iy markazlashtirilgan rejalashtirilgan iqtisodiyotning nodinamik, kotib qolgan shakllaridan keskin farq qiladi. U iqtisodiy ma'muriy chora-tadbirlar yordamida ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qator asosiy vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan:

- Milliy iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini rag'batlantirish, uning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- Ichki bozorni himoya qilish;
- Tarkibiy qayta o'zgarishlar amalga oshirilishiga yordam berish;
- Mamlakat hududlaridagi resurslardan foydalanish va h.k.

Ikkinchiidan, puxta uylangan va muvozanatli tashqi iqtisodiy siyosat davlat tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi, milliy iqtisodiyotni jahon

bozorlaridan himoya qilishga, uning jahon ho'jaligiga moslashishi uchun faol yordam berishga yo'naltirilgandir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati jahondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar nisbatan tez o'zgarayotganligini hisobga olib, jushkin, harakatchan, moslashuvchan bo'lishi zarur. Ayni vaqtda respublikamiz jahon ho'jaligiga kirayotgan bir sharoitda, gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini rag'batlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish to'g'risida borarkan, buning uchun yetarlicha barqaror bo'lishi talab etiladi.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy siyosat o'z rivojlanishining ilmiy asoslangan konsepsiyasiga tayanganidagina erishish mumkin.

Shunday qilib, tashqi iqtisodiy siyosat – bu davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish orqali mamlakatning ishlab chiqarish omillari xalqaro taqsimotida qatnashuvi samarini oshirishga qaratilgan muayyan harakatlar majmuidir. Uning asosiy ko'rinishlari tashqi savdo siyosati (alohida eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), tashqi sarmoyalar siyosati, valyuta munosabatlarini tartibga solish siyosatidan iborat. Bundan tashqari, alohida olingan davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni geografik jihatdan muvozanlashtirish masalalarini ham TIS hal etadi, bu hol o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'langan.

TIFni erkinlashtirish deganda, eng avvalo TIA qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga solish ma'muriy uslublarining ma'lum qadar qisqarishi, mavjud to'siklarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlaqo muqarrar, ichki iqtisodiy munosabatlar erkinlashuvining mantiqiy natijalaridir. Samarali bozor mexanizmi faqatgina jahon bozor munosabatlari bilan o'zviy aloqada tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Yana bunda eng muhimi turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma'lum darajada o'xshashligidir. TISni erkinlashtirish islohotlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'tish davri iqtisodiyoti masalalari yechimini tezlashtiradi.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvi vositalari

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning xususiyatlari

- XX asr oxirlarida davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlandi va takomillashdi.
- Har bir davlat o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini iqtisodiyotini rivojlantirish va global integratsiyalashuv jarayonlarini hisobga olgan holda tashkil etadi.
- Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli – tashqi savdo (eksport va import).

2. Davlatning roli tashqi savdoda

- Davlatning asosiy vazifasi:
 - Savdo siyosatini amalga oshirish.
 - Tashqi savdoni tartibga solish choralarini ishlab chiqish va qo'llash.
- Savdo siyosati iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, huquqiy va tashkiliy masalalarni o'z ichiga oladi.

- Maqsadlar:
 - Ichki bozordagi ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish.
 - Chet el bozorlariga eksportni oshirish.

3. Tashqi savdoni tartibga solish usullari

- **Tarif usullari** (boj tariflari asosida – iqtisodiy vosita).
- **Notarif usullar** (ma'muriy vosita):
 - Me'yoriy usullar
 - Ko'rinmas proteksionizm usullari

4. Savdo siyosatining shakllari

1. **Bir tomonlama:** Davlat choralarini o'z qarori bilan, sherik davlat bilan kelishmasdan qo'llaydi.
2. **Ikki tomonlama:** Savdo siyosati choralarini ikki davlat o'zaro kelishgan holda amalga oshiradi.
3. **Ko'p tomonlama:** Ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

5. Davlatning xalqaro savdoga aralashuvi

- **Erkin savdo:** Davlatning tashqi savdoga aralashuvi minimal, bozor talabi va taklifiga asoslangan.
- **Proteksionizm:** Ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish, tarif va notarif vositalari qo'llanadi.
- Proteksionizm shakllari:
 - Selektiv proteksionizm – ayrim davlatlar yoki mahsulotlar uchun.
 - Soha proteksionizmi – ma'lum sohani (masalan, qishloq xo'jaligi) himoya qilish.
 - Kollektiv proteksionizm – bir guruh davlatlar tomonidan qo'llaniladi.

6. Savdo siyosatining maqsadi

- Eksportchilarni qo'llab-quvvatlash, mahsulotlarni xalqaro bozorda raqobatbardosh qilish.
- Importni cheklash orqali ichki bozorni himoya qilish.

7. Tashqi savdoni tartibga solishda indikatorlar

- **Boj tarifini qo'llash:** import qilinadigan tovarlarga qo'llanadigan o'rtacha stavka.
- **Notarif cheklovlar:** kvotalar, litsenziyalar, sertifikatlar orqali cheklash.

8. Savdo siyosatining shakli

- Proteksionistik, umurtual yoki erkin (ochiq) savdo.
- Har bir davlat savdo siyosatini belgilashdan oldin, vositalarning samarasi va sherik davlatlarning javob choralarini o'rganadi.

11-mavzu. Bojxona nazorati tizimida ekspertiza

Ushbu yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasi, Bojxona kodeksining 79, 181, 182-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 374-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, shuningdek, bojxona qonunchiligi buzilishi holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish yoki yuritilish vakolati qonunbuzarliklar bo‘yicha surishtiruv ishlarini o‘tkazish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan bojxona laboratoriyalarida ekspertiza tayinlash, o‘tkazish, xulosa berish qoidalarini belgilab beradi.

Bojxona ekspertizasida qo‘llanilgan terminlar va qisqartmalar:

- **BKB** – bojxona qoidalarini buzilishi
- **TIF TN** – Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi
- **Laboratoriya** – Markaziy bojxona laboratoriyasi; Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasi, hududiy bojxona laboratoriyalari
- **Materiallar** – hujjatlar, ekspertiza uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlar, namuna va sinamalar

Hududiy bojxona boshqarmalaridan tovarlar va ashyoviy dalillarni ekspertizadan o‘tkazish uchun namuna (sinama)lar olish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Markaziy bojxona laboratoriyasi, hududiy bojxona laboratoriyalari va Oliy harbiy bojxona instituti Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida (bundan keyin matn davomida – Laboratoriyaga yuborish), O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 29 avgustda 1269-raqam bilan ro‘yxatga olingan «O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o‘tilayotgan tovarlarning namuna va sinamalarini bojxona organlari tizimida tasarruf qilish tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratiga olinishi lozim bo‘lgan barcha tovarlar va tovar hujjatlari hamda bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlar bojxona ekspertizasi ob’ektlari bo‘lishi mumkin.

Bojxona ekspertizasi quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- Tovarning TIF TN bo‘yicha kod raqami to‘g‘ri tasniflanganligini nazorat qilish
- Tovarni qayta ishlangandan so‘ng uni (tasdiqlangan uslub asosida) identifikatsiya qilish
- Tovarning navi, turi, markasi va asosiy sifat ko‘rsatkichlarini tegishli organlar tomonidan berilgan rasmiy hujjatlar asosida nazorat qilish
- Tovarni ishlab chiqarish texnologiyasini o‘rganish
- Tovarning taqdim etilgan hujjatlar asosida kimyoviy tarkibi va zaharli moddalarga tegishli ekanligini o‘rganish

Laboratoriyada bojxona ekspertizasining turlari:

- Tovarlarning TIF TN bo‘yicha tasniflanishi
- Tovarshunoslik

- Materialshunoslik
- Identifikatsion (shartnoma tuzishdan oldin tasdiqlangan va shartnomada ko'rsatilgan uslub asosida)
- Kimyoviy va boshqa

Bojxona ekspertizlari:

- Tovarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida Laboratoriyada
- BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha yuzaga kelgan bahs-munozarali hollarda, O'zbekiston Respublikasi bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qarorlariga asosan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining bojxona yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida hududiy bojxona laboratoriyasi eksperti bergan xulosaga shubha tug'ilganda, murakkab hamda qayta ekspertizalar Markaziy bojxona laboratoriyasida va Tovarlar kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida shahodatlangan sohalari bo'yicha Laboratoriyada o'tkaziladi.

Ekspertiza jarayonida ekspertlar bilan bir qatorda, soha mutaxassisarlari ham qatnashishlari mumkin. Ekspertiza Laboratoriya joylashgan manzilda o'tkaziladi. Zarurat tug'ilganda ekspertiza-tadqiqot ishlari boshqa joy (ilmiy-tadqiqot muassasalari, korxonalar va boshqa tashkilotlar)larda ham o'tkazilishi mumkin.

Bojxona ekspertizasini tayinlash:

Bojxona ekspertizasi tovarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida bojxona organi boshlig'ining murojaat xati bilan (tovarlar ro'yxati 1-ildovada keltirilgan); O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish va jinoyat ish bo'yicha o'tkazilayotgan dastlabki surishtiruv jarayonida mansabdor shaxs tomonidan qabul qilingan qarori asosida tayinlanadi.

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritayotgan mansabdor shaxsning ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarori Davlat bojxona qo'mitasi raisi o'rinbosari yoki hududiy bojxona boshqarma boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi. Qo'shimcha va qayta ekspertizalar yangi ekspertiza sifatida umumiy qoidalar asosida tayinlanadi.

Ekspertizani tayinlash to'g'risidagi murojaat xatida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- Ekspertizani tayinlagan bojxona organining nomi
- Ekspertizani tayinlangan sana
- Ekspertizani amalga oshiradigan Laboratoriya nomi
- Ekspertlar oldiga qo'yilgan savollar
- Ekspertizaga taqdim qilingan hujjatlar (raqami, berilgan sanasi, varaklar)
- Ekspertizani tayinlagan bojxona organining nomi, manzili, qaror qabul qilingan sana, ekspertizani o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarga tegishli BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish to'g'risidagi yoki jinoyat ishning tartib raqami
- Ekspertizani tayinlash shaxsning mansabi, ismi-sharifi
- Ekspertizani amalga oshiradigan Laboratoriyaning nomi
- Ekspertiza o'tkazilishiga sabab bo'lgan asoslar

- Ekspertlar oldiga qo'yilgan savollar
- Ekspertizaga taqdim qilingan hujjatlar va ashyolar ro'yxati (materiallar, namuna (sinama)lar, namuna (sinasa) olinganlik to'g'risidagi dalolatnoma, bojxona yuk deklaratsiyasi, invoys, tovar-transport hujjatlari konosament, sertifikatlar, davlat standartlari, texnik shartlar, sifat sertifikatlari (mahsulot pasporti), texnologik reglament, chizmalar, fotosuratlar, kiyosiy tahlil uchun namuna (sinama)lar va ularga tegishli hujjatlar, ekspertiza ob'ektiga tegishli boshqa ma'lumotlar va ekspertiza o'tkazishga aloqador boshqa hujjatlar hamda ashyolar).

Qo'shimcha va qayta ekspertizalar tayinlanganda dastlabki ekspert xulosasi va ushbu xulosa berilishiga asos bo'lgan barcha, shuningdek, dastlabki ekspert xulosasi berilgandan so'ng kelib tushgan qo'shimcha materiallar.

15-mavzu. Bojxona rejimlari

Reja:

- 1. Bojxona rejimlari**
- 2. Reimport tushunchasi**

Bojxona rejimi — O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui.

Bojxona rejimlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga erkin muomalaga chiqarish, eksport, reimport, reeksport rejimlarida tovarlar shaxsga ixtiyoriga to'liq o'tadi.

Ikkinchi guruhda — bojxona organi tomonidan o'rnatilgan shartlarga rioya etilgan holda, tovarlardan ma'lum maqsadda foydalanish ko'zda tutilgan — bojxona ombori, vaqtincha saqlash, erkin bojxona va ombor zonasi, vaqtincha olib kirish va olib chiqish, boj olinmaydigan savdo do'koni, tranzit, qayta ishlash, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish rejimlari kiradi.

Ikkinchi guruhdagi rejimlarning ko'pchiligi savdo-sotiqni, ishlab chiqarishni, xalqaro transportni rivojlantirishga va turli iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan.

Erkin muomalaga chiqarish shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kelingan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatisiz bu yerda doimiy qoladi. Bu rejim import bojlari, soliqlar va boshqa boj to'lovlarini to'lashni, iqtisodiy siyosat choralarga hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar egalik qiluvchi shaxslar ixtiyoriga berilib, bojxona nazoratidan olinadi va davlat qonunlari belgilangan tartibda boshqa rejimga o'tkazish mumkin bo'ladi. Erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar asosan xorijiy davlatlardan savdo-sotiq shaklidagi kontraktlar asosida kelib tushadi.

Bu rejim o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega: ayrim tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyatida xayriya va texnik yordam sifatida tovarlarni mamlakat shaxslari qabul qiladigan bo'lsa, bojxona organi tomonidan bu tovarlar erkin muomalaga chiqarish bojlardan va soliqlardan ozod qilingan holda rasmiylashtiriladi.

Agar mamlakat shaxslari xorijdan tuhfa sifatida tovar yoki transport vositalarini olsalar, erkin muomalaga chiqarish bojxona to'lovlari to'liq to'langan holda amalga oshiriladi. Yana bir xususiyat shundaki, erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar respublika tovari nomini oladi.

Shuning uchun bu rejimdan boshqa rejimga o'tkazilganda bu tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralarga va bojxona to'lovlari to'lash hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etiladi.

Reimport — shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O'zbekiston tovarlari import bojlari va soliqlarini to'lamasdan, shuningdek, ularga nisbatan iqtisodiy siyosat chorasi qo'llanmagan holda belgilangan muddatlarda qayta olib kiriladi.

Olib chiqilgan vaqtdan boshlab 10 yil ichida bojxona hududiga qaytarib olib kelingan, tabiiy eskirish yoki normal tashish va saqlash sharoitlaridan kamayish oqibatidagi o'zgarishlar, hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarni istisno etganda, olib chiqilgan paytda qanday bo'lsa, shunday holda turgan tovarlar reimport rejimiga joylashtiriladi.

Tovarlarni eksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan eksport boji va soliqlari summasi, bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlab uch yil ichida reimport rejimida qaytarib olib kirilgan taqdirda, bojxona organining taqdimnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi.

Tovarlar reimport qilinganda tovarlarni olib o'tayotgan shaxs tovarlarni olib chiqish chog'ida to'lov tarzida yoki boshqa imtiyozlar tufayli olgan summalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytaradi.

Reimport shartlari quyidagicha:

1. Tovarlarni olib chiquvchi va olib kiruvchi bitta shaxs bo'lishi lozim;
2. Bojxona organiga eksport to'lovlari to'langan va rasmiylashtirilgan hujjatlar hamda to'lovlarning bojxona organi hisobiga tushganligi haqida ma'lumot taqdim etilishi kerak;
3. To'lovlarni qaytarish to'g'risida ariza.

Tovarlarni reimport rejimida mamlakatdan qaysi shaxs olib chiqqaniga qaramasdan har qanday shaxs olib kirishi mumkin.

Reimport rejimiga xorijiy tovarlarni va respublika tovarlarini vaqtincha olib chiqish, tranzit, bojxona territoriyasidan tashqarida qayta ishlash rejimidagi tovarlarni kiritish mumkin emas.

19-mavzu. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik

Reja:

1. Jinoyatning umumiy ob'ekti
2. Jinoyatni sodir etish vositalari

Jinoyat ob'ekti – bu jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning quyidagi ko'rinishdagi ob'ektlari mavjud:

4. **Jinoyatning umumiy ob'ekti** – jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisiga aytiladi. Masalan: shaxs va uning huquq hamda erkinliklari; jamiyat va davlat manfaatlari; mulk; tabiiy muhit; tinchlik; insoniyat xavfsizligi. Umumiy ob'ekti jinoyat huquqining ijtimoiy-siyosiy mazmunini, jinoyat tajovuzkorligining ijtimoiy xavflilik hususiyatini belgilab beradi. Umumiy ob'ekti jinoyat va boshqa huquqbuzarliklar o'rtasidagi tafovutni belgilash imkonini beradi.
5. **Turdo'sh ob'ekti** – jinoyat qonuni jinoyatlarning ma'lum ko'rinishlaridan muhofaza etadigan, mohiyatiga ko'ra, bir toifadagi ijtimoiy munosabatlar guruhidan iborat. Ayni u yoki bu guruhga oid ijtimoiy munosabatlarning muhimligi jinoyat kodeksining maxsus qismida jinoyatlarning ayrim guruhini izchil joylashishini aniqlab beradi.
6. **Bevosita ob'ekti** – ma'lum jinoyat turidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabat bo'lib, ayni uning o'zi jinoyatga baho berishda belgilab olinishi lozim.

Ko'p ob'ektili jinoyatlarda bevosita ob'ekti doirasida asosiy, qo'shimcha va fakultativ ob'ektlar ajratiladi. Mazkur tasnif tajovuzning ma'lum turidan himoya qilish uchun quyilgan ijtimoiy munosabatlarning qiyosiy ahamiyatiga asoslanadi.

- **Asosiy bevosita ob'ekti** – bu qonun chiqaruvchining ma'lum huquqiy normani tuzishda, eng avvalo, jinoyat qonuni muhofaza qilishga intilishiga qo'yayotgan ijtimoiy munosabatdir. Ayni asosiy bevosita ob'ekti jinoyatning ijtimoiy xavflilik hususiyatini, uning maxsus qism tizimidagi o'rnini aniqlaydi va turdo'sh ob'ekti tarkibiy qismi hisoblanadi.
- **Qo'shimcha bevosita ob'ekti** – asosiy ob'ektga tajovuz qilinganda muqarrar zarar etkazadigan ijtimoiy munosabatdir. Mazkur ob'ekt jinoyat tarkibining muqarrar alomati bo'lib, u qilmishga baho berishga ta'sir etadi.
- **Fakultativ bevosita ob'ekti** – ma'lum jinoyat tarkibining zaruriy alomati bo'lmagan, lekin mavjud jinoyat sodir etilishida xavf ostida qoladigan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni – shaxsning ongli hatti-harakati va irodaviy hulq-atvori tushuniladi. Ob'ektiv tomon quyidagi belgilarni o'z ichiga oladi:

- Qilmish (harakat yoki harakatsizlik);
- Jinoyiy oqibat;
- Qilmish va jinoyiy oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;
- Jinoyatning sodir etilish vaqti;
- Jinoyatning sodir etilish joyi;

- Jinoyatning sodir etilish vaziyati;
- Jinoyatning sodir etilish usuli;
- Jinoyatning sodir etilish quroli;
- Jinoyatning sodir etilish vositasi.

Harakat – shaxsning ijtimoiy xavfli, irodaviy faol hulq-atvori.

Harakatsizlik – ijtimoiy xavfli, faol bo‘lmagan shaxsning me‘yoriy hujjatlarda bajarishi ko‘rsatilgan ma‘lum harakatlarni bajarmaganligi.

Jinoyiy oqibat – jinoyiy-huquqiy muhofaza etiladigan, ijtimoiy munosabat ob‘ektlariga ijtimoiy xavfli qilmish natijasida yetkazilgan zarar. Qilmish harakati va harakatsizlik bilan jinoyat natijasida yetkazilgan jinoyiy oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish – jinoyatning sub‘ektiv aloqasi.

Jinoyatning sodir etilish vaqti – yil, oy, hafta, kun va tunning ma‘lum qismiga, u yoki bu voqea sodir etilishi natijasida maxsus sharoitlarni vujudga keltiradigan davr.

A) soliq hisoboti davridan keyingi yilning 1 martiga qadar

B) yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda

*D) soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevraliga qadar

E) yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha

110. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq aylanmadan soliq to'lovchilar tomonidan qachon to'lanadi?

A) soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar

*B) yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 10-kunidan kechiktirmay

D) yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha

E) hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

111. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq aylanmadan soliq to'lovchilar hisoblanmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan qachon to'lanadi?

A) yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha

B) soliq davri uchun soliqni to'lash teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga

qadar

D) hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

*E) yillik soliq summasining o'n ikkidandan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay

112. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari

*A) mulkida soliq solish ob'yekti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar

B) egalik huquqiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar

D) ko'chmas mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

E) mulkida soliq solish ob'yekti deb tan olinadigan mol-mulki bo'lgan yuridik shaxslar

113. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i ob'yekti

A) chorva hayvonlari, avtomashina, texnikalar

B) qurilish materiallari, asbob uskunalar, texnikalar

*D) uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'yektlar

E) foydalanishdagi barcha mol-mulklar

114. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bazasi

A) soliq solinmaydigan qismi chegirilgandan keyin qolgan mol-mulk

B) soliq solish ob'yektlarining normativ (me'yoriy) qiymati

D) ko'chmas mulk o'rtacha yillik qoldiq qiymati

*E) soliq solish ob'yektlarining kadastr qiymati

115. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi necha so'mdan kam bo'lishi mumkin emas?

A) to'qson million so'mdan

*B) qirq ikki million so'mdan

D) oltmish million so'mdan

E) o'ttiz million so'mdan

116. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'yekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lgan taqdirda soliq solinadigan baza qanday hisoblab chiqiladi?

*A) har bir ob'yekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi

B) barcha ob'yekt bo'yicha bitta soliq bazasi qo'llaniladi

D) har bir ob'yektning joylashgan joyi bo'yicha hisoblab chiqiladi

E) har bir ob'yektning turi bo'yicha umumiy tarzda hisoblab chiqiladi

117. Qaysi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi?

A) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning, o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining

B) kam ta'minlangan oilalarning, pensionerlarning

D) notijorat tashkilotlarning, byudjet tashkilotlarining

*E) urush nogironlari va qatnashchilarining, O'zbekiston Qahramonining, Sovet Ittifoqi Qahramonining

118. Qaysi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi?

A) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanadigan ularga tenglashtirilgan shaxslar

B) O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning

*D) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning, o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining, pensionerlarning

E) notijorat tashkilotlarning, byudjet tashkilotlarining

119. Jismoniy shaxslardan olinadagan mol-mulk solig'i bo'yicha tegishli imtiyozlarda soliq solinmaydigan maydon o'lchami necha kvadrat metr doirasida belgilangan?

*A) oltmish kvadrat metr

B) sakson kvadrat metr

D) ellik kvadrat metr

E) yetmish kvadrat metr

120. Jismoniy shaxs mol-mulk solig'i bo'yicha bir nechta imtiyozga ega bo'lsa

*A) mulkdorning tanloviga ko'ra faqat bitta yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk ob'yektiga tatbiq etiladi

B) mulkdorning barcha yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk ob'yektiga tatbiq etiladi

D) mulkdorning har bir oila a'zosiga teng ulushda tatbiq etiladi

E) mulkdorning tanloviga ko'ra faqat ikkita yashash uchun mo'ljallangan ko'chmas mulk ob'yektiga tatbiq etiladi

121. Jismoniy shaxslarning uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno), boshqa imoratlar, binolar va inshootlari uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi

A) 0,25 foiz

*B) 0,2 foiz

D) 0,3 foiz

E) 2 foiz

122. Jismoniy shaxslarning shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lgan uy-joylar va kvartiralar uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi

*A) 0,25 foiz

B) 0,35 foiz

D) 0,3 foiz

E) 0,2 foiz

123. Jismoniy shaxslarning shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 500 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi

A) 2 foiz

B) 0,2 foiz

*D) 0,35 foiz

E) 0,25 foiz

124. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati uchun yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'yektlari uchun belgilangan mol-

mulk solig'i stavkasi

A) 0,35 foiz

B) 0,2 foiz

*D) 2 foiz

E) 0,25 foiz

125. Jismoniy shaxslarning normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan ob'yektlariga nisbatan mol-mulk solig'i stavkasi

A) 3 foiz

*B) 4 foiz

D) 0,35 foiz

E) 2 foiz

126. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning soliq davri

*A) kalendar yil

B) yil choragi

D) bir oy

E) olti oy

127. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organi tomonidan soliq to'lovchilarga qaysi sanada topshiriladi?

A) har yili 1 maydan kechiktirmay

B) har yili 1 yanvardan kechiktirmay

*D) har yili 1 martdan kechiktirmay

E) har yili 1 apreldan kechiktirmay

128. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i soliq davri uchun qaysi muddatda to'lanadi?

*A) teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar

B) hisobot yilining 15 oktyabriga qadar

D) teng ulushlarda 15 iyunga va 15 oktyabrga qadar

E) soliq davrining har choragi 15 kuniga qadar

129. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari

*A) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar

B) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

D) qishloq xo'jalik korxonalari, fermer xo'jaliklar

E) notijorat tashkilotlari, davlat organlari, byudjet tashkilotlari

130. Yuridik shaxslar tomonidan ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda soliq to'lovchi kim hisoblanadi?

A) ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi teng ulushlarda

B) ijaraga oluvchi

*D) ijaraga beruvchi

E) ko'chmas mulkni baholovchi

131. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'yekti

A) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar

- B) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida jismoniy shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari
- D) aholi punktlarining, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi yerlari
- *E) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari
132. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi
- *A) soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni
- B) yer uchastkasining kadastr qiymati
- D) soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining umumiy maydoni
- E) soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati
133. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi
- A) soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni
- *B) soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymati
- D) soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining umumiy maydoni
- E) yer uchastkasining kadastr qiymati
134. Meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavotchilik mahsulotlari egallagan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi
- A) soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, yer uchastkasining umumiy maydoni
- B) yer uchastkalarining normativ qiymati
- *D) yer uchastkasining umumiy maydoni
- E) yer uchastkasining kadastr qiymati
135. Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanadigan energiya manbalari (nominal quvvati 0,1 MVt va ko'proq) uskunalari egallagan yer uchastkalari bo'yicha ular ishga tushirilgan paytdan e'tiboran qancha muddatga soliqdan ozod etiladi?
- A) 20 yil muddatga
- B) besh yil muddatga
- D) o'n besh yil muddatga
- *E) o'n yil muddatga
136. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar bo'yicha soliq stavkalari qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan necha foiz qilib belgilangan?
- A) 2,95 foiz
- B) 6 foiz
- *D) 0,95 foiz

E) 2 foiz

137. Yuridik shaxslardan olinadagan yer solig'ining soliq davri

*A) kalendar yil

B) yil choragi

D) bir oy

E) olti oy

138. Yuridik shaxslardan olinadagan yer solig'ining hisoboti qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha qaysi muddatga taqdim etiladi?

A) joriy soliq davrining 1 mayiga qadar

*B) joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar

D) joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar

E) joriy soliq davrining 10 dekabriga qadar

139. Yuridik shaxslardan olinadagan yer solig'ining hisoboti qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha qaysi muddatga taqdim etiladi?

*A) joriy soliq davrining 1 mayiga qadar

B) joriy soliq davrining 10 yanvariga qadar

D) joriy soliq davrining 1 avgustiga qadar

E) joriy soliq davrining 10 dekabriga qadar

140. Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinzorlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlari bo'yicha aniqlashtirilgan soliq hisobotini qaysi muddatga qadar taqdim etishi kerak?

A) joriy yilning 1 iyuniga qadar

B) joriy yilning 1 sentyabriga qadar

D) joriy yilning 1 mayiga qadar

*E) joriy yilning 1 dekabriga qadar

141. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun aylanmadan soliq to'lovchilar uchun yer solig'ini soliq organiga to'lash qachon amalga oshiriladi?

A) yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha

B) kalendar yil oxirida

*D) yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha

E) hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

142. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun yer solig'ini soliq organiga to'lash qachon amalga oshiriladi?

*A) yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha

B) kalendar yil oxirida

D) yillik soliq summasining to'rtidan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha

E) hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

143. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmagan soliq to'lovchilar uchun yer solig'ini to'lash qachon amalga oshiriladi?

A) yillik soliq summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida, har oyning 10-kunigacha

B) hisobot yilining 1 iyuliga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

D) yillik soliq summasining to'rt dan bir qismi miqdorida, har chorak birinchi oyining 10-kunigacha

*E) hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1 dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi

144. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilari

*A) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklari

B) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, fermer xo'jaliklari

D) mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan notijorat tashkilotlari

E) qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari

145. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'yekti

*A) dehqon xo'jaligini yuritish, yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

B) qishloq xo'jaligini yuritish uchun mo'ljallangan va mo'ljallanmagan yer uchastkalari

D) mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari

E) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar

146. Qaysi yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'yekti bo'lmaydi?

*A) ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari

B) tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari

D) dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

E) ko'p kvartirali uylarda joylashgan yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'yektlari egallagan yer uchastkalari

147. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bazasi

*A) davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining maydoni

B) davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari bo'yicha yer uchastkalarining normativ qiymati

D) davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari

bo'yicha yer uchastkalarining inventarizatsiya qiymati

E) davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning ma'lumotlari

bo'yicha yer uchastkalarining kadastr qiymati

148. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod qilinadi?

*A) urush nogironlari va qatnashchilari, O'zbekiston Qahramoni, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz pensionerlar

B) notijorat tashkilotlarning, byudjet tashkilotlari

D) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, nogironlarning jamoat birlashmalari

E) mudofaa, ichki ishlar organlari harbiy xizmatchilari

149. Jismoniy shaxs yer solig'i bo'yicha bir nechta imtiyozga ega bo'lsa

*A) soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat bitta yer uchastkasiga beriladi

B) soliq to'lovchining barcha yer uchastkasiga taalluqli bo'ladi

D) soliq to'lovchining har bir oila a'zosiga teng ulushda taalluqli bo'ladi

E) soliq to'lovchining tanlovi bo'yicha faqat ikkita yer uchastkasiga beriladi

150. Samarqand shahri uchun yakka tartibda uy-joy qurishga beriladigan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining stavkasi 1 kv.m uchun necha so'm qilib belgilangan?

*A) 258,8 so'm

B) 153,6 so'm

D) 133,4 so'm

E) 213 so'm

151. Yakka tartibda uy-joy qurish va turar joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalarining tomorqa qismiga qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish yoki uni obodonlashtirish amalga oshirilmagan taqdirda soliq necha baravar miqdorda to'lanadi?

*A) uch baravar miqdorda

B) to'rt baravar miqdorda

D) ikki baravar miqdorda

E) bir baravar miqdorda

152. Jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkalaridan hujjatlarsiz foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining necha baravari miqdorida belgilanadi?

uch baravari miqdorida

*A) uch baravar miqdorda

B) ikki baravar miqdorda

D) to'rt baravar miqdorda

E) besh baravar miqdorda

153. Jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkalaridan yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanilganda, soliq stavkasi belgilangan soliq stavkalarining necha baravari miqdorida belgilanadi?

*A) uch baravar miqdorda

B) ikki baravar miqdorda

D) to'rt baravar miqdorda

E) besh baravar miqdorda

154. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq davri

*A) kalendar yil

B) olti oy

D) bir oy

E) yil choragi

155. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq organi tomonidan soliq to'lovchilarga qaysi sanada topshiriladi?

*A) har yili 1 martdan kechiktirmay

B) har yili 1 yanvardan kechiktirmay

D) har yili 1 maydan kechiktirmay

E) har yili 1 apreldan kechiktirmay

156. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i soliq davri uchun qaysi muddatda to'lanadi?

*A) teng ulushlarda 15 aprelga va 15 oktyabrga qadar

B) hisobot yilining 15 oktyabriga qadar

D) teng ulushlarda 15 iyunga va 15 oktyabrga qadar

E) soliq davrining har choragi 15 kuniga qadar

157. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilari

*A) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar

B) O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar

D) O'zbekiston Respublikasida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan yuridik shaxslar

E) byudjet tashkilotlari, notijorat tashkilotlari

158. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ob'yekti nima?

A) soliq to'lovchining mehnat haqi

B) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i chegirilganidan keyin jismoniy shaxs ixtiyorida qoladigan daromad

*D) soliq to'lovchining jami daromadi

E) norezidentlarning O'zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari

159. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish bazasi nima?

A) rezident va norezidentlar uchun soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari

B) rezident va norezidentlarning jami daromadi

D) rezident va norezidentlar uchun soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari

*E) rezidentlar uchun soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari, norezidentlar uchun soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari

160. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

A) yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, sof foyda

B) kompensatsiya to'lovlari, rag'batlantirish xususiyatiga ega daromadlari

*D) mehnatga haq to'lash tarzidagi, mulkiy, moddiy naf tarzidagi va boshqa daromadlar

E) jami daromaddan soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chiqarilgandan keyin qolgan daromadlar

161.Jami daromadga kiritilmaydigan daromadlar

A) kompensatsiya to'lovlari, foizlar, dividendlar, ijaraga berishdan olingan daromadlar

*B) olingan alimentlar, davlat pensiyalari, stipendiyalar, donorlik uchun pul mukofotlari

D) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

E) mehnatga haq to'lash tarzidagi, mulkiy, moddiy naf tarzidagi va boshqa daromadlar

162.Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

*A) mehnat haqi, kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar

B) pensiya, stipendiya, aliment, moddiy yordam pullari, donorlik uchun pul mukofotlari

D) foizlar, dividendlar, ijaraga berishdan olingan daromadlar

E) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

163.Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar tarkibiga qaysi to'lovlar kiradi?

A) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov, ijodiy ta'tillar uchun to'lov, yillik asosiy ta'til uchun to'lov, jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov

B) og'ir mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati, ko'p smenali rejimda ishlaganlik uchun ustamalar

*D) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti, yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga qo'shimcha haqlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov

E) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

164.Kompensatsiya to'lovlari tarkibiga qaysi to'lovlar kiradi?

A) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti, yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga qo'shimcha haqlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov

B) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

D) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov, ijodiy ta'tillar uchun to'lov, yillik asosiy ta'til uchun to'lov, jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov

*E) og'ir mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati, ko'p smenali rejimda ishlaganlik uchun ustamalar

165.Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga nimalar kiradi?

A) og'ir mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati, ko'p smenali rejimda ishlaganlik uchun ustamalar

*B) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to'lov, ijodiy ta'tillar uchun to'lov, yillik asosiy ta'til uchun to'lov, jamoat vazifalarini bajarganlik uchun

mehnatga to'lov

D) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

E) ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti, yillik ish yakunlari bo'yicha pul mukofoti, ta'tilga qo'shimcha haqlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov

165. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

*A) foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, royalti

B) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

D) pensiya, stipendiya, aliment, moddiy yordam pullari, donorlik uchun pul mukofotlari

E) kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar

166. Jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

A) kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar

B) foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar, royalti

*D) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

E) pensiya, stipendiya, aliment, moddiy yordam pullari, donorlik uchun pul mukofotlari

167. Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiradi?

*A) yutuqlar, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari, pensiya, stipendiya, aliment, moddiy yordam pullari, donorlik uchun pul mukofotlari

B) foizlar, dividendlar, ijaraga berishdan olingan daromadlar

D) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

E) kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar

168. Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga qaysi daromadlar kiradi?

A) pensiya, stipendiya, aliment, moddiy yordam pullari, donorlik uchun pul mukofotlari

B) sovg'alar, hadyalar, transport vositalarida yurish uchun beriladigan imtiyoz summolari

D) foizlar, dividendlar, ijaraga berishdan olingan daromadlar

*E) moddiy yordam summolari, vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, uy xo'jaligida hayvonlarni tirik holda sotishdan olinadigan daromadlar

169. Qaysi jismoniy shaxslar daromadiga soliq solinmaydi?

A) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar,

mudofaa, ichki ishlar xodimi

*B) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari

D) O'zbekiston Qahramoni, Mehnat Qahramoni, urush qatnashchilari, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar

E) O'zbekiston Respublikasining norezidentlari

170. Qaysi jismoniy shaxslar daromadiga soliq solishdan qisman ozod qilingan?

A) xalqaro nohukumat tashkilotlarining mansabdor shaxslari

B) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar ni egallagan shaxslar

*D) O'zbekiston Qahramoni, Mehnat Qahramoni, urush qatnashchilari, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar

E) chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari

171. O'zbekiston Respublikasi hududida 2020 yil 1 fevralidan belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori

A) 634880 so'm

B) 223 000 so'm

*D) 679 330 so'm

E) 238 610 so'm

172. O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdori

A) 238 610 so'm

*B) 223 000 so'm

D) 679 330 so'm

E) 634880 so'm

173. O'zbekiston Respublikasida 2020 yil 1 fevraldan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalarga beriladigan moddiy yordam miqdori necha barobarga oshirildi?

*A) 1,07 barobarga

B) 1,6 barobarga

D) 1,06 barobarga

E) 1,7 barobarga

174. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 16 foiz

B) 10 foiz

D) 14 foiz

*E) 12 foiz

175. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga necha foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi?

A) 10 foizlik

B) 12 foizlik

*D) 5 foizlik

E) 6 foizlik

176. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga necha foizlik soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi?

*A) 10 foizlik

B) 12 foizlik

D) 5 foizlik

E) 6 foizlik

177. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq bo'yicha soliq agentlari uchun hisobot davri

A) har oy 10 kuni

B) yil choragi

*D) bir oy

E) har oy 15 sanasi

178. Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq davlat byudjetiga qaysi muddatlarda to'lanadi?

A) yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda

B) yilda bir marta hisobot davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmasdan

D) har oyning 25 sanasidan kechiktirmay

*E) to'lov manbaida hisoblab chiqarilgan soliq summasi soliq to'lovchiga daromadlarni to'lash bilan bir vaqtda, lekin soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

179. Daromadlar natura shaklida amalga oshirilganda soliq byudjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?

A) soliq natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin o'n besh kun ichida to'lanadi

*B) soliq natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida

D) soliq natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan chorak tugaganidan keyin besh kun ichida

E) soliq natura tarzidagi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin o'n kun ichida to'lanadi

180. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilari

A) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari

B) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizasiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

D) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar

*E) A va C to'g'ri

181. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solish ob'yekti

A) jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq

*B) jami daromad

D) realizatsiya qiymati

E) soliq solinadigan oborot

182. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun aylanmadan olinadigan soliq bazasi

A) tadbirkorlik faoliyati doirasida realizatsiya qilingan tovarlar qiymati

B) tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq

*D) tadbirkorlik faoliyati doirasida olingan jami daromadi

E) tadbirkorlik faoliyati doirasidan tashqari olingan daromadlari

183. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A) 8 foiz

B) 6 foiz

D) 5 foiz

*E) 4 foiz

184. Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A) 25 foiz

B) 4 foiz

*D) 5 foiz

E) 8 foiz

185. Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun lisenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

*A) 5 foiz

B) 13 foiz

D) 6 foiz

E) 8 foiz

186. Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A) 5 foiz

B) 4 foiz

D) 6 foiz

*E) 8 foiz

187. Umumiy ovqatlanish korxonalari (aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 10 foiz

*B) 8 foiz

D) 6 foiz

E) 4 foiz

188. Umumiy ovqatlanish korxonalari (borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

A) 6 foiz

B) 5 foiz

*D) 4 foiz

E) 3 foiz

189. Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar (aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 3 foiz

*B) 4 foiz

D) 5 foiz

E) 6 foiz

200. Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar (borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 4 foiz

*B) 1 foiz

D) 2 foiz

E) 5 foiz

201. Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

*A) 4 foiz

B) 6 foiz

D) 2 foiz

E) 5 foiz

202. Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari (aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 4 foiz

B) 5 foiz

D) 2 foiz

*E) 3 foiz

203. Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari (borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda) uchun aylanmadan olinadigan soliq stavkasi necha foiz?

A) 3 foiz

B) 4 foiz

*D) 1 foiz

E) 2 foiz

204. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq davri

*A) kalendar yil

B) yil choragi

D) bir oy

E) olti oy

205. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisobot davri

A) kalendar yil

*B) yil choragi

D) bir oy

E) olti oy

206. Aylanmadan olinadigan soliqning hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq

hisoboti qaysi muddatga soliq organiga taqdim etiladi?

- A) hisobot davridan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay
- B) soliq davridan keyingi davrning beshinchi fevralidan kechiktirmay
- *D) hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay
- E) soliq davridan keyingi davrning o'n beshinchi fevralidan kechiktirmay

207. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq davri yakunlari bo'yicha soliq hisoboti qaysi muddatga soliq organiga taqdim etiladi?

- A) hisobot davridan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay
 - B) soliq davridan keyingi davrning beshinchi fevralidan kechiktirmay
 - D) hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay
 - *E) soliq davridan keyingi davrning o'n beshinchi fevralidan kechiktirmay
208. O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy soliq qachondan joriy etildi?

- *A) 2020 yil 1 yanvardan boshlab
- B) 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab
- D) 2020 yil 1 martdan boshlab
- E) 2019 yil 1 sentyabrdan boshlab

209. Ijtimoiy soliqni to'lovchilari

- A) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari
- B) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizasiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar
- D) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizasiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar
- *E) O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonalari va filiallari

210. Ijtimoiy soliq bo'yicha soliq solish ob'yekti

- A) xodimlarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari
- B) byudjet tashkilotlari xodimlarining jami daromadi
- *D) ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari
- E) ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir daromadlari

211. Ijtimoiy soliqning soliq solish bazasi

- A) realizatsiya qilingan tovarlar qiymati
- B) jami daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq
- *D) to'lanadigan xarajatlar summasi
- E) tadbirkorlik faoliyati doirasidan tashqari olingan daromadlari

212. Soliq to'lovchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

- A) 7 foiz
- *B) 12 foiz
- D) 4,7 foiz
- E) 25 foiz

213. Byudjet tashkilotlari uchun ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

*A) 25 foiz

B) 7 foiz

D) 12 foiz

E) 4,7 foiz

214. «SOS – O‘zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari uchun ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

A) 25 foiz

B) 4,7 foiz

D) 12 foiz

*E) 7 foiz

215. Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to‘lovchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasi necha foiz?

A) 7 foiz

*B) 4,7 foiz

D) 12 foiz

E) 25 foiz

216. Ijtimoiy soliq bo‘yicha soliq davri

*A) kalendar yil

B) yil choragi

D) bir oy

E) olti oy

217. Ijtimoiy soliq bo‘yicha hisobot davri

A) kalendar yil

B) yil choragi

*D) yil oyi

E) olti oy

218. Ijtimoiy soliq bo‘yicha soliq hisoboti qaysi muddatga soliq organiga taqdim etiladi?

A) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay

B) soliq davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay

D) soliq davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay

*E) har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15 kunidan kechiktirmay

219. O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan ijtimoiy soliq bo‘yicha soliq hisoboti qaysi muddatga soliq organiga taqdim etiladi?

A) soliq davridan keyingi yilning 25 yanvariga qadar

*B) hisobot yilidan keyingi yilning 25 martiga qadar

D) hisobot yilidan keyingi yilning 15 fevraliga qadar

E) soliq davridan keyingi yilning 25 apreliga qadar

220. Ijtimoiy soliq qaysi muddatda to‘lanadi?

*A) har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

B) har chorakda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

D) yilda bir marta, yillik hisobotni taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

E) har olti oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay

221. Daromad olish maqsadiga ega bo'lmagan, daromadlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar

A) byudjetdan tashqari jamg'armalar

B) jamoat birlashmalari

*D) notijorat tashkilotlari

E) byudjet tashkilotlari

222. Soliq elementlariga nimalar kiradi?

*A) soliq ob'yekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq davri, soliq muddati

B) aniqlilik, yagonalik, adolatlilik, majburiylik, oshkoralik

D) majburiylik, uzluksizlik, ishonchlilik, yagonalik, maxfiylik

E) jismoniy shaxs, yuridik shaxs, rezident, norezident

223. O'zbekiston Respublikasi hududida nechta soliq turlari amal qiladi?

A) 6

B) 7

D) 8

*E) 9

224. O'zbekiston Respublikasi hududida soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun necha turdagi maxsus soliq rejimlari belgilangan?

A) 5

*B) 3

D) 6

E) 4

225. Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati

A) soliq bazasi

B) soliq huquqlari

*D) soliq imtiyozlari

E) soliq majburiyati

226. Hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summalari, shuningdek belgilangan muddatda to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalari

*A) soliq qarzi

B) soliq to'lovchining shaxsiy kabineti

D) ijara (lizing) to'lovi

E) ortiqcha to'langan soliq summasi (penya, jarima)

227. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi

*A) soliq to'lovchining shaxsiy kabineti

B) elektron raqamli imzo

D) soliq to'lovchilarning konsolidatsiyalashgan guruhi

E) kameral soliq

228. Ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to'lanadigan summa

*A) ijara (lizing) to'lovi

B) ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi

D) soliq to'lovchi tomonidan e'tiroz bildirilmagan qarz yoki sud qarori bilan tasdiqlangan qarz

E) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

229. Moliyaviy ijara (lizing) ob'jektining ijara (lizing) to'lovi summasi va qiymati o'rtasidagi farq

*A) ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizdan olinadigan daromadi

B) ijara (lizing) to'lovi

D) royalti

E) ortiqcha to'langan soliq summasi (penya, jarima)

230. Soliqning (penyaning, jarimaning) to'langan summasi bilan haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi ijobiy farq

*A) ortiqcha to'langan soliq summasi (penya, jarima)

B) ortiqcha undirilgan soliq summasi

D) ijara (lizing) to'lovi

E) soliq qarzi

231. Soliq siri nima?

*A) vakolatli organlar tomonidan olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar

B) jismoniy shaxslar tomonidan olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar

D) yuridik shaxslar tomonidan olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar

E) soliq organi tomonidan olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar

232. Maqsadli mablag'lar deganda nima tushuniladi?

*A) soliq solish maqsadida soliq to'lovchi tomonidan maqsadli mablag'larning manbai bo'lgan shaxs tomonidan belgilangan yoki qonunchilikda belgilangan maqsadga ko'ra foydalanish uchun olingan mol-mulk

B) tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo'lgan va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan har qanday predmet

D) har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to'lovlar

E) nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf

233. Tovar deb e'tirof etiladi

*A) tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo'lgan va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan har qanday predmet

B) har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to'lovlar

D) nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf

E) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

234.Royalti bu..

*A) har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to'lovlar

B) nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf

D) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

E) soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati

235.Daromad nima?

*A) nafni baholash imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda va bunday nafni baholash mumkin bo'lgan darajada hisobga olinadigan pul yoki natura shaklidagi iqtisodiy naf

B) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

D) tabiatning yoki inson faoliyatining (shu jumladan intellektual faoliyatning) qiymat bahosiga ega bo'lgan va realizatsiya qilish uchun mo'ljallangan har qanday tushum

E) soliqning (penyaning, jarimaning) to'langan summasi bilan haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi ijobiy farq

236.Xedjirlash operatsiyalari deganda nima tushuniladi?

*A) soliq to'lovchi uchun noxush oqibatlarni (to'liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari amalga oshiriladigan operatsiyalar

B) shartnoma bo'yicha mol-mulkni (moliyaviy ijara ob'yektini) o'n ikki oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanishga berish chog'ida yuzaga keladigan ijara munosabatlari

D) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

E) soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati

237.Moliyaviy ijara deb e'tirof etiladi

*A) shartnoma bo'yicha mol-mulkni (moliyaviy ijara ob'yektini) o'n ikki oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanishga berish chog'ida yuzaga keladigan ijara munosabatlari

B) soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati

D) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

E) soliq to'lovchi uchun noxush oqibatlarni (to'liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) maqsadida muddatli bitimlarning moliyaviy vositalari amalga oshiriladigan operatsiyalar

238.Soliq qarzi nima?

*A) hisoblab chiqarilgan (hisoblangan) va belgilangan muddatlarda to'lanmagan soliqlarning, shu jumladan ular bo'yicha bo'nak va joriy to'lovlarning summolari, shuningdek belgilangan muddatda to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar va penyalari

B) sud qarori bilan majburiyatning bekor qilinishi tufayli yoxud bankrotlik, tugatish, qarzdorning vafoti yoki da'vo muddati tugashi sababli to'lanishi mumkin bo'lmagan qarz

D) ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizing oluvchi) tomonidan to'lanadigan summa

E) soliqning (penyaning, jarimaning) to'langan summasi bilan haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi ijobiy farq

239.Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti

*A) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi

B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi

D) O'zbekiston Respublikasi qonunchilik apparati rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi

E) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi

240.Notijorat tashkilotlar

